

67. 40782 73

M 54

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

MATLUBA MIRZAABDULLAYEVA

FERMER XO'JALIGI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

*Oliy o'quv yurtlarining 5A 380106 – Qishloq xo'jaligi huquqi; yer,
suv, o'rmon va kon huquqi; ekologiya huquqi mutaxassisligi
bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlar uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2010



67.407973
M 54

Mirzaabdullayeva M.R.

Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy tartibga solish. –T: «Yangi asr avlodi»,
2010. – 200 b.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatida fermer xo'jaliklarining o'rni, fermer xo'jaligi tushunchasi, tashkil etish tartibi, fermer xo'jaligi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi, fermer xo'jaligining yer va suvdan foydalanish huquqi, fermer xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlar, ularni moliyalashtirishning huquqiy tartibi, fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi, fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik, fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish muammolari kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu kitob huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrlar uchun mo'ljallangan. Undan aspirantlar, o'qituvchilar, huquqni muhofaza qilish va tabiatni muhofaza qilish organlari xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

BBK 67.407973

Taqrizchilar:

M.B.USMONOV,
yuridik fanlari doktori, professor
R.E.TURDIBOYEVA,
yuridik fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-08-612-8

© Matluba Mirzaabdullayeva, «Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy tartibga solish». «Yangi asr avlodi», 2010-yil.

I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AGRAR ISLOHOTLARIDA FERMER XO'JALIKLARINING O'RNINI VA RIVOJLANISHI

REJA:

- 1. O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uning yo'nalishlari.*
- 2. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishi sifatida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish.*
- 3. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar.*

I

O'zbekiston Respublikasida bozor islohotlariga o'tishning tamoyillari asosida qishloq xo'jaligi rivojlanishida tub burilish yasaldi. Respublikamiz qishloq xo'jaligida olib borilayotgan agrar siyosat qishloqda chinakam mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali qishloq aholisini turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlarni xalqimiz manfaatlarini ko'zlab va bozor iqtisodiyoti talablari asosida bosqichma-bosqich isloh qilish agrar siyosatning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Islohotlarning ilk bosqichida mamlakat qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki asoslari yaratildi. Bunda ustuvor yo'nalish qilib shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish belgilangan edi. Ular ixtiyoridagi yer maydonlari 1989–1995-yillarda ikki barobarga ko'paydi.

Natijada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashda va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda barqarorlikka erishildi.

Tarmoqda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga va xususiylashtirishga muhim ahamiyat berildi. Jumladan, 1066 ta davlat

xo'jaliklari (sovxozlar) tugatilib, ular negizida jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Chorvachilik fermalari, bog' va tokzorlar, kichik yer maydonlari hamda issiqxonalar xususiy lashtirildi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar va tegishli Hukumat qarorlari qabul qilinib, me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi.

Bunday huquqiy bazaning yaratilishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga zamin yaratdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning xalqaro andozalar va xalqimiz turmush tarziga mos keladigan shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklaridan iborat modeli tanlandi.

Shirkat xo'jaliklarida ishlab chiqarish oila pudrati asosida tashkil etildi, pudratchilarning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligini oshiradigan va mas'uliyatini ta'minlaydigan tizim yaratildi. Qishloq xo'jaligida tovar yetishtiruvchilar faoliyatini erkinlashtirish bosqichma-bosqich olib borildi, xalqimiz uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan paxta va dondan boshqa barcha mahsulotlarga davlat buyurtmasi bekor qilindi.

Yer munosabatlarida yangi tamoyillar joriy qilindi. Shirkat xo'jaliklarida ekin maydonlarini, bog' va tokzorlarni oila pudratchilariga tanlov asosida uzoq muddatga ijaraga berish amalga oshirila boshlandi. Yerni fermer xo'jaliklariga 50 yilgacha va dehqon xo'jaliklariga umrbod foydalanishga berish tizimi yaratildi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida soliq tizimi takomillashtirilib, 1999-yil 1-yanvardan boshlab, uning mavjud bir nechta turlari o'rniga yagona yer solig'i joriy etildi. Bu tadbir MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib qo'llanila boshlanganligi va hozirgacha amaldaligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi 2000-yildan boshlandi. Bu bosqich:

– qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilar haq-huquqlarini himoya qilish ustuvorligi;

– tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligini yanada kengaytirish va davlat buyurtmasi bo'yicha yetishtirilayotgan

mahsulotlarga baho belgilashda dunyo bozori narxlariga mos keluvchi tizimni shakllantirish;

– shirkat xo‘jaliklarini, birinchi navbatda past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarni fermer xo‘jaliklariga aylantirish asosida qayta tashkil etish mexanizmi joriy etilishi;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi zamonaviy infratuzilma tizimining barpo etilishi bilan xarakterlanadi.¹

Xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlarini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida tashkil etish boshlandi. Ular birinchi navbatda yangi fermer xo‘jaliklari tuzilayotgan hududlarda barpo etilmoqda. Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi o‘tish davrining murakkab bosqichlarida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajara oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmoni qishloq xo‘jaligida tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo‘lib, tarmoq rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Farmon ayrim idora va vazirliklarning shirkat hamda fermer xo‘jaliklari erkin faoliyatiga to‘g‘anoq bo‘lib kelgan buyruqbozlik va taqsimot funksiyalariga chek qo‘ydi.

Ushbu hujjat qishloq xo‘jaligida mana shunday kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini hamda yaqin kelajakda tarmoqni rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishdagi vazifalarni aniq belgilab berdi.

Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mulkchilikning ijara shakllarini, shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xo‘jalik yuritish tizimini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini ana shu maqsadga qaratish, turli tashkiliy-huquqiy

¹ Jo‘rayev A. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. –Toshkent: «Universitet», 2005. 7-b.

shakldagi xo'jalik yuritish subyektlari saqlab qolingan holda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish muhim yo'nalish etib belgilandi. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish tanlov asosida, oshkoralikni ta'minlagan holda amalga oshirilmoqda.

Shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish faoliyatida yanada keng erkinlik berildi, bir vaqtning o'zida yer-suv resurslaridan unumli foydalanish va shartnoma shartlarini bajarishda tomonlarning javobgarligi va mas'uliyati oshirildi. Farmonda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan bosh maqsad islohotlarni yanada jadallashtirish, mavjud tabiiy, iqtisodiy, tashkiliy va mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, pirovard natijada aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan.

II

O'tkazilayotgan agrar siyosatda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish masalasining ustuvorligi o'rnatildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»¹ gi Farmoni qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishida yana bir muhim, yangi bosqichni boshlab berdi hamda qishloq xo'jaligida yaqin kelajakda tarmoqni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishdagi vazifalarni aniq belgilab berdi.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mulkchilikning ijara shaklini, shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xo'jalik yuritish tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari manfaatlari ustuvorligini ta'minlash va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini ana shu maqsadga qaratish, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yuritish subyektlari saqlab qolingan holda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish muhim yo'nalish etib belgilandi.

¹ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami». 2003-y., 5-6-son, 46-modda.

Farmonda shirkat, dehqon va fermer xo'jaliklarining teng huquqligini saqlab qolgan holda fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirishga alohida urg'u berildi. Negaki, fermer xo'jaliklari xo'jalik yuritishning eng samarali shakli ekanligini qisqa muddat ichida isbotlay oldi. Buni 2003-yilning oxiri va 2004-yilning boshida tugatilgan 326 ta shirkat xo'jaligi negizida tashkil etilgan 15161 ta fermer xo'jaliklarining ilk natijalari yaqqol ko'rsatib turibdi.

Yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida birinchi yilning o'zidayoq paxtaning hosildorligi 6,4 sentnerga, donning hosildorligi 5,3 sentnerga oshdi. Rentabellik darajasi paxtada – 12,8 foizdan 18,9 foizga, donchilikda – 1,9 foizdan 19,8 foizga yetdi. Fermerlarda mahsulot birligiga ketadigan moddiy resurslar sarfi sezilarli darajada kamaydi.

Moddiy xarajatlar har gektariga mineral o'g'it bo'yicha 46 kilogramm, yonilg'i-moylash materiallari bo'yicha 67 kilogrammga kam bo'ldi.¹

Respublikada fermerchilik faoliyatini kengroq yoyish, yanada jonlantirish, takomillashtirish maqsadida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutuvchi konsepsiya ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»² gi 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»³ gi 476-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-2007-yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida»⁴ 2004-yil

¹ Jo'rayev A. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – Toshkent: «Universitet», 2005. 8-b.

² Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti. 2003, 12-bet.

³ O'sha manba. 41-bet.

⁴ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami». 2004-yil, 52-son.

4-noyabrdagi F-2069-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli «2005–2007-yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹gi qarorlarida yaqin yillarda fermer xo'jaliklari barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Ushbu hujjatlar asosida:

– fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan, fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantiradigan va mas'uliyatni oshiruvchi chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

– fermer xo'jaliklarining kreditlarni bemalol olishini kengaytirish hamda ularni berish tartibini soddalashtirishni hisobga olgan holda fermerlarning qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishini moliyalash va kreditlash tizimi takomillashtirildi, moliyaviy mablag'lardan foydalanishda fermer xo'jaliklarining mustaqilligini, barcha xarajatlarni qishloq xo'jaligi mahsulotini sotishdan tushadigan o'z daromadlari hisobiga qoplashni ta'minlaydigan ishonchli tizimi shakllantirildi;

– yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotini sotishda, moddiy-texnika resurslarini olishda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash hamda ularga ko'rsatiladigan lizing xizmatlarini kengaytirish asosida fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari yaratildi;

– qishloqda mahsulot tayyorlash, uni qayta ishlash va sotish, shuningdek fermer xo'jaliklariga servis xizmati ko'rsatish bo'yicha infratuzilmani keng ko'lamda rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqildi;

– bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash tizimi yaratildi.

¹ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2004-yil, 52-son, 521-modda.

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijasida 2007-yilga borib fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlarining umumiy qishloq xo‘jaligi yerlaridagi salmog‘ini 17,5 foizdan 63,3 foizgacha va sug‘oriladigan maydonlardagi salmog‘ini 72,1 foizgacha ko‘paytirish, fermer xo‘jaliklarining yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmidagi ulushlari 14,1 foizdan 26,1 foizga, ular yetishtiradigan mahsulot miqdori 2 barobarga ortishi kutilmoqda.¹

Respublika Prezidenti I.A. Karimov 2005-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasida ta’kidlab o‘tganidek, 2005-yilda ham, «qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tubdan isloh qilish va birinchi galda qishloqda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish masalasiga katta e‘tibor qaratildi»².

2005-yilda soni 125000 tadan oshgan va O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining asosiy bo‘g‘iniga aylanib borayotgan fermer xo‘jaliklarida bugungi kunda 1 milliondan ziyod kishi band bo‘lib, 2005-yilgi paxta xom ashyosining 66 foizi, g‘allaning 55 foizidan ortigi ushbu xo‘jaliklari tomonidan yetishtirildi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, «fermer xo‘jaliklarini rivojlanishi va mustahkamlanishi hamda shu jarayonga bevosida bog‘liq bo‘lgan qishloqdagi tub islohotlarning samarali amalga oshirilishi juda oddiy, ammo muhim bir tamoyilga asoslanishini unutmasligimiz kerak. Ya‘ni bu borada fermerlarning shaxsiy manfaatdorligi birinchi o‘rinda turishi kerak».

¹ Salimov A. Fermer xo‘jaliklarini ustuvor rivojlantirishning tashkiliy va huquqiy asoslari. /Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. – Toshkent. «Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2004. 233-b.

² Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. /Toshkent oqshomi. №29. 13.02.2006. 2-3-betlar.

«Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»¹ gi Qonunning 29-moddasida «Davlat fermer xo‘jaliklarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlaydi. Davlat organlari fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish va mustahkamlashga ko‘maklashishlari shart» deb aniq belgilab qo‘yilgan.

Darhaqiqat, qonunlarda fermerlarning u yoki bu huquqlarini nazarda tutish, mustahkamlab qo‘yishning o‘zi kifoya emas. Bu huquqlar real amalga oshirilishi, rioya qilinishi uchun real shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim. Aks holda qonun haqiqiy amaliy kuchga ega bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham, davlat tomonidan qonunlarda belgilangan huquqlarga rioya qilinishi, ularni amalga oshirilishini ta‘minlovchi kafolatlar belgilangan. Fermerlar huquqlari va manfaatlarining kafolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, FKda, mulkchilik, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari haqidagi qonunlarda, Xususiy tadbirkorlik to‘g‘risida Nizomda va boshqa qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil 25-mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»² gi qonun amal qilmoqda. Ushbu Qonunni 18-34-moddalarida tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari bevosita mustahkamlab qo‘yilgan. Tadbirkorlarga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Mamlakatimiz agrar sohasidagi yetakchi o‘rinni egallovchi fermer xo‘jaliklarining bugungi kundagi ahamiyatidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunda

¹ «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2004-yil, 40-41-son, 433-modda.

² Zakonodatelstvo RUz. Norma. 2005.

ularning qator mulkiy huquqiy kafolatlari mustahkamlangan. Jumladan, fermer xo'jaliklarining yer uchastkalaridan foydalanish huquqi kafolatlari (24-modda), fermer xo'jaliklarining moddiy texnika resurslari, urug'lik materiallar, ko'chatlar va zotdor chorvadan erkin foydalanish kafolatlari (28-modda), fermer xo'jaliklarining suvdan foydalanishni amalga oshirish kafolatlari kiradi (29-modda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹gi PF-3619 farmoni mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarga har tomonlama erkinlik berish yo'lida vujudga keltirilgan tashkiliy-huquqiy shakllardan yana biri bo'ldi. Farmonda tadbirkorlarning, xususan fermer xo'jaliklarining ham faoliyatiga aralashuvni kamaytirish va ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida «nazorat organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslar tadbirkorlik subyektlarini o'z vakolatlari va nazorat sohasi doirasidan tashqari masalalar bo'yicha har qanday tekshiruvdan o'tkazganligi uchun shaxsan javobgar, hatto jinoiy javobgar ham bo'ladilar» deb belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish maqsadida hamda javobgarlikni qo'llashning xalqaro umumhuquqiy prinsiplaridan kelib chiqqan holda 2005-yil 24-iyunda qabul qilingan «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida»²gi Farmon tadbirkorlarning manfaatlari va qonuniy huquqlarini himoya qilishning aniq kafolatlaridan biri bo'ldi.

¹ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2005-yil, 23-24-son, 167-modda.

² «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2005-yil, 25-26-son, 178-modda.

Shuningdek, qonunlarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fermer xo'jaliklariga ko'mak berishlari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari fermer xo'jaliklariga ham tatbiq etilishi belgilangan.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotida fermer xo'jaliklari mustahkam o'rin topib bormoqda, buning uchun barcha zaruriy huquqiy asoslar yaratilgan. Biroq, olib borilayotgan ishlarning barchasini-da qoniqarli deb bo'lmaydi. Jumladan, fermer xo'jaliklariga servis xizmatlari ko'rsatish ishlari talab darajasida emas.

Ayrim hollarda shirkat xo'jaliklarni tugatish bo'yicha tashkil etilgan komissiyalar tomonidan fermer xo'jaliklari tanlovi nomigagina yuzaki o'tkazilmoqda. Ko'pgina hollarda yer maydonlarini haqiqiy ishlovchilarga bermasdan, sohadan uzoqda bo'lgan, dehqonchilik tajribasiga ega bo'lmagan, shahardan kelgan yoki qishloq xo'jaligiga umuman aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarga berish davom etmoqda. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi MTPlarning shartnomalarni o'z vaqtida bajarmaslik hollari ko'plab uchramoqda. Banklar fermer xo'jaliklariga kredit berish masalasiga yetarli etibor bermayapti...

Buning asosiy sababi, ayrim tuman hokimlarining, aloqador tashkilotlar, shirkat va fermer xo'jaliklari hamda mutaxassislarining qishloq xo'jaligi bo'yicha qilingan qonunlar, hukumat qarorlari va tegishli me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetmasligidir. Bu esa o'z navbatida sohada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.¹

Ta'kidlanganidek, fermer xo'jaliklarini shakllantirishni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning so'zsiz bajarilishiga alohida e'tibor berish va bu masalada qat'iy nazorat

¹ Mirziyoyev Sh. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish – davr talabi./ Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –Toshkent: «Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2004. 7-b.

o'rnatish zarur. Bugungi kunda oldimizda turgan vazifalarni bajarish uchun ushbu soha vakillari qishloq xo'jaligi sohasining asoslarini, me'yoriy hujjatlarni chuqur o'zlashtiribgina qolmay, balki ularning targ'ibotchisi va tashviqotchisi ham bo'lishlari lozim.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bugungi kunda xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining ongi va huquqiy madaniyatini oshirishning keng qamrovli choralarini ko'rish kerak.

III

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda quyidagi natijalar ko'zda tutilgan edi:

– 2007-yilga borib fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlarining umumiy qishloq xo'jaligi yerlaridagi salmog'ini 17,5 foizdan 63,3 foizgacha va sug'oriladigan maydonlardagi salmog'ini 72,1 foizgacha ko'paytirish.

– 2007-yilga qadar fermer xo'jaliklarining respublika bo'yicha qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushini 25 foizgacha yetkazish.

– Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish bo'yicha infratuzilma obyektlari sonini 2007-yilgacha 8,2 mingga oshirish.

– 2003-yilga nisbatan muqobil mashina-traktor parklari soni 4,1 baravar, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi 4,6 baravar, mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari sotish obyektlari tarmog'i 4,4 baravar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlash tarmoqlari 1,8 baravar, yoqilg'i-moylash materiallari sotish tarmoqlari 4,6 baravar, axborot bilan ta'minlash va konsalting tarmoqlari 1,9 baravar, kichik banklar 3,1 baravar, nasldor mollar sotish va zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish tarmoqlari 1,2 baravar ko'payishi.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «2004–2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-noyabrdagi «2006-yilda qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar)ni fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-215 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 447 ta shirkat xo'jaliklari tugatilib, ularning negizida fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Bugungi kunda Respublikamizda fermer xo'jaliklari soni 190237 tani tashkil etadi.¹

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 14 foizdan ortig'i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Yetishtirilayotgan jami g'alla va paxta hosilining uchdan bir qismi fermerlar mehnatining mahsulidir.

Prezident Islom Karimov 2003-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida, fermerlik harakatini rivojlantirish nafaqat qishloq xo'jaligi, butun iqtisodiyotimizning kelajagi deya e'tirof etib, «islohotlar va o'zgarishlar yo'lida faqatgina erishilgan marralar bilan cheklanib qolish aslo mumkin emas. Avvalo, barchamiz oddiy bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz lozim – ya'ni iqtisodiyotdagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni hech qachon nihoya bilmaydi. Albatta, biron-bir bosqich yakunlanishi mumkin, ammo hayotning o'zi yangi-yangi bosqich va vazifalarni hamisha oldimizga qo'yaveradi»,² deya ta'kidladi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, faoliyatlarini samaradorligini oshirish masalasida Respublikamizda olib borilayotgan agrar islohotlar ham davr talabi asosida takomillashib boraveradi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 25-fevraldagi 87-son qarori bilan

¹ Fermer xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish uchun yer uchastkalarini ajratib berish. // O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot. – Toshkent, 2007, 19-bet.

² Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish asosiy vazifamiz. / Informatсионno-pravovoy sistemi «Norma». OOO «NORMA HAMKOR». Versiya-3. 2005.

tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi to'g'risidagi Nizom»¹ ga asosan, ushbu Komissiya o'z faoliyatini qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish ta'minlanishini, islohotlarni amalga oshirishning borishini chuqur tahlil qilishni, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha takliflar kiritish tashabbusi bilan chiqish va ularni tayyorlashni tashkil etish maqsadida amalga oshiradi.

Demak, aytishimiz mumkinki, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish davlatimiz agrar siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qolaveradi.

Nazorat savollari:

- 1) *O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy yo'nalishlarini nima belgilaydi?*
- 2) *Iqtisodiy islohotlar necha bosqichda amalga oshirilmoqda?*
- 3) *Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdan qanday maqsad va vazifalar ko'zda tutilgan?*
- 4) *Fermer xo'jaligi qanday qishloq xo'jalik korxonasi?*

¹ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2004-yil, 8-son, 97-modda.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FERMER XO'JALIGI FAOLIYATIGA OID QONUNCHILIK TIZIMI

REJA:

1. Fermer xo'jaligi faoliyatiga oid qonunchilik tizimi tushunchasi va uning konstitutsiyaviy asosi.
2. Fermer xo'jaligi faoliyatida qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlarining o'rni va ahamiyati.
3. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning fermer xo'jaligi faoliyatida tutgan o'rni.

I

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy xususiyat va qadriyatlar, demokratik qonuniyatlar hamda milliy dehqonchilik an'analari asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari orqali amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklari – o'z faoliyatlarini aniq qonunlar asosida olib boradilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fermer xo'jaligi faoliyatiga oid qonunchilik murakkab tizimga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi 2000-yil 14-dekabr 160-II-son qonuni mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflash (klassifikatsiyalash) mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari. **(5-modda).**

Fermer xo'jaligi faoliyatiga oid qonunchilikni yuqoridagi ko'rsatilgan tartibda tasniflash ushbu huquqiy-hujjatlarning xilma-xilligi va murakkab tizimga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, konstitutsiyaviy qoidalarda belgilangan agrar munosabatlarning asosiy tamoyillari negizida qishloq xo'jalik ishlab

chiqarishga oid qonunlar qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimiz mustaqilligining huquqiy poydevorini yaratib, jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy tamoyil va qoida-talablarni belgilab berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarining qishloq xo'jaligidagi tutgan o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, Asosiy qonunimizning 18, 19, 20-moddalarining mazmun-mohiyati shundan iboratki, birinchidan, agrar munosabatlarida ishtirok etayotgan fuqarolar bir xil huquq, erkinliklarga ega bo'lib, qonun oldida tengligi hamda qishloq xo'jalik xususiyatlari, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida imtiyoz va manfaatlarga ega bo'lishi; ikkinchidan, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlari, erkinliklari va huquqlariga putur yetkazmasligi tamoyillari belgilab qo'yilgan.¹

Agrosanoat majmuasida jismoniy va yuridik shaxslarning Konstitutsiyada mustahkamlangan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, Asosiy qonunda belgilangan ushbu qoidalarning agrar ijtimoiy jarayonidagi o'rni muhim, ya'ni, «har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi» (36-modda); shuningdek, «har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir» (37-modda).²

Ma'lumki, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, manfaatlari bilan bir qatorda ularning burchlari ham Konstitutsiyada ifoda etilgan bo'lib, jamiyatning barcha jabhalarida, shu jumladan, agrosanoat majmuida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, fuqarolar:

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: «O'zbekiston», 2003.

² O'sha manba.

– Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar (48-modda);

– atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar (50-modda);

– qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar (51-modda) va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyatning iqtisodiy negizlari, iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, belgilari ham mustahkamlangan bo‘lib, ushbu qoida-talablar bevosita qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi.

Xususan, 53-modda, «Bozor munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin» – deb, belgilangan.

Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning agrosanoat iqtisodiyotidagi ahamiyati shundaki, birinchidan, qishloq xo‘jaligida mulkchilikning xilma xil shakllarini joriy etish, ko‘p ukladli xo‘jalik jarayonini takomillashtirish orqali qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi; ikkinchidan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda samaradorligini oshirishga qaratilgan xo‘jalik yuritishning turli shakl va usullarini amalga oshirishni ta’minlaydi va kafolatlaydi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish jarayonida davlat mulki, xususiy mulk, jamoa mulki, aralash mulk va boshqa mulk shakllariga asoslangan mulkdorlar, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslar faoliyat yuritadilar. Konstitutsiyamizning 54-moddasida, yuridik va jismoniy shaxslar mulk huquqining mazmuni, ya’ni egalik qilish, foydalanish,

tasarruf etish kabi mulkiy huquqlari belgilanib, mulkiy munosabatlarning mohiyatini ochib beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan, qishloq xo'jaligida mulkdan foydalanish, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini olib borish jarayonida atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasliklari, ekologik qonunchilik qoida-talablariga amal qilishlari hamda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shartdir.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada qishloq xo'jalik qonunchilik hujjatlari qoida-talablarini barcha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirishni ta'minlash, qonuniylik va ijtimoiy adolatni kafolatlashga xizmat qiladigan sud hokimiyati tizimi, prokuratura organlarining huquqiy holati belgilanib, jamiyatimizning boshqa sohaları kabi qishloq xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni kafolatlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy tamoyil, qoida-talablar asosida qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun muhim bo'lgan maxsus qonunchilik hujjatlari qabul qilinadi.

II

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa jabhalarda keng qamrovli, tub islohotlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadi fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan ko'p tarmoqli iqtisodiyotini rivojlantirish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, burchlarini ta'minlash va kafolatlash asosida kelajagi buyuk davlatni yaratishdan iborat. Albatta, olib borilayotgan tub islohotlarni amalga oshirishda qonunchilik hujjatlarining ahamiyati cheksizdir. Qonunchilik hujjatlari asosida jamiyat hayotining turli sohalarida

paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Ayniqsa, respublikamizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarning huquqiy asosini qonunchilik hujjatlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta'minlamasdan turib, bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bozor munosabatlarining butun mexanizmi davlat tomonidan ko'rsatiladigan va qonun bilan mustahkamlanadigan bozor shart-sharoitlari doirasidagina amalga oshiriladi. Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i kerak.¹

Fermer xo'jaliklari rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratadigan qonunlar tizimi quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996-yil),² O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (1997-yil 24-aprel),³ «Fermer xo'jaligi to'g'risida» (2004-yil 26-avgust), «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida» (1998-yil 30-aprel), O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida» (1990-yil 31-oktabr), «Ijara to'g'risida» (1991-yil 19-noyabr), «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» (1992-yil 9-dekabr), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» (1993-yil 6-may), «Bankrotlik to'g'risida» (1994-yil 5-may), «Bank va bank faoliyati to'g'risida» (1996-yil 25-aprel), «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» (1997-yil 26-dekabr), «Yer kodeksi» (1998-yil 30-aprel), «Garov to'g'risida» (1998-yil 30-aprel) va boshqalar.

Ushbu qonunlar Fermer xo'jaliklari faoliyatini qamrab olgan holda, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, qonunlar qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida tub iqtisodiy islohotlarni

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. –T.: «O'zbekiston» 1993-y. 69-70-betlar.

² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat». 1996-y.

³ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Adolat».

chuqurlashtirishga xizmat qiladi hamda qishloq xo'jaligi tizimini turli tarmoqlari va yo'nalishlarida agrar munosabatlarni tartibga soladi.

Qonunlar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalarining, shuningdek, fermer xo'jaliklarining kompleks munosabatlari, ya'ni mehnat, moliyaviy, xo'jalik, ma'muriy, ekologik va tashqi sohalaridagi faoliyatini yagona maqsadga birlashtirib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga qo'llaydi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy tartibga solishda agrar huquqiy tartibotni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (1995-yil 21-dekabr),¹ O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksi (1994-yil 22-sentabr),² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentabr),³ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi⁴ kabi qonunlar qishloq xo'jalik qonunchilik qoida talablari asosida yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini tartibga solish, o'rnatilgan agrar-huquqiy tartibotni yuridik va jismoniy shaxslarning noqonuniy harakat yoki harakatsizliklaridan muhofaza qilish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini kafolatlash orqali ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu qonun hujjatlarining vazifasi, birinchidan, qishloq xo'jalik qonunchilik hujjatlari qoida-talablarini buzgan fuqarolar, mansabdor shaxslar xatti-harakat yoki harakatsizligining ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish; ikkinchidan, qishloq xo'jaligidagi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni o'z vaqtida qoplashni amalga oshirishdan iboratdir.

¹ O'zR Mehnat Kodeksi. «Adolat», 1996-y.

² O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksi. – T.: «Adolat». 1995-y.

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. –T.: «Adolat», 1995-y.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat», 1996-y.

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish, agrosanoat ishlab chiqarish mexanizmida konstitutsiyaviy qoidalar, qonunlar bilan bir qatorda qonun osti me'yoriy hujjatlarining o'rni muhimdir.

Agrar munosabatlarni bevosita tartibga solishga qaratilgan qonunlarning hayotga tadbiq etilishini ta'minlash maqsadida qonun osti me'yoriy hujjatlari qabul qilinadi. Qonun osti me'yoriy hujjatlarining asosiy maqsadi va vazifasi qonunlarning qoida-talablarini har bir mintaqa, viloyat, shahar, tuman va qishloqlarning tabiiy va mahalliy xususiyat va sharoitlarini hisobga olgan holda amaliyotga qo'llashni ta'minlashdan iboratdir.

Umumhuquq nazariyasiga muvofiq, qonunchilik hujjatlari tizimi konstitutsiyaviy qoidalar, qonunlar va qonun osti me'yoriy hujjatlar farmon, qaror, nizom, yo'riqnoma, ustav va boshqalardan iborat.

Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarish subyektlari bilan munosabatga kirishishi va faoliyatlarini hayotiyligini ta'minlashda qonun osti me'yoriy hujjatlarining ahamiyati beqiyosdir.

Jamiyatda agrar qonunlarning tez-tez o'zgarib, to'ldirilib turilishi o'z navbatida ularning barqarorligi, ya'ni, hayotiyligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham, asosan qonunlar asosida qabul qilingan qonun osti me'yoriy hujjatlari tez-tez o'zgartirilib, to'ldirilib, o'zgaruvchan tabiiy omillarga moslashib boradi. Aytish mumkinki, qonun osti me'yoriy hujjatlari qonunlarning hayotga tatbiq etish, belgilangan qoida-talablarining barqarorligini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun osti me'yoriy hujjatlari tizimi quyidagilardan iborat:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori;

– Qishloq xo'jaligida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari hisoblangan vazirlik, davlat qo'mita va idoralarining nizom, yo'riqnoma va buyruqlari va boshqa me'yoriy ko'rsatmalari;

– Mahalliy davlat hokimiyat organlarining qishloq xo'jaligiga oid farmoyish va qarori;

– Fermer xo‘jaliklari Namunaviy ustavi va ichki xo‘jalik ustav, qoidalari va boshqa hujjatlari.

Shunday qilib, qonun osti me‘yoriy hujjatlari tizimi ulkan xajmni tashkil etib, fermer xo‘jaliklari faoliyatiga oid munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati, o‘rni, ishtiroki va usuliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Respublikamizda «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida» (1998-yilgi qonun nazarda tutilmoqda) qonun qabul qilinganidan keyin, qonunni ijrosini hayotga tadbiiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida», «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi «O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini amalga oshirish muddatlari va chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1998-yil 15-iyul, 300-sonli qarorni qabul qildi. Ushbu qaror asosida fermer xo‘jaliklari tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solishga qaratilgan quyidagi huquqiy hujjatlar tasdiqlandi:

«Faoliyat ko‘rsatayotgan dehqon (fermer) xo‘jaliklari boshliqlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ushbu xo‘jaliklarni fermer xo‘jaliklari sifatida qayta ruyxatdan o‘tkazish tartibi», 1-ilova;

1. «Fermer xo‘jaligining namunaviy ustavi», 2-ilova;

2. «Fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini fuqarolarga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi», 3-ilova;

3. «Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga berishning na‘munaviy shartnomasi», 4-ilova.¹

Yuqorida ta‘kidlangan qonun osti me‘yoriy hujjatlari respublikamizda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning dastlabki bosqichida muhim ahamiyat kasb etib, fermerlik faoliyatini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bugungi kunda fermer xo‘jaliklari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunlar bilan bir qatorda quyidagi qonun osti me‘yoriy hujjatlari amal qilmoqda:

¹ O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me‘yoriy hujjatlar to‘plami. –T.: «O‘qituvchi» 1998-yil, 195-230-betlar.

1. Fermer xo'jaligi faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Dehqon va fermer xo'jaliklari davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1997-yil 18-martdagi PF-1737-sonli farmoni,¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fermerlarni, xususiyl tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2000-yil 4-martdagi 75-son qarori,² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2001-yil 10-sentabrdagi 366-sonli qarori,³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida» 1998-yil 27-maydagi 232-sonli qarori,⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi 2003-yil 24-martdagi PF-3226-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi

¹ O'zR Prezidentining 07.09.2001-y. PF-2933-sonli farmoni tahriridagi sarlavha. Mazkur farmonga O'zR Prezidentining 07.09.2001-y. PF-2933-sonli farmoniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

² O'zR VM 17.01.2004-y. 28-son Qarori tahriridagi Qaror nomi. Mazkur Qarorga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR VM 27.06.2001-y. 276-son Qarori, O'zR VM 14.01.2003-y. 17-son Qarori, O'zR VM 17.01.2004-y. 28-son Qarori, O'zR VM 11.02.2005-y. 59-son Qarori, O'zR VM 08.09.2005-y. 206-son Qarori.

³ Mazkur Qarorga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR VM 28.02.2003-y. 112-son Qarori, O'zR VM 17.01.2004-y. 28-son Qarori, O'zR VM 12.03.2004-y. 121-son Qarori, O'zR VM 11.02.2005-y. 59-son Qarori.

⁴ O'zR VM 17.01.2004-y. 28-son Qarori tahriridagi Qaror nomi. Mazkur Qarorga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR VM 27.06.2001-y. 276-son Qarori, O'zR VM 14.01.2003-y. 17-son Qarori, O'zR VM 24.12.2003-y. 563-son Qarori, O'zR VM 17.01.2004-y. 28-son Qarori, O'zR VM 12.03.2004-y. 121-son Qarori, O'zR VM 11.02.2005-y. 59-son Qarori, O'zR VM 11.08.2005-y. 193-son Qarori.

Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo‘jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2003-yil 5-noyabrdagi 486-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 25-fevraldagi 87-son qaroriga 2-ilova «Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi to‘g‘risida Nizom», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2004-yil 11-mart PF-3406-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-3342-sonli farmoni va unga ilova «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori,¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo‘yicha maxsus komissiya tuzish to‘g‘risida»gi 2004-yil 4-noyabrdagi Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2005-yil 5-oktabrdagi PF-3665-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2005-2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli qarori,² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2006-yilda qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari)ni fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2005-yil 8-noyabrdagi PQ-215-sonli qarori.

¹ Mazkur qarorga quyidagilarga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan: O‘zR VM 16.08.2004-y. 397-son qarori, O‘zR VM 24.12.2004-y. 607-son qarori.

² Mazkur qarorga O‘zR VM 08.09.2005-y. 206-son qaroriga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

2. Fermer xo'jaligini tashkil etish tartibini belgilovchi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 1998-yil 22-apreldagi 168-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli qarori,¹ ushbu qarorga ilovalar «Qishloq xo'jaligi korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha komissiya to'g'risida namunaviy Nizom»,² «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirishda aktivlar va passivlarni taqsimlash tartibi», «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi negizida fermer xo'jaligi barpo etish uchun talabgorlarni tanlash va ularning tanlovini o'tkazish tartibi»,³ 2005-yil 18-noyabr-dagi 237a-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida Nizom», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3709-sonli Farmoni, 2006-yil 11-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-255-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2006-yil 18-yanvardagi 13-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning bog' va uzumzorlarini sotish tartibi to'g'risida Nizom».

3. Fermer xo'jaligini yer va suvdan foydalanishiga oid: Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 5-noyabr-dagi 486-sonli qaroriga 4-ilova «Yer uchastkalariga bo'lgan huquqni hamda qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida

¹ Mazkur qarorga O'zR VM 16.08.2004-yil 397-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

² Mazkur namunaviy nizomga O'zR VM 24.12.2004-yil 607-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

³ Mazkur tartibga O'zR VM 24.12.2004-yil 607-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

tuzilgan ijara shartnomalarini qayta rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom», Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qaroriga 7-ilova «Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida Nizom»,¹ O'zR MB boshqaruvining 2004-yil 13-martdagi 252-v-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom», Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli qaroriga 7-ilova «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari hududida o'zaro suv xo'jaligi munosabatlarini tartibga solish tartibi»,² O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yili 27-mayda 736-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi geodeziya, Kartografiya va davlat Kadastr bosh boshqarmasi³ tomonidan 1999-yili 30-martda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni Davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnomasi»⁴.

4. Moddiy texnika ta'minotiga oid: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001-yil 63-sonli qarori⁵ va ushbu qarorga ilova «Qishloq xo'jaligi ishlab

¹ Mazkur nizomga O'zR VM 24.12.2004-yil 607-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

² Mazkur tartibga O'zbekiston Respublikasi VM 24.09.2003-yil 411-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 15-dekabrda «Davlat boshqaruv organlarini takomillashtirish»ga oid Farmoniga muvofiq, ikki davlat organi birlashtirilib «Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastr Davlat qo'mitasi» deb nomlangan.

⁴ Informatсионно-правовой системы «Norma». ООО «NORMA HAMKOR». Versiya-3. 2005.

⁵ Mazkur qarorga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR VM 17.04.2003-y. 185-son qarori, O'zR VM 25.09.2003-y. 412-son qarori, O'zR VM 20.10.2003-y. 451-son qarori, O'zR VM 23.01.2004-y. 33-son qarori, O'zR VM 16.08.2004-y. 397-son qarori, O'zR VM 12.08.2005-y. 196-son qarori.

chiqaruvchilariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, kimyo mahsulotlariga buyurtmanomalarni shakllantirish, ularni berish va ular uchun hisob-kitob qilish tartibi»,¹ Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qaroriga 11-ilova «Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnoma», 12-ilova «Xizmatlar ko'rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma».

5. Fermer xo'jaligini moliyalashtirishga qaratilgan: Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-son qaroriga 8-ilova «Yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan kredit berish qoidalari», O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 7-mart 907-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 465-sonli 04.03.2000-yilda tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi»,² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va moliya vazirligining 2001-yil 14-sentabrdagi 203-v va 108-son qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari orqali yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibi to'g'risidagi Nizom»³ (yangi tahrirda), O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 29-fevral 903-son bilan ro'yxatga olingan,

¹ Mazkur tartibga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR VM 25.09.2003-y. 412-son qarori, O'zR VM 20.10.2003-y. 451-son qarori.

² O'zR AV 20.12.2003-y. 907-2-son bilan ro'yxatga olingan, O'zR MB qarori tahriridagi tartib nomi. Mazkur tartibga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR AV 31.01.2002-y. 907-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB qarori, O'zR AV 20.12.2003-y. 907-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB qarori, O'zR AV 16.11.2004-y. 907-3-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB qarori.

³ O'zR AV 07.04.2004-y. 1074-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB B va MV qarori qarori tahriridagi nizom nomi. Mazkur nizomga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR AV 25.09.2003-y. 1074-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB B va MV qarori, O'zR AV 07.04.2004-y. 1074-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB B va MV qarori, O'zR AV 13.12.2004-y. 1074-3-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB B va MV qarori.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 464-sonli 22.02.2000-yilda tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga, o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etib amalga oshirayotgan kichik biznesning boshqa subyektlariga milliy va xorijiy valyutada mikrokreditlar berish Tartibi»,¹ Markaziy bank boshqaruvi tomonidan 2005-yil 22 oktabrda 23/9-son qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan shirkat va fermer xo'jaliklariga ularga tegishli paxta yog'i, shrot va sheluxani yog'-moy korxonalarini va ularning shoxobchalaridan o'z vaqtida xarid qilishlari uchun kredit berish tartibi to'g'risida Nizom», Qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2005-yil 6-noyabrdagi 223-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Topshirilgan paxta hosilidan fermer va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli bo'lgan paxta iste'mol yog'i, sheluxa va kunjarani yetkazib berish tartibi to'g'risida Nizom», Moliya vazirligi, Markaziy banki boshqaruvining 2005-yil 3-avgustdagi 71, 266-v-son qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom» (yangi tahrir), Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 1-martdagi 563-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida Nizom»,² Markaziy bank boshqaruvining 2004-yil 1-martdagi 564-son qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi

¹ Mazkur Tartibga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR AV 17.08.2000-y. 903-1-son bilan ro'yxatga olingan 1-son O'zgartirishlar, O'zR AV 24.08.2000-y. 903-2-son bilan ro'yxatga olingan 2-son O'zgartirish va qo'shimchalar, O'zR AV 10.07.2001-y. 903-3-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB Qarori, O'zR 31.01.2002-y. 903-4-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB Qarori, O'zR 20.12.2003-y. 903-5-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB Qarori, O'zR 16.11.2004-y. 903-6-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MB Qarori.

² Mazkur nizomga O'zR AV 30.04.2005-yil 1337-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

to'g'risidagi Nizom»,¹ O'zbekiston Respublikasi MB boshqaruvining 2004-yil 13-martdagi 252-v-son qarori bilan tasdiqlangan «Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom».

Aytish mumkinki, qonun osti me'yoriy hujjatlari respublikamiz agrar qonunchilik hujjatlari tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, qonun talablarini amaliyotda qo'llashni ta'minlashga xizmat qiladi.

III

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26 avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Fermer xo'jaligi to'g'risida» qonuni² davlat agrar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan, fermer xo'jaliklarini huquqiy holatini belgilab beruvchi asosiy qonun bo'lish bilan birga, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qonun 36 moddadan iborat bo'lib, fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning 3-moddasiga muvofiq, Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Nazorat savollari:

- 1) *Fermer xo'jaligi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik tizimi deganda nimani tushunasiz?*
- 2) *Qonunlarning fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdagi o'ziga xos o'rni?*
- 3) *Fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun osti me'yoriy hujjatlari tasnifi ayting?*

¹ Mazkur nizomga O'zR AV 31.12.2004-yil 1345-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

² «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2004-yil, 40-41-son, 433-modda.

4) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga oid qanday huquqiy hujjatlarini bilasiz?*

5) *Vazirlar Mahkamasining fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qarorlari qanday ahamiyat kasb etadi?*

III BOB. FERMER XO‘JALIGINI TASHKIL ETISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

REJA:

- 1. Fermer xo‘jaligini tashkil etishda talabgorlarni tanlash va ularning tanlovini o‘tkazish tartibi.*
- 2. Yer uchastkalarini berishda tanlov g‘olibini aniqlash tartibi.*

I

Ochiq aytish kerakki, bugun fermer bo‘lishni istaydigan odamlar juda ko‘p. Ammo, har kim ham haqiqiy fermer bo‘lolmaydi, desak, o‘ylaymizki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Hozirgi kunda, fermer deganda, biz qanday odamni ko‘z oldimizga keltiramiz?

Fermer degani – bu avvalo universal qobiliyatga ega bo‘lgan inson. Xalqimiz iborasi bilan aytganda, bugun fermerga qirq hunar ham oz. U bir vaqtning o‘zida ham dehqon, ham agronom, ham chorvador, kerak bo‘lsa, mexanizatorlik va mexaniklik ham qiladi, tabelchi va iqtisodchi, bankir va buxgalter, ta‘minotchi vazifalarini ham bajaradi. Shu bilan birga, u o‘z mahsulotini sotish masalalari bilan shug‘ullanishi lozim.

Ko‘rib turganimizdek, amalda fermerdan zarur ko‘nikma va bilimga ega bo‘lishni talab qilmaydigan sohaning o‘zi yo‘q. Shu sababli fermer bo‘lishni istaydigan odamlar o‘rtasida tanlov o‘tkazish, ularga yer ajratishda, yangi fermer xo‘jaliklarini ro‘yxatga olishda bu ishning hamma tomonlarini hisobga olib, o‘ta mas‘uliyat bilan yondashish darkor – deb, fermerlarga qo‘yilayotgan davr talablarini izohladi Prezident Islom Karimov 2003-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasida.

Amaldagi «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, o‘n sakkizga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka va

ish tajribaga ega bo'lgan shaxslar fermer bo'lishi mumkin. Lekin mazkur shartlarning mavjudligi fermer xo'jaligi tashkil etish va fermer bo'lish uchun yetarli degan xulosani bermaydi. Respublikamizda fermer xo'jaligini tashkil etish istagida bo'lgan shaxslarga qat'iy talablar qo'yilgan. Buning uchun belgilangan tartibda tanlovda g'olib chiqish lozim.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi negizida fermer xo'jaligi barpo etish uchun talabgorlarni tanlash va ularning tanlovini o'tkazish Tartibi»¹ va O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2005-yil 18-noyabrdagi 237a-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida Nizom» fermer xo'jaliklarini tashkil etishda talabgorlarni tanlash va ularning tanlovini o'tkazish shartlarini, tanlov g'oliblarini aniqlash tartibini belgilab beradi. Xususan, Nizomda O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 53-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2004-yil 24-dekabrda 607-sonli «2005–2007-yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlariga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotining vakolatli organi umumiy majlisi tomonidan ijaraga oluvchini aniqlamasdan ajratilgan yerlardan, shuningdek, qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining yer

¹ Informatсионно-правовой системы «Norma». ООО «NORMA HAMKOR». Versiya-3, 2005.

uchastkalarini fermer xo'jaligi yuritish uchun berishda tanlov g'olibini aniqlash mezonlari va tartibi belgilangan.

Unga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan, shuningdek qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotining vakolatli organi umumiy majlisi tomonidan ijaraga oluvchini aniqlamasdan ajratilgan yerlardan yer uchastkalari ajratish to'g'risida, shuningdek ushbu yerlarni fermer xo'jaliklariga berish bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risida tuman hokimi qaror qabul qiladi. Tuman hokimining tanlov o'tkazish to'g'risidagi qarori mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari boshqaruvi (ma'muriyati) binolarida osib qo'yilishi kerak. E'londa yer uchastkasining o'lchami, joylashgan joyi, sifati va boshqa tavsiflari, tashkil etilayotgan fermer xo'jaligining mo'ljallanayotgan ixtisoslashuvi, tanlovning o'tkazilish vaqti va joyi ko'rsatilishi lozim. Tanlov uni o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilingan va e'lon qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida o'tkazilishi kerak. Agar tanlovda ishtirok etishga komissiya a'zosi tomonidan ariza berilgan bo'lsa, u mazkur tanlovda ovoz berish huquqiga ega emas. Bu to'g'risida komissiya yig'ilishi bayonnomasiga tegishli yozuv kiritiladi. Tanlovda ishtirok etish huquqiga O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining boshliqlari ega. Yetarli texnika va pul mablag'lariga ega bo'lgan shaxslar bir necha loyihalarga talabgor sifatida ariza berishlari mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan, shuningdek, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotining vakolatli organi umumiy majlisi tomonidan ijaraga oluvchini aniqlamasdan ajratilgan yerlarning ikki loyihasi bo'yicha o'tkazilgan tanlovda g'olib chiqqan fuqarolarning, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan fermer

xo'jaliklari boshliqlarining ko'rsatilgan yer uchastkalari bo'yicha boshqa loyihalar yuzasidan o'tkaziladigan tanlovlardagi ishtiroki to'xtatiladi.

Yer uchastkalari berish to'g'risidagi ariza tashkil etilayotgan xo'jalikning biznes-rejasi yoki faoliyat dasturi ilova qilingan holda tuman hokimiga beriladi. Arizada ariza beruvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, uning turar joyi, so'ralayotgan yer uchastkasi joylashgan joy, uning maydoni, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning nomi, mo'ljallanayotgan ixtisoslashuv, chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaligi tashkil etishda – boqilishi mo'ljallanayotgan mollarning turlari bo'yicha bosh soni, yer uchastkasini ijaraga olish muddati ko'rsatiladi. Fuqarolarning arizasi maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi. Tuman hokimi ariza kelib tushgan kuniyoq arizani yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga yuboradi. Mazkur komissiya kotibi talabgorga tanlovda yuqori ball olishi uchun imkon beradigan barcha holatlarni tushuntirib, lozim bo'lganda uning hujjatlaridagi kamchiliklarni ishchi tartibda bartaraf etish choralari ko'radi. Komissiya kotibi tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash kunigacha talabgorning baholanadigan imkoniyatlarini asoslantiruvchi hujjatlarning to'liq taqdim qilinishini, ularning to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlashga ko'maklashishi lozim. Yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiya fermer xo'jaligiga yer uchastkalari berish bo'yicha tanlov o'tkazadi. Komissiyaning qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va tuman hokimiga beriladi.

Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha komissiya tanlov o'tkazilishidan bir oy oldin mahalliy ommaviy axborot vositalarida yoki boshqa qulay shaklda qishloq xo'jalik korxonasining qayta tashkil etilishi va tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon beradi va tanlovda ishtirok etish xohishini bildirgan fuqarolarning arizalarini qabul qilish muddatlarini belgilaydi.

Tanlovda ishtirok etish huquqiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu jumladan, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasining a'zolari, faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining boshliqlari va xodimlari egadir.

Komissiya raisi va kotibi tegishli tanlovda talabgor sifatida ishtirok etishlari mumkin emas. Komissiya a'zolari tegishli tanlovda komissiya raisining roziligi bilan faqat bitta loyiha bo'yicha talabgor sifatida qatnashishi mumkin. O'zi ariza bergan loyiha bo'yicha tanlov o'tkazilganda ushbu komissiya a'zosi ovoz berish huquqiga ega emas. Bu haqda komissiya yig'ilishi bayonnomasiga tegishli yozuv kiritiladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish tanlov o'tkazilishidan o'n kun oldin to'xtatiladi. Yetarli texnika va pul mablag'lariga ega bo'lgan shaxslar bir necha loyihalarga talabgor sifatida ariza berishlari mumkin.

Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining yer uchastkalarining ikki loyihasi bo'yicha o'tkazilgan tanlovda g'olib chiqqan fuqarolarning, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari boshliqlarining, ushbu xo'jalikning boshqa loyihalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlardagi ishtiroki to'xtatiladi.

Ariza va hujjatlarni komissiyaning kotibi qabul qiladi. Komissiyaning kotibi talabgorga tanlovda yuqori ball olishi uchun imkon beradigan barcha holatlarni tushuntirib, lozim bo'lganda uning hujjatlaridagi kamchiliklarni ishchi tartibda bartaraf etish choralarni ko'radi. Komissiya kotibi tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash kunigacha talabgorning baholanadigan imkoniyatlarini asoslantiruvchi hujjatlarning to'liq taqdim qilinishini, ularning to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlashga ko'maklashishi lozim.

Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

– birinchi bosqichda hujjatlarning to'liqligi va mazmuni tekshiriladi;

– ikkinchi bosqichda talabgorlarning arizalarida bayon qilingan takliflarning iqtisodiy asoslanganligi o‘rganib chiqiladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlashda komissiya muayyan yer uchastkasida fermer xo‘jaligi tashkil etish to‘g‘risida ariza taqdim etgan talabgorlarning hujjatlari asosida ularning takliflarini puxta o‘rganib chiqadi. Har bir ishtirokchining loyihasi alohida baholanadi. Bunda ariza beruvchining o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni to‘liqligi va haqiqatga yaqinligi hamda ularni bajarish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Tanlovda ishtirok etuvchi qatnashuvchilarni tanlashning birinchi bosqichida talabgorlarning imkoniyatlari quyidagi ko‘rsatgichlar asosida baholanadi:

- mutaxassisligi;
- ma‘lumoti;
- qishloq xo‘jaligidagi ish staji;
- majburiyatlardan xoli bo‘lgan pul mablag‘lari;
- mavjud yaroqli texnikasi;
- so‘nggi yillarda shartnomaviy majburiyatlarning qay darajada bajarilishi (fermer xo‘jaliklari va oilaviy pudratchilar, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarini va tashkilotlari rahbari va mutaxassislari uchun).

Talabgorlarning imkoniyatlari 10 ballik reyting shkalasida quyidagilarni inobatga olgan holda baholanadi:

a) talabgorning mutaxassisligi va ma‘lumoti ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma)ga asosan 5 balldan 10 ballgacha baholanadi. Bunda komissiyaga ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjatning asli yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi taqdim etiladi.

Xorijiy davlatlar, shu jumladan MDH davlatlari ta‘lim muassasalari tomonidan 1992-yil 1-yanvardan so‘ng berilgan ma‘lumot to‘g‘risidagi hujjatlar belgilangan tartibda nostrifikatsiyalangan bo‘lishi lozim.

Talabgorning mutaxassisligini baholashda talabgorning ma‘lumoti (oliy yoki o‘rta maxsus)dan qat‘i nazar faqatgina mutaxassislik

inobatga olinadi. Mutaxassislik uchun eng yuqori ball fermer xo'jaligi bo'yicha maxsus mutaxassislikka ega bo'lgan talabgorlarga beriladi. Bunda, fermer xo'jaligi bo'yicha maxsus mutaxassislik deganda fermerlik faoliyatini yuritishga doir maxsus mutaxassislikka ega shaxslar, shu jumladan, aynan shu sohada kasb-hunar kollejini tamomlagan yoki shu sohada bakalavr (magistr) darajasini olgan yoxud boshqa ilmiy darajaga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Bir necha mutaxassislik bo'yicha ma'lumot to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan talabgorlarning faqatgina bitta eng yuqori balli muttaxassisligi inobatga olinadi.

b) talabgorning qishloq xo'jaligidagi ish stajini aniqlashda mehnat daftarchasiga asosan faqat shu sohada o'talgan ish staji inobatga olinadi va 6 balldan 10 ballgacha baholanadi.

Bunda komissiyaga mehnat daftarchasining asli yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi taqdim etiladi;

d) talabgorning majburiyatlardan xoli pul mablag'lari mavjudligi bank tomonidan berilgan ma'lumotnomada tasdiqlangan bo'lishi lozim. Bank ma'lumotnomasi bank boshqaruvi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs tomonidan imzolangan va bank muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Ayrim hollarda talabgor tanlovga pul mablag'lari o'rniga o'z mol-mulkini taklif etishi mumkin. Bunda mol-mulk talabgorning o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lishi lozim. Agar taklif etilayotgan mol-mulk talabgorga birgalikdagi mulk huquqi asosida tegishli bo'lsa, bu holda tegishli oila a'zosining (ota-ona, er-xotin va farzandlar) notarial tasdiqlangan roziligi bo'lishi lozim.

Fermerlikka talabgor yuridik va jismoniy shaxsning hisob varag'idagi majburiyatlardan ozod bo'lgan mavjud pul mablag'i yoki mol-mulki 4 balldan 10 ballgacha baholanadi.

Tanlovga taklif etilgan mol-mulklar qiymati quyidagi shartlar asosida inobatga olinadi:

1) mol-mulk baholangan va ularga bo'lgan (chorva mollaridan tashqari) mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishi lozim. Chorva mollarining talabgorga tegishliligi qishloq fuqarolar yig'ini

tomonidan berilgan, fuqarolar yig'ini raisi tomonidan imzolanib, muhri bilan tasdiqlangan ma'lumotnoma asosida aniqlanadi. Ularning narxi chorva bozori ma'muriyati tomonidan berilgan komissiyaga ma'lumotnoma asosida aniqlanadi;

2) talabgor tanlovga yuqori likvidli mol-mulkni (chorva mollari, tovar-moddiy boyliklar yoki boshqa tez sotiladigan mol-mulklar) taqdim etishi lozim;

3) tanlovga talabgorning shaxsiy uy-joyi, uy buyumlari va shu kabilarni, shuningdek sud qaroriga ko'ra yoki boshqa asoslarga ko'ra xatlangan mol-mulklarni taklif etishga yo'l qo'yilmaydi;

4) tanlovda ishtirok etish uchun talabgorga bevosita mulk huquqi asosida tegishli bo'lmagan, shu jumladan, talabgor ta'sis etgan (ishtirokchisi bo'lgan) yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulklarni taklif etishga yo'l qo'yilmaydi, talabgor sifatida tanlovda ishtirok etayotgan fermer xo'jaligi bundan mustasno;

5) mol-mulk qiymatini aniqlashda tanlovda qatnashish uchun taklif etayotgan texnika vositalari qiymati hisobga olinmaydi.

Ikkita loyihaga ariza bergan talabgorning bir loyiha bo'yicha tanlovda inobatga olingan pul mablag'lari (mol-mulki) ikkinchi loyihaga tanlovda inobatga olinmaydi. Bunday talabgor o'z pul mablag'lari (mol-mulki)ni loyihalar o'rtasida o'z xohishiga ko'ra taqsimlashi mumkin.

e) talabgor tomonidan tanlovga taklif etilayotgan texnika vositalari ularning turi va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib 1 ball dan 10 ballgacha baholanadi.

Loyihadagi yer maydoni o'lchamiga ishlov berish uchun zarur bo'lganidan ortiq taklif etilgan texnika vositalariga ball berilmaydi. Yer maydoni o'lchamiga zarur bo'lgan texnika vositalarining turlari va soni ularning imkoniyatlari (quvvati)ni hisoblash yo'li bilan komissiya xulosasi asosida belgilanadi.

Komissiyaga texnika vositalari texnik pasportlarining asl nusxalari taqdim etiladi.

Texnika vositalari talabgorning o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lishi lozim. Agar tanlovga oila a'zolari (ota-ona, er-xotin va

farzandlar)ning umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulk, texnika vositalari taklif etilayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulk va texnika vositasini bo'lajak fermer xo'jaligining ustav fondiga kiritish uchun topshirish to'g'risida barcha mulkdorlardan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Ikkita loyihaga ariza bergan talabgorlarning bir loyihaga tanlovda inobatga olingan texnika vositalari boshqa loyihaga tanlovda inobatga olinmaydi. Biroq, agar talabgor taklif etayotgan texnika vositasining imkoniyatlari (quvvati) bir loyihadagi yer maydoniga nisbatan yuqoriroq bo'lsa, bunday texnika vositasi boshqa loyihaga tanlovda ham inobatga olinishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etayotgan faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaligi boshlig'i ushbu fermer xo'jaligiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan texnik vositalarini tanlovga taklif etishi mumkin. Bu holda, texnika vositalarining imkoniyatlari fermer xo'jaligining mavjud yer maydonini ham inobatga olgan holda baholanadi.

Tanlovga taklif etilgan texnika vositalari quyidagilar asosida baholanadi:

1) texnika vositalarini baholashda faqatgina texnik pasportidagi texnik sozligi to'g'risidagi belgi mavjud bo'lgan texnika vositalarigina inobatga olinadi;

2) ball loyihadagi yer maydoni o'lchamiga ishlov berish uchun zarur bo'lgan texnika vositasining har bir turiga (tegishli turdagi texnika vositasining sonidan qat'iy nazar) beriladi.

3) taklif etilgan barcha turdagi texnika vositalari uchun qo'yilgan ballar yig'indisi 15 balldan oshmasligi lozim.

Talabgor tomonidan tanlovga taklif etilgan pul mablag'lari (taklif etilgan mol-mulkni sotishdan tushgan pul mablag'lari), taklif etilgan texnika vositalari tanlovda yutgan taqdirda bo'lajak fermer xo'jaligining ustav fondiga kiritiladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini yuritish jarayonida bevosita foydalanilishi mumkin bo'lgan mol-mulklar bo'yicha sotish majburiyatini olish talab etilmaydi, bunday mol-mulklarni bo'lajak fermer xo'jaligining ustav fondiga kiritish majburiyatini olish kifoya.

Taklif etilgan pul mablag'lari, mol-mulk va texnika vositalarini bo'lajak fermer xo'jaligining ustav fondiga kiritish majburiyati talabgorning arizasida ko'rsatiladi.

Fermer xo'jaligi ustav fondining qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda shakllantirilmaganligi, shu jumladan, tanlovda taklif qilingan pul mablag'lari, mol-mulk va texnika vositalarining ustav fondiga kiritilmaganligi natijasida shakllantirilmaganligi, fermer xo'jaligini sudning qaroriga muvofiq tugatish uchun asos hisoblanadi.

f) agar talabgor fermer xo'jaligi boshlig'i yoki oilaviy pudratchi bo'lsa, u tomonidan ish faoliyatining so'nggi uch yildagi mahsulot yetkazib berish shartnomalarining bajarilishi to'g'risidagi tuman statistika bo'limi (oilaviy pudratchi bo'yicha esa — tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi) tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida 4 balldan 10 ballgacha baholanadi.

Agar talabgor qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari rahbari va mutaxassislari bo'lsa, unda xo'jalikning so'nggi uch yildagi mahsulot yetkazib berish kontraktatsiya shartnomalarining bajarilishi to'g'risidagi tuman statistika bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida 4 balldan 10 ballgacha baholanadi.

Bunda eng yuqori ball, barcha turdagi mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha shartnomalarni yillar bo'yicha bajarilishiga qarab beriladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlashning ikkinchi bosqichida komissiya tomonidan talabgorlar takliflarining iqtisodiy asoslanganligi baholanadi.

Takliflarning iqtisodiy asoslanganligi talabgorning arisasi va biznes-rejasini, zarur hollarda esa, tavsiyanoma xatlarini tahlil etish asosida 5 balldan 10 ballgacha baholanadi.

Takliflarning iqtisodiy asoslanganligini baholashda ariza va biznes-rejada nazarda tutilgan maqsadlarga erishish qanchalik haqiqatga yaqinligi, shuningdek talabgorning yer maydonidan ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichdan kam bo'lmagan hosildorlikni ta'minlash,

qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish sxemasiga rioya etgan holda 10 yil muddat mobaynida ishlab chiqarish ixtisoslashuvini o'zgartirmaslik, almashlab ekishga rioya etgan holda davlat ehtiyojlari uchun mahsulot sotish, tuproq unumdorligini oshirish, kreditorlik qarzlarini belgilangan muddatlarda to'lash kabi majburiyatlarining to'liqligi va ularni bajarish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlashning birinchi va ikkinchi bosqichlari bir vaqtning o'zida o'tkaziladi. Buning uchun tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 21 kundan keyin, lekin 25 kundan kechiktirmay, komissiya a'zolarining yig'ilishi o'tkaziladi. Yig'ilish unda komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Yig'ilishda talabgorning har bir ko'rsatgichi bo'yicha tegishli ballni berish masalasi komissiya a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan hal etiladi va har bir ko'rsatgich bo'yicha bitta ball beriladi.

Yig'ilishda komissiya a'zolarining ko'pchilik ovoziga ko'ra qo'yilgan reyting ballari tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash varaqasiga qo'yiladi. Ushbu varaqa tanlov o'tkazilgan kuniyoq to'ldirilib, komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi. Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash bosqichlarida eng yuqori reyting ballari to'plagan talabgorlar komissiya qaroriga ko'ra tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilinadi.

Bunda olgan bali eng yuqori ball olgan talabgordan 10 ballgacha yoki 10 ballga farq qilgan talabgorlar eng yuqori ball olgan talabgorlar hisoblanadi va tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

Qolgan talabgorlar tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etilmaydi va bunday talabgorlarga tanlovdan olinganligi to'g'risida yozma ravishda rad javobi beriladi.

Bir loyihaga talabgorlarning soni uchtadan kam bo'lsa, olgan ballari miqdoridan qat'iy nazar, ularning hammasi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya qilinadi.

Tanlovda ishtirok etishga tavsiya etish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi, komissiya raisi, a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi hamda keyingi kundan kechiktirmay tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxati e'lon qilinadi.

Komissiya tomonidan tanlovda ishtirok etishga tavsiya etish to'g'risidagi qaror bilan birgalikda tanlovni o'tkazish shartlari ham e'lon qilinadi.

Tanlovni o'tkazish qoidalari va talablariga rioya etmagan, qonun hujjatlariga asosan talabgorlar deb e'tirof etilmagan, tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni o'z vaqtida taqdim etmagan shaxslar tanlovda ishtirok etishga qo'yilmaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun yolg'on ma'lumotlar va soxta hujjatlar taqdim etgan shaxslar ham tanlovda ishtirok etishga qo'yilmaydi.

Komissiya tanlovda ishtirok etishga qo'yilgan shaxslar to'g'risidagi to'liq axborotni tanlov o'tkaziladigan binoda manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilishini ta'minlaydigan tarzda yozma shaklda e'lon qilishi, shuningdek, tanlovda ishtirok etishga qo'yilmagan shaxslarga yozma shaklda asosli rad javoblarini yo'llashi shart.

Tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchini tanlashda talabgor sifatida e'tirof etilgan, biroq to'plagan ballariga asosan tegishli loyihaga tanlovda ishtirok etish uchun qo'yilmagan talabgorlar to'plagan ballarini saqlab qolgan holda boshqa loyihalar (ariza tushmagan yoki arizalar soni kam bo'lgan loyihalar) bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda qatnashish huquqini saqlab qoladilar. Bunday talabgor boshqa loyihaga tanlov o'tkazilgunga qadar komissiyaga ariza bilan murojaat qilishi va arizaga faqatgina tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash varaqasini ilova qilishi kifoya.

Tanlovda ishtirok etish uchun tanlab olingan qatnashuvchi o'z arizasini bir loyihadan olib, tanlov o'tkazilgunga qadar avval to'plagan ballarini saqlab qolgan holda shu xo'jalikdagi boshqa loyihadagi yer maydoniga berish huquqiga ega. Bunday talabgor boshqa loyihaga tanlov o'tkazilgunga qadar komissiyaga ariza bilan

murojaat qilishi va arizaga faqatgina Tanlovda ishtirok etishga tavsiya etish to'g'risidagi komissiya qarorini ilova qilishi kifoya.

Tanlov uni o'tkazish to'g'risida e'lon qilingan kundan so'ng bir oydan keyin o'tkaziladi va unda komissiya a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Tanlov eng ko'p ariza tushgan loyihalar bo'yicha boshlanib, arizalarning soni kamayishiga qarab navbatma-navbat o'tkazilishi kerak.

Komissiya a'zolari tomonidan har bir talabgorning qobiliyati, tegishli bilimi, ishbilarmonligi va saviyasi, fermer xo'jaligi faoliyatini yuritish va boshqarish bo'yicha berilgan savol-javoblar asosida 10 balli shkala bilan baholanadi. Tanlov varaqasi har bir komissiya a'zosi tomonidan shaxsan to'ldirib imzolanadi va komissiya raisiga topshiriladi. Tanlovda har bir komissiya a'zosi tomonidan talabgorga qo'yilgan ballar yig'indisi komissiyada ball qo'ygan a'zolar soniga bo'linadi va talabgorga qo'yilgan o'rtacha ball hisoblab chiqariladi.

Tanlovda qatnashish uchun tanlash bosqichida to'plangan ball va tanlovda olingan o'rtacha ball yig'indisi talabgorning yakuniy bali hisoblanadi.

Eng ko'p yakuniy ball to'plagan talabgor tanlov g'olibi deb komissiya raisi tomonidan e'lon qilinadi.

Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining yer uchastkalarini fermer xo'jaligi yuritish uchun berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlarda boshqa barcha shartlar bo'yicha teng ball to'plangan hollarda mazkur qishloq xo'jaligi korxonasi a'zosiga imtiyoz beriladi.

Komissiya yakuniy yig'ilishining bayonnomasi ikki nusxada tuzilib, komissiya raisi, a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha komissiya yakuniy bayonnomasi qo'shimcha ravishda ushbu korxonaning yuqori boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar bitta loyihaga faqat bitta talabgordan ariza kelib tushgan bo'lsa, u holda tanlov muddati tugagandan so'ng ushbu loyihaga

belgilangan tartibda qayta tanlov o'tkaziladi. Qayta tanlovda ham ushbu loyihaga boshqa talabgorlardan ariza kelib tushmasa, komissiyaning bir ovozdan qabul qilgan qarori bilan talabgorga ushbu loyihadagi yer uchastkasi berilishi mumkin. Bunda, talabgorning taqdim etgan hujjatlari va o'tkazilgan suhbat natijasida olgan bali tanlovda qatnashgan va eng yuqori ball olgan talabgor balining yarmidan kam bo'lmashligi lozim. Bu haqda komissiya yig'ilishi bayonnomasiga tegishli yozuv kiritiladi.

Komissiyaning yakuniy yig'ilishi bayoni va unga ilova qilingan hujjatlar tuman hokimiga yuboriladi.

Yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiya va Qishloq xo'jaligi korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha komissiyalarning talabgorlarni tanlash va tanlov o'tkazish bo'yicha hujjatlari komissiya kotiblari tomonidan yuritiladi. Komissiya kotibi, qoida tariqasida, tuman hokimligi xodimi bo'ladi.

Komissiyaning talabgorlarni tanlash va tanlov o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlari tuman hokimligida har bir qishloq xo'jaligi korxonasi yoki yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan, shuningdek qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi va tashkilotining vakolatli organi umumiy majlisi tomonidan ijaraga oluvchini aniqlamasdan ajratilgan yerlar bo'yicha alohida yig'ma jildlarda saqlanadi. Mazkur hujjatlar fermer xo'jaliklarining barchasi ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng 2 hafta mobaynida tuman hokimligining idoraviy arxiviga topshiriladi.

Har bir yig'ma jildda quyidagi hujjatlar tikilishi lozim:

a) loyihalar bo'yicha barcha tanlovlarga talabgorlar tomonidan taqdim etilgan arizalari va unga ilova qilingan hujjatlar;

b) komissiyaning tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lonlari;

d) tanlovda ishtirok etish uchun qatnashuvchilarni tanlash varaqasi;

e) komissiyaning har bir loyiha bo'yicha talabgorlarni tanlovda ishtirok etishga tavsiya etish to'g'risidagi qarorlari;

f) har bir komissiya a'zosi tomonidan to'ldirilgan tanlov varaqalari;

g) tanlov yakuni bo'yicha qo'yilgan ballar hisob-kitobi;

h) tanlov o'tkazish yakunlari yuzasidan komissiya tomonidan qabul qilingan bayonnomalari;

i) talabgorlarni tanlash va tanlov o'tkazish bilan bog'liq boshqa hujjatlar.

Jildga reyting ballari berishga asos bo'lgan barcha hujjatlar (shu jumladan asli taqdim etilgan hujjatlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari) tikilishi shart.

Shuningdek, qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkat xo'jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari yer uchastkalarini berish bo'yicha talabgorlarning yig'ma jildlarida majburiy tartibda qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi aktivlari va passivlarini, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) a'zolari mulkiy paylarini xatlovdan o'tkazish va baholash bo'yicha, ortiqcha asosiy va aylanma mablag'larni, shuningdek foydalanish muddati tugagan vositalarni kim oshdi savdosida yoki ochiq savdoda sotish bo'yicha, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi balansida bo'lgan ijtimoiy va boshqa infratuzilmalarni mahalliy hokimliklar yoki boshqa tashkilotlar balansiga berish bo'yicha hamda mol-mulklarni hisobdan chiqarish bo'yicha barcha hujjatlar tikilishi lozim.

Komissiyaning faoliyatiga doir hujjatlarni to'liq yuritilishi, saqlanishi va belgilangan muddatlarda arxivga topshirilishiga komissiya raisi va kotibi shaxsan javobgar hisoblanadi.

II

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tadbirkorlik subyektlari tarkibida fermer xo'jaliklari salmoqli o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida olib borilgan agrar-huquqiy islohotlar natijasida fermer xo'jaliklarini tashkil etishning huquqiy tartibida bir

qator o'zgarishlar ruy berdi. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda tasdiqlangan «Fermer xo'jaligi to'g'risida»¹ gi qonunining yangi tahririning 3-moddasiga muvofiq, fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo'jaligi tashkil etish shartlari qonunda aniq ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblanganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,30 gektarni, boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Shuningdek, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 30 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun kamida 5 gektarni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan.

Fermer xo'jaligi xo'jalik boshlig'i tomonidan, xo'jalikka alohida mol-mulk ajratib berish va ustavini tasdiqlash yo'li bilan tashkil etilishi qonunning 6-moddasida bayon etilgan. Bunda Fermer xo'jaligi tashkil etish uchun uning boshlig'i belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak bo'ladi.

Yer uchastkalari fermer xo'jaliklarini tashkil etish uchun:

- zaxira yerlardan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan;

¹ Bundan keyin qonun.

– qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo‘jaligi kooperativlarining (shirkat xo‘jaliklarining) va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan;

– qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklarining) hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalaridan beriladi (Qonunning 10-moddasi).

O‘z navbatida bu qoida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish tartibining usullarini belgilaydi. Qonun hujjatlariga muvofiq, Fermer xo‘jaliklari tashkil etish uchun yer uchastkalarini qat’iy ravishda tanlov asosida beriladi. Qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo‘jaligi kooperativlarining (shirkat xo‘jaliklarining) va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yer uchastkalarida fermer xo‘jaligini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»¹ 8-son qarorida ishlab chiqilgan. Qarorda fermer xo‘jaliklarini tashkil etishda, ya’ni zarar ko‘rib ishlayotgan va past rentabelli qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirishda maxsus komissiya faoliyat yuritishi ko‘rsatildi. Va tegishli «Qishloq xo‘jaligi korxonasini fermer xo‘jaliklariga aylantirish bo‘yicha komissiya to‘g‘risida Namunaviy Nizom» tasdiqlandi. Nizom Qishloq xo‘jaligi korxonasini fermer xo‘jaliklariga aylantirish bo‘yicha komissiya² ni tashkil etish tartibini va uning faoliyatini tartibga soladi, uning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Komissiya tuman hokimining qarori bilan tashkil etiladi. Komissiyaga tuman hokimining birinchi o‘rinbosari boshchilik qiladi. Komissiya qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonasi

¹ «O‘zbekiston Respublikasi qonunlar to‘plami» 2002-yil, 1-son.

² Keyingi o‘rinlarda «komissiya» deb ataladi.

rahbarlari, mutaxassislari, a'zolari (xodimlari)dan, shuningdek kasaba uyushmasi, xizmat ko'rsatuvchi bank, yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr tuman xizmati vakillaridan iborat tarkibda tuziladi.

Nizomga muvofiq, qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha komissiyaning asosiy vazifalari belgilab berilgan bo'lib, u quyidagilarni tashkil etadi:

- qishloq xo'jaligi korxonasini fermer xo'jaliklariga aylantirish rejasini ishlab chiqish;

- yer resurslari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari, aylanma mablag'lar, debitorlik va kreditorlik qarzar, tugallanmagan qurilish va boshqa moddiy boyliklarni xatlash;

- fermer xo'jaligi tashkil etish bo'yicha tanlovda qatnashish uchun talabgorlarni tanlash;

- tanlovni o'tkazish hamda fermer xo'jaligi tashkil etish huquqini berish uchun qobiliyatli, tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mehnatsevar va tadbirkor fuqarolarni aniqlash;

- aktivlar va passivlarni tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari o'rtasida taqsimlash.

Bu vazifalarni bajarishda komissiya qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonasi a'zolari o'rtasida tanishtirish-tushuntirish ishlarini olib boradi, ommaviy axborot vositalari orqali yoki boshqa qulay shaklda qishloq xo'jaligi korxonasi fermer xo'jaliklariga aylantirilishi to'g'risida aholini xabardor qiladi, qishloq xo'jaligi korxonasining moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etadi, xo'jalik a'zolari va boshqa shaxslarni fermer xo'jaliklari tashkil etish uchun talabgorlarni tanlab olish va tanlov o'tkazish tartibi, taklif etilayotgan yerlarni tanlash tartibi bilan va qishloq xo'jaligi korxonasini qayta tashkil etishning boshqa shartlari bilan tanishtiradi, fermer xo'jaliklari tashkil etish uchun talabgorlarning arizalarini qabul qiladi va o'rganib chiqadi, tanlov asosida g'oliblarni aniqlaydi, qishloq xo'jaligi korxonasining aktivlari va passivlarini tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari o'rtasida taqsimlash bo'yicha ajratuvchi balans va o'tkazma hujjatlarni tuzadi.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etishda xo'jalikning rahbari va boshqa mutaxassislaridan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya va statistika hisobi va hisoboti ma'lumotlari, boshqa zarur axborotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etilishini talab qiladi. Shu bilan birgalikda talabgorlarning so'rovlari bo'yicha fermer xo'jaliklari tashkil etilishi yuzasidan zarur axborotlarni taqdim etadi, qilingan ishlar to'g'risida qishloq xo'jaligi korxonasi yoki fermer xo'jaliklari yig'ilishiga va tuman hokimiga yakuniy hisobot topshiradi va fermer xo'jaliklari tashkil etish bo'yicha tanlov o'tkazishda xolislik va odillikni ta'minlash majburiyatiga rioya qiladi. Komissiya vakolatlari qayta tashkil etish tugallanganidan keyin to'xtatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-son qaroriga asosan «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirishda aktivlar va passivlarni taqsimlash Tartibi» tasdiqlandi. Ushbu tartibga muvofiq, belgilangan tartibda tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari ba'zi moddiy majburiyatlarni olishlari shart. Jumladan, Tartibning 10 bandida shirkat xo'jaligini qayta tashkil etishda, xo'jalik mulki kreditorlik qarzni qoplamasa, u holda mulk qiymati xo'jalik a'zolariga taqsimlanmasdan, qoplanmagan kreditorlik qarzi fermerlar o'rtasida ball-gektar bo'yicha taqsimlanishi va bu ajratuvchi balansda aks ettirilishi ko'rsatilgan. Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: qoplanmagan kreditorlik qarzni taqsimlash uchun dastlab mulkning fermerlar o'rtasida taqsimlanadigan qoldiq qiymati (mulkning umumiy qiymati va sotilgan mulk qiymati o'rtasidagi farq) aniqlanadi. Mulq qiymati va qoplanmagan kreditorlik qarzi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) xo'jalikning umumiy ball-gektari yer uchastkalari va ularning ball-bonitetlari hosilasi miqdori aniqlanadi;

b) bir ball-gektar hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha mulk ulushi taqsimlanadigan mulk qiymatining xo'jalikning umumiy ball-gektariga nisbati aniqlanadi;

d) mulk qiymati fermer xo'jaligiga ajratiladigan yer uchastkasi ball-gektari hosilasi va 1 ball-gektar hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha mulk ulushi fermerlar o'rtasida taqsimlanadi;

e) 1 ball-gektar hisobiga to'g'ri keladigan qoplanmagan kreditorlik qarz qiymati qoplanmagan kreditorlik qarz umumiy summasining xo'jalikning umumiy ball-gektariga nisbati aniqlanadi;

f) qoplanmagan kreditorlik qarzning har bir fermer xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori 1 ball-gektar hisobiga to'g'ri keladigan qoplanmagan kreditorlik qarz qiymati va fermer xo'jaligiga ajratiladigan yer uchastkasi ball-gektari hosilasi aniqlanadi.

Ajratuvchi balansga muvofiq har bir fermer xo'jaligi qayta tashkil etilayotgan xo'jalikning tegishli kreditorlari bilan ularni to'lash miqdorlari va muddatlari ko'rsatilgan shartnoma tuzadi. Qayta tashkil etilayotgan shirkat xo'jaligining fermer xo'jaliklari yoki xizmat ko'rsatuvchi kooperativlar tarkibiga kirmagan a'zolari qayta tashkil etish komissiyasi qaroriga muvofiq o'zlarining mulkiy paylari qiymatini belgilangan tartibda olishlari mumkin. Agar to'lov uchun mablag' mavjud bo'lmasa, u holda 1 ball-gektar hisobiga to'g'ri keladigan mulkiy pay qiymati fermer xo'jaliklari balansiga beriladi. Bunda fermer va sobiq shirkat a'zosi o'rtasida keyinchalik to'lanishi kerak bo'lgan mulkiy pay yuzasidan tegishli shartnoma tuziladi.

So'nggi vaqtlarda Respublikamizda bog' va uzumzorlarni rivojlantirish maqsadida shu yo'nalishda fermer xo'jaliklarini tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3709-sonli Farmoni va 2006-yil 11-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-255-sonli qarori bu boradagi huquqiy asos bo'ldi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirining 2006-yil 18-yanvardagi 13-son buyrug'i bilan «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning bog' va uzumzorlarini sotish tartibi to'g'risida Nizom» tasdiqlandi. Nizom qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning, shu jumladan meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning bog'

va uzumzorlarini fermer xo'jaligi yuritish uchun sotish tartibini belgilaydi.

Unga ko'ra, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari) ning bog' va uzumzorlari kim oshdi savdolari orqali sotiladi, savdolarida mazkur sohada muayyan ish staji va malakalariga ega bo'lgan da'vogarlarning ishtirok etishlariga yo'l qo'yiladi. Kim oshdi savdolari auksion shaklida o'tkaziladi. Bunda qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati)ning umumiy yig'ilishi bir talabgorga sotilishi mumkin bo'lgan bog' va uzumzor sonini cheklashi mumkin. Mazkur cheklov shirkat a'zolari va paychilarining soni hamda mavjud bog' va uzumzorlar hajmidan kelib chiqib belgilanadi, biroq 2 ta bog' va uzumzordan ko'p bo'lmasligi lozim. Mazkur cheklov kim oshdi savdolariga e'lon berishdan oldin umumiy yig'ilish qarori bilan qabul qilinadi hamda barcha bog' va uzumzorlar bo'yicha kim oshdi savdolari yakunlangunga qadar o'zgarmasligi lozim.

Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning mol-mulk va yer uchastkalarini kompleks xatlovdan o'tkazilgandan hamda yer fondini qayta taqsimlash loyihasi (sxemasi) ishlab chiqilgandan so'ng Maxsus komissiya kim oshdi savdosini o'tkazish kunidan kamida bir oy oldin kim oshdi savdosi o'tkazilishi to'g'risida xabar beradi.

E'londa kim oshdi savdosini o'tkazish sanasi, joyi, bir talabgorga sotilishi mumkin bo'lgan bog' va uzumzor soniga nisbatan umumiy yig'ilish tomonidan o'rnatilgan cheklov, kim oshdi savdosining shakli (ochiq yoki yopiq auksion), kim oshdi savdosida qatnashishi mumkin bo'lgan shaxslar (keyingi o'rinlarda — talabgor), kim oshdi savdosida qatnashish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati va ularni qabul qilishni to'xtatilish sanasi hamda kim oshdi savdosiga qo'yilayotgan bog' va uzumzorlarning boshlang'ich narxi (ular joylashgan loyihani ko'rsatgan holda), savdoda qatnashish uchun to'lanadigan zakalat pull miqdori, muddati va tartibi, shu jumladan zakalat puli o'tkazilishi lozim bo'lgan bank hisob raqami rekvizitlari kabilar ko'rsatilishi shart.

Yopiq kim oshdi savdosida qatnashish uchun talabgor Maxsus komissiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: kim oshdi savdosida

ishtirok etish haqidagi (loyiha raqami aniq ko'rsatilgan) ikki nusxada ariza, zakalat puli to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatining nusxasi, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati)da a'zolikni tasdiqlovchi hujjatlar, talabgorning mulkiy payga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi, agar talabgorning vakili qatnashsa, mazkur vakilga qatnashish huquqini beruvchi ishonchnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi.

Talabgor faqat bitta loyihada joylashgan bog' va uzumzorlarning kim oshdi savdosida qatnashish uchun ariza taqdim etishga haqli. Bunda Maxsus komissiya raisi va kotibi kim oshdi savdosida qatnashish uchun ariza taqdim etishga haqli emas.

Talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Maxsus komissiya kotibi tomonidan qabul qilinadi. Maxsus komissiya talabgorga hujjatlarni qabul qilishni rad etishi mumkin emas.

Maxsus komissiya ariza qabul qilingan kuniyoq talabgorga bog' va uzumzor joylashgan loyiha hamda talabgorning maxsus raqami ko'rsatilgan chipta beradi hamda bu to'g'rida talabgor tomonidan kim oshdi savdosida qatnashish uchun taqdim etilgan arizalarni ro'yxatga olish kitobida tegishli imzo qo'yiladi.

Auksion e'londa belgilangan vaqtda, qoida tariqasida, qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkatining) binosida o'tkaziladi. Auksion har bir loyihada joylashgan bog' va uzumzor (keyingi o'rinlarda — auksion obyektiga alohida o'tkaziladi. Bunda, dastlab auksion boshlang'ich narxi eng yuqori bo'lgan auksion obyekt bo'yicha o'tkaziladi, keyingi auksion obyektlari bo'yicha esa ularning boshlang'ich narxi kamayib borishiga qarab ketma-ketlikda o'tkaziladi.

Yopiq auksion davomida auksionda g'olib chiqmagan talabgor to boshqa auksion obyekt bo'yicha g'olib chiqqunga qadar keyingi auksion obyekt (obyektlari) bo'yicha ham auksionlarda ishtirok etishga haqli. Agar umumiy yig'ilish tomonidan cheklov 2 ta bog' va uzumzor qilib belgilangan bo'lsa, yopiq auksion davomida auksionda g'olib chiqmagan talabgor 2 ta auksion obyekt bo'yicha g'olib chiqqunga qadar keyingi auksion obyekt (obyektlari) bo'yicha ham auksionlarda ishtirok etishga haqli.

Auksion narxning o'sib borishi tartibida o'tkaziladi. Auksion qadami Maxsus komissiya tomonidan belgilanadi va auksion obykti boshlang'ich narxining 5 foizidan kam, lekin 10 foizidan yuqori bo'lmasligi lozim. Auksion eng yuqori narxni taklif qilgan talabgorni aniqlagunga qadar davom etadi.

Auksionda g'olib chiqqan talabgor hamda Maxsus komissiya raisi va a'zolari auksion o'tkazilgan kuni auksion natijalari to'g'risida 3 nusxada bayonnoma imzolaydilar, bu bayonnoma shartnoma kuchiga ega bo'ladi.

Kim oshdi savdosida g'olib chiqqan talabgor bog' va uzumzor uchun to'lovni to'liq to'laganidan so'ng Maxsus komissiya keyingi kundan kechiktirmay kim oshdi savdosi natijasi to'g'risidagi bayonnomanini bog' va uzumzor joylashgan yer uchastkasini fermer xo'jaligi yuritish uchun berish to'g'risida qaror chiqarish uchun tuman hokimiga yuboradi. Tuman hokimi uch kun mobaynida fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida qaror chiqaradi va uch kun muddatda ushbu qarorni hamda kim oshdi savdosi natijasi to'g'risidagi bayonnomaning bir nusxasini viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasiga tasdiqlash uchun yuboradi. Bog' va uzumzorlar joylashgan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mavjud qonunchilikka asosan fermer xo'jaligini tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Fermer xo'jaligini tashkil etish uchun yer uchastkasini berish bo'yicha tanlov e'lon qilish (Maxsus komissiyaning OAVdagi e'loni, tuman hokimining tanlov o'tkazish to'g'risidagi qarori).¹

¹Bu bosqich qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlarida fermer xo'jaligi tashkil etish ko'zda tutilgan hollarda Maxsus komissiyani shakllantirishdan boshlanadi.

2. Tanlovni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish (Talabgorlarning arizalarini qabul qilish, yig'ilgan hujjatlarni o'rganish va baholash).

3. Tanlovni o'tkazish (Talabgorlarning yig'gan ballari asosida tanlov g'olibini aniqlash).

4. Tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarori (Hokimning bu qarori Tanlov komissiyasining protokol bilan rasmiylashtirilgan qaroriga asosan chiqariladi).

5. Viloyat hokimi boshchilik qiladigan viloyat komissiyasi tomonidan tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash haqidagi qarori.

6. Qonunlarda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasi talabiga muvofiq «Fermer xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi».

Nazorat savollari:

- 1) *Kim fermer bo'lishi mumkin?*
- 2) *Fermer xo'jaligini tashkil etishda tanlov o'tkazish tartibi qanday va qaysi huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi?*
- 3) *G'oliblarni aniqlashda nimalarga ahamiyat beriladi?*

IV BOB. FERMER XO'JALIKLARIGA YER BERISH, YER IJARASI SHARTNOMASI, YERGA BO'LGAN HUQUQNI DAVLAT RO'YXATIGA OLISH

REJA:

- 1. Fermer xo'jaliklariga yer berish tartibi.*
- 2. Yer ijarasi shartnomasi mazmuni va ahamiyati.*
- 3. Fermer xo'jaliklarining yerga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatiga olish.*

I

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer asosiy vosita rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham fermer xo'jaliklarini tashkil etishning negizida ularga yer berish masalasi yotadi. Fermer xo'jaliklariga asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar beriladi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 46-moddasiga muvofiq, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilishi mustahkamlangan. Fermer xo'jaliklariga yer berishning huquqiy tartibi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 10, 11-moddalarida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga muvofiq, Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalarini berishning huquqiy tartibi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risida Nizom»¹ ga asosan belgilanadi.

Ushbu Nizomga va qonunga muvofiq, ilmiy-tadqiqot muassasalariga, oliy o'quv yurtlariga, akademik litseylarga, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablariga o'quv, tajriba, nav

¹ Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti. 2003, 73-bet.

sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerlari fermer xo'jaliklari yuritish uchun berilishi mumkin emas. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi bo'ylab besh yuz metrli mintaqada faoliyati hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni va boshqa jonivorlarni) ko'paytirish, o'tlatish va boqish bilan bog'liq bo'lgan chorvachilik, parrandachilik hamda boshqa yo'nalishdagi fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish ta'qiqlanadi.

Fermer xo'jaliklarini yo'nalishlaridan kelib chiqib, ularga yer berish miqdori quyidagicha belgilangan:

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi xo'jalikning biznes-rejasida nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva mollarini boqish shartlari bilan tashkil etiladi. Bunda shartli ravishda har bir bosh mol hisobiga quyidagi koeffitsiyentlardan foydalaniladi: qoramollar (sigirlar, nasl olinadigan novvoslar, bo'rdoqiga boqiladigan novvoslar) va otlar uchun – 1.0, yosh qoramollar uchun – 0.6, qo'y va echkilar uchun – 0.1, cho'chqalar uchun – 0.3 hamda parrandalar uchun – 0.025.

Fermer xo'jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblanganda:

– Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda – kamida 0,30 gektarni;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda – kamida 0,45 gektarni;

– sug'orilmaydigan (jalimkor) yerlarda – kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashayotgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami:

a) paxtachilik va g'allachilik uchun – kamida 10 gektarni;

b) bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun – kamida 1 gektarni tashkil qiladi.

Fermer xo'jaligiga yer uchastkasi imkoni boricha yagona mavze bo'yicha, konturlar yaxlitligi saqlab qolingan holda beriladi, uchastka chegaralari sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, yo'llar va boshqa topografik elementlar bo'yicha belgilanadi. Fermer xo'jaligiga berilayotgan yer uchastkasi boshqa yerdan foydalanuvchilarning yerlardan foydalanishi uchun noqulayliklar vujudga keltirmasligi kerak.

Fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari, ekinlaridan qishloq xo'jaligi ekinlari shartnomasida nazarda tutilmagan va belgilangan maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanilishi yer to'g'risidagi qonunlarni qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalarini ijaraga berish bo'yicha materiallar tuman yer tuzish xizmati organlari tomonidan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tayyorlanadi. Yer uchastkalari berish, qoidaga ko'ra, fermer xo'jaligini tashkil etish va yer uchastkasini ijaraga olish to'g'risidagi barcha hujjatlar qishloq xo'jaligi ekinlari yig'ishtirib bo'lingan muddatda rasmiylashtirilgan holda amalga oshiriladi. Eng ko'p yakuniy ball to'plagan talabgor tanlov g'olibi deb komissiya raisi tomonidan e'lon qilinadi.

Fermer xo'jaligiga yer berishning keyingi jarayonida yer resurslari bo'yicha tuman xizmati tomonidan besh kun muddatda yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi tayyorlanadi. Bu shartnoma viloyat hokimining ijobiy qarori qabul qilingandan keyin tuman hokimi va fermer xo'jaligi boshlig'i tomonidan imzolanadi. Shartnomaga, uning ajralmas qismi sifatida fermer xo'jaligi yer uchastkasining xaritasi ilova qilinadi. Yer uchastkasi xaritasida qabul qilingan belgilarga muvofiq barcha holatlar (sug'orish, kollektor-drenaj va yo'l tarmoqlari, yerlar, konturlarning tartib raqami, fermer xo'jaligi chegaralari) to'liq ko'rsatiladi. Yer uchastkasi xaritasini yer resurslari bo'yicha tuman xizmati boshlig'i, fermer xo'jaligi boshlig'i va chegaradosh yer egalari, yerdan foydalanuvchilar vakili imzolaydi. Shartnomada, shuningdek, tuproq bonitetining o'rtacha aniqlangan bali ko'rsatiladi.

Fermer xo‘jaligi boshlig‘iga ijaraga beriladigan yer uchastkasi chegaralarini ko‘rsatish yer resurslari tuman xizmati vakili tomonidan chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillari ishtirokida, shartnoma tuzilgandan keyin besh kun muddatda amalga oshiriladi. Agar chegara suvsiz yerlar bo‘ylab o‘tsa, u holda chegara shudgorlanadi, burilish burchaklariga esa chegara belgilari qo‘yiladi. Yerlarni ko‘rsatish dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma yer resurslari bo‘yicha tuman xizmati vakili, chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillari hamda fermer xo‘jaligi boshlig‘i tomonidan imzolanadi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan bittasi yer resurslari bo‘yicha tuman xizmatida, ikkinchisi fermer xo‘jaligi boshlig‘ida saqlanadi.

Yerlarni ijaraga berishni rasmiylashtirish ishlari tugallangach yer tuzish yig‘majildi tayyorlanadi, unda quyidagi hujjatlar mavjud bo‘ladi:

- fuqaroning fermer xo‘jaligi tashkil etish to‘g‘risidagi arizasi;
- yer egasining yoki yerdan foydalanuvchining yer uchastkasi ajratish to‘g‘risidagi qarori;
- yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining yer uchastkasini ijaraga berishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosasi yoki mazkur komissiya tomonidan o‘tkazilgan tanlov yakunlari to‘g‘risidagi protokol;
- tuman va viloyat hokimining fermer xo‘jaligiga yer uchastkasini ijaraga berish to‘g‘risidagi qarori;
- yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi;
- fermer xo‘jaligining biznes-rejasi yoki faoliyat dasturi;
- fermer xo‘jaligining yer uchastkasi chegaralarini ko‘rsatish dalolatnomasi.

Yig‘majild ikki nusxada tayyorlanadi, ulardan bittasi yer resurslari bo‘yicha tuman xizmatida, ikkinchisi fermer xo‘jaligi boshlig‘ida saqlanadi.

Fermer xo‘jaliklariga berilgan yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer-kadastr va huquqni belgilovchi hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar

kirtilgan holda qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining balansidan chiqariladi.

II

Yer ijarasi shartnomasi tuman hokimi va fermer xo'jaligi boshlig'i o'rtasida tuziladi. Shartnomada ijaraga olinayotgan yer uchastkasi maydoni miqdori, joylashgan joyi va ijara muddati ko'rsatiladi. Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan va unga ilova qilinadigan xaritada ijaraga oluvchining yer uchastkasi chegaralari ko'rsatiladi. Shuningdek, shartnomada yer usatkasining foydalanish maqsadi, eksplikatsiyasi¹ ko'rsatiladi.

Yer uchun ijara haqi yagona yer solig'i tarzida, qonun hujjatlarida belgilangan stavkalar bo'yicha va muddatlarda to'lanishi va yagona yer solig'ini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda penya undirilishi belgilanadi.

Shartnomada ichki xo'jalik obyektlari qurishda va keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olishda ijaraga oluvchi tomonidan buzilgan yer uchastkalari ijaraga oluvchining kuchi bilan va uning mablag'lari hisobiga qayta madaniylashtirilishi o'rnatiladi.

Ijaraga beruvchi belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

– Ijaraga oluvchi tomonidan shartnoma shartlari buzilganda yoxud yer uchastkasini yoki uning bir qismini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish zarur bo'lganda shartnomani o'zgartirishni yoki bekor qilishni talab qilish;

– yer uchastkasining kuchsizlanganligi darajasini aniqlash.

Shuningdek, shartnomada ijaraga beruvchining boshqa huquqlari ham belgilanishi mumkin.

Ijaraga beruvchi quyidagilarga majbur:

– ijaraga olingan yer uchastkasining belgilangan muddatlarda, shartnoma shartlariga muvofiq holatda berilishini ta'minlash;

¹ Ajratilgan yer uchastkasining turlarga bo'linishi xususida ma'lumot.

– yerlar davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilgan taqdirda ijaraga oluvchining ko‘rgan zararlarini, shu jumladan, boy berilgan foydasini to‘lash;

– qishloq xo‘jaligi ekinlari va daraxtlarni sug‘orish uchun ajratilgan limitlarga muvofiq suv berilishini ta‘minlash;

– Ijaraga oluvchining qonun hujjatlarida belgilangan huquqlariga rioya qilish.

Ijaraga beruvchining boshqa majburiyatlari ko‘rsatib o‘tilishi mumkin.

Yer ijarasi shartnomasida ijaraga oluvchining quyidagi huquqlari belgilanishi mumkin:

a) yer uchastkasida undan foydalanish maqsadiga hamda xo‘jalik ustaviga muvofiq mustaqil ravishda xo‘jalik yuritish;

b) qishloq xo‘jaligi ekinlari va daraxt ko‘chatlariga, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotiga va uni sotishdan olingan daromadlarga egalik qilish;

d) yer uchastkasida mavjud bo‘lgan keng tarqalgan foydali qazilmalar, o‘rmonzorlar, suv obyektlaridan xo‘jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, shuningdek, yerning boshqa foydali xossalarni ishga solish;

e) sug‘orish, yerlarning zaxini qochirish, texnik va boshqa meliorativ ishlarni belgilangan tartibda amalga oshirish;

f) qishloq xo‘jaligi ekinlarini, daraxtlarni sug‘orish va boshqa maqsadlar uchun sug‘orish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;

g) ichki xo‘jalik maqsadlari uchun ishlab chiqarish hamda boshqa imoratlar va inshootlarni belgilangan tartibda barpo etish;

h) yerlar olib qo‘yilgan taqdirda o‘ziga yetkazilgan zararlarini, shu jumladan, boy berilgan foydani to‘latish.

Ijaraga oluvchi «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

Ijaraga oluvchi quyidagilarga majbur:

– yer uchastkasining ixtisoslashuvini shartnomaning shartlariga muvofiq saqlash;

– davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulot yetishtirilishini tashkil etish (ixtisoslashuvni hisobga olgan holda);

– yerdan uning belgilangan maqsadiga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo‘llanish, o‘z xo‘jalik faoliyati natijasida hududdagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik. Fermer xo‘jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo‘jaligi yerlari, shuningdek, ekinlaridan qishloq xo‘jaligi ekinlari shartnomasida nazarda tutilmagan boshqa maqsadlarda foydalanilishi amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha kelib chiqadigan oqibatlari bilan birgalikda ijara shartnomasining qo‘pol ravishda buzilishi hisoblanadi;

– ishlayotgan irrigatsiya va meliorativ tarmoqlarni, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlash;

– yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

– yagona yer solig‘ini o‘z vaqtida to‘lash;

– boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yerni ijaraga oluvchilar va yer uchastkalari mulkdorlarining huquqlarini buzmaslik;

– belgilangan shakllardagi hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish;

– boshqa yer egalarga, yerdan foydalanuvchilarga, yerni ijaraga oluvchilarga va yer uchastkalari mulkdorlariga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda to‘lash;

– qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini (uch yil mobaynidagi o‘rtacha yillik hisobda) yerlarning normativdagi kadastr bahosidan past bo‘lmagan darajada bo‘lishini ta‘minlash;

– arxitektura-shaharsozlik normalari va talablariga rioya etish, shu jumladan, qurilishga ruxsat olish va loyihani arxitektura organlari bilan kelishish.

Ijaraga oluvchi «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Yer ijarasi shartnomasi tomonlarning kelishuviga ko‘ra, tomonlarning kelishuviga erishilmagan taqdirda esa – sud qaroriga

ko'ra o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, shartnoma quyidagi hollarda:

a) fermer xo'jaligi tugatilganda, shu jumladan, bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u iqtisodiy nochor bo'lgan taqdirda tugatilganda;

b) yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda;

d) yerdan belgilangan maqsadda foydalanilmaganda, shu jumladan, davlat ehtiyojlari uchun kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi ekinlari ekilganda;

e) samarasiz foydalanilganda, ya'ni Ijaraga oluvchining aybi bilan muntazam ravishda (uch yil mobaynida) normativdagi kadastr bahosidan kam miqdorda hosil olinganda;

f) yerlarning ekologik holati ijaraga oluvchining aybi bilan yomonlashganda;

g) yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda olib qo'yilganda;

h) agar fermer xo'jaligi yer uchastkasi olingan paytdan boshlab bir yil mobaynida ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatiga kirishmasa bekor qilinishi mumkin.

Shartnoma amaldagi qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham bekor qilinishi mumkin.

Agarda tomonlardan biri shartnomaning shartlarini bajarmaganda yoki qonun hujjatlarini muntazam ravishda buzganda ikkinchi tomon shartnomaning bekor qilinishini talab qilishga haqlidir. Bunday hollarda bartaraf etilishi mumkin bo'lgan har qanday qonun buzilishi shartnomaning bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi. Tomonlardan biri shartnomani bekor qilish mo'ljali to'g'risida ikkinchi tomonni shartnoma bekor qilinishi sabablarini asoslagan holda mo'ljallanayotgan bekor qilish sanasidan uch oy oldin yozma ravishda xabardor qiladi.

Shartnomani amalga oshirishda paydo bo'ladigan nizolar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

III

Yer uchastkasini uzoq muddatli ijraga berish shartnomasi yer resurslari bo'yicha tuman xizmatida ro'yxatdan o'tkaziladi va fermer xo'jaligining yer uchastkasini ijaraga olganlik huquqini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yili 27-mayda 736-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi geodeziya, Kartografiya va davlat Kadastr bosh boshqarmasi¹ tomonidan 1999-yili 30 martda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni Davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnoma»² ga asosan fermer xo'jaliklari o'zlarining yerga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishlari shart.

Fermer xo'jaliklarini yer uchastkalariga nisbatan ijaraga olish huquqiga doir hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va rasmiylashtirish majburiy harakat bo'lib, uning asosida ularning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari belgilanadi va ro'yxatga olingan paytdan boshlab e'tirof etiladi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbiri fermerning ro'yxat organi³ ga yozma ariza va huquqni belgilovchi hujjat hamda yo'riqnomaga binoan boshqa zarur hujjatlar bilan murojaat qilishidan boshlanadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- ariza qabul qilinadi;
- ariza va unga ilova qilingan hujjatlar va materiallar tekshirib ko'riladi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 15-dekabrda «Davlat boshqaruv organlarini takomillashtirish»ga oid Farmoniga muvofiq, ikki davlat organi birlashtirilib «Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastr Davlat qo'mitasi» deb nomlangan.

² Informatсионno-pravovoy sistemi «Norma». OOO «NORMA HAMKOR». Versiya-3. 2005.

³ Tuman yer idorasi.

- arizalarni qabul qilish reestrda ariza qayd etiladi;
- yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar ro‘yxatga olinadi;
- yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma subyektga beriladi.

Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish ro‘yxatga oluvchi organ arizani ko‘rib chiqish uchun qabul qilgan kundan boshlab o‘n kun mobaynida amalga oshiriladi hamda hujjatlar ro‘yxatga olish uchun berilgan kun va vaqtda ro‘yxatga olingan deb hisoblanadi, bu haqda reestrda qayd etiladi. Huquq ustunligi ariza reestrda qayd etilgan sanalar bo‘yicha belgilanadi.

Fermer xo‘jaligining yer uchastkasiga nisbatan uzoq muddatli ijara huquqi belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi fermer xo‘jaliklarining yerga nisbatan huquqlarini yuridik jihatdan tan olinishi demakdir.

Nazorat savollari:

1) *Fermer xo‘jaliklariga yer berishda koeffitsiyentlar qanday ahamiyatga ega?*

2) *Yer ijarasi shartnomasini tuzish tartibi qanday va u qaysi huquqiy hujjatga asoslanadi?*

3) *Fermer xo‘jaliklarini yerga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatiga olishning huquqiy oqibatlari nimalardan iborat?*

V BOB. FERMER XO'JALIGINI DAVLAT RO'YXATIGA OLISHNING HUQUQIY TARTIBI

REJA:

1. Fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning huquqiy tartibi.
2. Fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning huquqiy oqibatlari.

I

O'zbekiston Respublikasi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga muvofiq «Fermer xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi. Fermer xo'jaligi vakolatli organ tomonidan davlat ro'yxatiga olinganidan keyin yuridik shaxs maqomini oladi, bank muassasasida hisob-kitob varag'i va boshqa xil hisobvaraqlar ochishga, nomi yozilgan muhrga ega bo'lishga haqli».

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi 357-sonli «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»¹ gi qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asoslanadi. Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari ro'yxatga oluvchi davlat organi bo'lib hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat mulki qo'mitasining 2003-yil 27-sentabrdagi 05-20-401-sonli, 14-sonli va 01/23-55-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan «Tumanlar va shaharlar hokimliklari huzurida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari to'g'risida Namunaviy Nizom»² ga muvofiq faoliyat yuritadi.

¹ Informatsionno-pravovoy sistemi «Norma». OOO «NORMA HAMKOR». Versiya-3. 2005.

² O'sha manba.

Fermer xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni qabul qilish hozir bo'lish tartibida yoki pochta orqali amalga oshiriladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash xo'jalikning ixtiyoriga ko'ra o'zlari tomonidan yoki shartnoma asosida – tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi huzuridagi axborot-maslahat markazlari yoxud boshqa konsalting firmalari, boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun ro'yxatdan o'tkazish yig'imi to'lanadi. Ularning stavkalari davlat hokimiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan belgilanadi. Ro'yxatdan o'tkazish yig'imlarining cheklangan stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi.

Fermer xo'jalikni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ariza taqdim etadi. Tushgan arizalar va unga ilova qilingan hujjatlar hokimlik devonxonasi tomonidan qabul qilinadi. Bunda, devonxona xodimi arizaning ikkinchi nusxasiga imzo chekadi va unga qabul qilib olingan hujjatlarni hamda o'z familiyasi, ismi va otasining ismini, shuningdek ular qabul qilib olingan sanani qayd qiladi.

Devonxona xodimi ariza beruvchi taqdim etgan hujjatlarni to'liq ish kuni mobaynida qabul qilib olishi shart. Tuman hokimliklarini devonxonasida davlat ro'yxatidan o'tkazish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish to'g'risida arizalar bo'yicha alohida kitob yuritilib, u ip o'tkazib bog'langan, raqamlangan va tegishli hokimliklarni gerbli muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarini, jumladan fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida tushgan barcha arizalar ushbu kitobda ro'yxatga olinadi va hokimlik devonxonasining ro'yxatdan o'tkazish shtampi qo'yiladi. Inspeksiyada arizani devonxonada ro'yxatdan o'tkazmasdan qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar kitobda ro'yxatga olinganidan so'ng, devonxona ularni inspeksiyani o'ziga, o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish uchun ikki soat mobaynida beradi.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi;
- ro'yxatdan o'tkazish yig'imining belgilangan miqdori to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati;
- belgilangan tartibda tuman statistika organi tomonidan berilgan firma nomi to'g'risidagi guvohnoma;
- muhr va shtamp eskizlari uch nusxa;
- tuman hokimining yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarori;
- hokimliklar tomonidan tashkil etiladigan tanlov komissiyasining yer uchastkasi berish to'g'risidagi protokoli, tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish biznes-rejasi nusxasi ilova qilinadi.

Bunda Fermer xo'jaligining Ustavi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladigan ta'sis hujjati hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi nomi to'g'risidagi guvohnomani olish uchun Fermer tuman statistika organlariga murojaat qiladi. Arizani ko'rib chiqish va xo'jalik nomi to'g'risidagi guvohnomani yoki shunga o'xshash xo'jalik nomi mavjudligi to'g'risidagi axborotni berish muddati uch ish kunida oshmasligi kerak. Fermer xo'jaligi tuman statistika organiga ko'rsatilgan xizmat uchun to'lov to'lamaydi.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni hisobga qo'yish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Hujjatlarini tayyorlash. (Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasining tegishli tuzilmalari yordamida, konsalting firmalari, boshqa shaxslar yoki muassisning o'zi tomonidan).

2. Hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga kiritish.

3. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organda hujjatlarni ko'rib chiqish va davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish (tegishli organlarda hisobga qo'ygan holda) yoki rad etish, shuningdek Ichki ishlar vazirligi organlaridan muhr va shtamlarni tayyorlashga ruxsatnoma olish.

4. Fermer xo'jaligiga davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnomani hamda muhr va shtamplarini tayyorlashga Ichki ishlar vazirligi organlarining ruxsatnomasini berish.

Inspeksiya tomonidan Fermer xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish yoki asoslangan holda rad etish to'g'risidagi qaror zarur hujjatlar ilova qilingan ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza olingan kundan boshlab 3 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda qabul qilinadi. Shundan so'ng, inspeksiya tomonidan Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar yuridik shaxslarning davlat reestriga kiritiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab bir kun mobaynida u haqdagi davlat reestridan olingan ma'lumotlarni Fermer xo'jaligi joylashgan joydagi statistika, soliq organlari hamda muhr va shtamp eskizlarini uch nusxada ilova qilgan holda ichki ishlar organlariga taqdim etadi.

Ma'lumotlar olingach ikki kun muddatda:

– soliq organlari Fermer xo'jaligini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, ish bilan ta'minlash jamg'armasi va boshqa tegishli jamg'armalarga badallar to'lovchi sifatida hisobga qo'yadi, ularga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini beradi va uni statistika va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga rasman ma'lum qiladi;

– statistika organlari Fermer xo'jaligini korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registriga kiritadi, ro'yxatdan o'tkazish kartasini to'ldiradi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi va soliq organlariga tadbirkorlik subyektiga berilgan kodlarni rasman ma'lum qiladi;

– ichki ishlar organlari muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani rasmiylashtiradi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga (inspeksiyaga) eskizning ikki nusxasi bilan birgalikda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani yuboradi.

Zarur ro'yxatdan o'tkazish va ruxsat berish tartib-qoidalari tugandan keyin ro'yxatdan o'tkazuvchi organ belgilangan muddatda Fermer xo'jaligiga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani va ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muhri bilan tasdiqlangan, «ro'yxatdan o'tkazildi» degan belgi qo'yilgan ta'sis hujjatlarini, shuningdek eskiz bilan birgalikda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani beradi.

Fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tgach tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun majburiy tartibda banklarga o'z faoliyati uchun zarur

bo'lgan hisob raqamlari ochish uchun murojaat qiladi. Bankda hisob raqamlari ochish uchun Fermer xo'jaligi tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

– xo'jalik faoliyat joyi manzili va ochiladigan hisob raqamlari turlari ko'rsatilgan holda ariza;

– davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

– rahbar va bosh buxgalter imzolarining notarial tasdiqlangan namunalari, dumaloq muhr ottiskining ikki nusxasi.

Arizani ko'rib chiqish va bank tomonidan hisob raqami ochish muddati ko'rsatib o'tilgan hujjatlar olingan kundan boshlab bankning ikki ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerak. Bunda hisob raqami ochganlik uchun to'lov miqdori eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish rad etilganligi hamda ro'yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

II

Fermer xo'jaligi tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgach tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun majburiy tartibda:

– banklarga – o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan hisob raqamlari ochish uchun murojaat qiladi;

– vakolatli davlat organlariga – tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyalar (yoki ruxsatnomalar) olish uchun murojaat qiladi.

Bankda hisob raqamlari ochish uchun tadbirkorlik subyekti fermer tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

– xo'jalik manzili va ochiladigan hisob raqamlari turlari ko'rsatilgan holda ariza;

– davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

– rahbar va bosh buxgalter imzolarining notarial tasdiqlangan namunalari va dumaloq muhr ottiskining ikki nusxasi.

Arizani ko‘rib chiqish va bank tomonidan hisob raqami ochish muddati ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar olingan kundan boshlab ikki bank kundan ortiq bo‘lmasligi kerak. Hisob raqami ochganlik uchun to‘lov miqdori bir eng kam oylik ish haqidani ortiq bo‘lmasligi kerak.

Fermer xo‘jaliklari o‘z faoliyatini amalga oshirishda qonun-hujjatlarida belgilangan hollarda majburiy tartibda tegishli ruxsatnomalarni olishlari shart. Mazkur ruxsatnomalarni olish uchun tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan bino (obyekt) joylashgan hududdagi tegishli organlarga murojaat qilishi lozim. Masalan, fermer xo‘jaligi faoliyati tez alanganadigan suyuq yonilg‘ilar (traktor yonilg‘isi va boshqa)ni saqlash bilan bog‘liq bo‘lsa, albatta yong‘in havfsizligi xizmatining ruxsatnomasi olinishi zarur. Davlat yong‘in havfsizligi xizmati organlarining ruxsatnomasini olish uchun tadbirkorlik subyekti tomonidan o‘z manzili, faoliyat ko‘rsatish joyi va turi ko‘rsatilgan holda ariza taqdim etiladi.

Qonun hujjatlariga asosan fermer xo‘jaliklari ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi va qonunda taqiqlanmagan har qanday tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘ladi.

Fermer xo‘jaliklari o‘zlarining ho‘jalik faoliyatlarini qonun talablariga muvofiq amalga oshirishlari lozim. Shundagina davlat, jamiyat, fuqarolar va hatto boshqa tadbirkorlarning huquqi hamda manfaatlariga zarar yetkazilmaydi. Masalan, fermerlar qonunda belgilab qo‘yilgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni byudjetga o‘z vaqtida to‘lab borishsa, davlat va jamiyatning iqtisodiy qudrati mustahkamlanadi; ular tomonidan realizatsiya qilinadigan tovar va xizmatlar sifatli bo‘lsa, fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga ziyon yetmaydi; eng muhimi xo‘jalik shartnomalari tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘z vaqtida ijro etilsa, ular bilan shartnomaviy-huquqiy munosabatga kirishgan tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilmaydi.

Tadbirkorlik subyektlari olib boradigan faoliyatga qo'yiladigan talablar bevosita «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda hamda boshqa qonun hujjatlarida o'z aksini topgan.

Yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari xodimlarini mehnat shartnomalari asosida ishga qabul qilishlari hamda ular bilan ish haqlari bo'yicha o'z vaqtida hisob-kitob qilishlari kerak. Eng asosiysi o'z xodimlarini ijtimoiy sug'urtalab qo'yish uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'z vaqtida qonun hujjatida belgilangan majburiy to'lovlarni o'tkazib turishlari lozim. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yuridik shaxs tomonidan mehnatga haq to'lash fondining 31 foizi miqdorida yagona ijtimoiy to'lov to'lanadi.

Fermer xo'jaliklari xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida havfsizlik, ekologiya, sanitariya, gigiyena va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etishlari shart. Shuningdek, ular buxgalteriya va statistika hisobini qonun hujjatlari talablariga muvofiq yuritishlari hamda o'z faoliyatlari to'g'risidagi hisobotlarni tegishli organlarga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etishlari shart.

Nazorat savollari:

- 1) Fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda qanday tartib belgilangan?*
- 2) Fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda qanday to'lovlar olinadi va qancha miqdorda?*
- 3) Fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olishning huquqiy oqibatlari nimalardan iborat?*

VI BOB. FERMER XO'JALIGINI YER VA SUVDAN FOYDALANISH HUQUQI

REJA:

1. Fermer xo'jaligining yerdan foydalanish huquqi kafolatlari.
2. Fermer xo'jaligining kreditlar olish uchun yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish tartibi.
3. Fermer xo'jaligi suvdan foydalanish huquqi.

I

Fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish huquqi qonun bilan kafolatlanadi va himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilanishicha, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquklari va erkinliklari ustunligini hisobga olib iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi, yer va boshqa tabiiy zahiralarda davlat muhofazasidadir. Ushbu konstitutsion qoidalar fermer xo'jaliklarining yerdan foydalanish huquqlarini himoya qilishda qonuniy kafolat hisoblanadi.

Yer qonunchiligida yerdan foydalanish huquqini himoya qilishga bag'ishlangan Konstitutsiyaviy kafolatlar rivojlantirilgan. Chunonchi, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash, yer munosabatlari sohasida qonuniylikni mustahkamlashdan iborat.

Fermer xo'jaliklari¹ ni yerdan foydalanish huquqini himoya qilish deganda, qonunda belgilangan tartibda yerdan foydalanish sohasidagi huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga, ularni yer bilan ta'minlash, yer uchastkalarini g'ayriqonuniy ravishda olib qo'ymaslik,

¹ Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik korxonalaridan biri hisoblanadi.

o'zboshimchalik bilan egallab olmaslik, yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Yer to'g'risidagi qonunlar, avvalo, qishloq xo'jalik korxonalarining yerlarini noqishloq xo'jalik ehtiyojlariga o'tkazishdan himoya etadi. Ayniqsa sug'oriladigan yerlarni boshqa toifaga o'tkazishga alohida hollardagina yo'l qo'yiladi. Bunda qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi idoralari, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish idoralari bilan kelishib amalga oshirilishi, o'ta zarur shart-sharoitlar vujudga kelgandagina berilishi lozim. Yer kodeksining 44-moddasiga ko'ra sug'oriladigan yerlarni sug'orilmaydigan yerlar sirasiga o'tkazish alohida hollarda to'proq-meliorativ va iqtisodiy shartlari hamda yerlarning suv bilan ta'minlanganligini, ulardagi mavjud suv resurslarini va bu suvlarga belgilangan limitlarni inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda viloyat hokimi qaroriga binoan amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarini foydalanishida bo'lgan alohida qimmatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazilmaydi, zarur hollarda esa korxonalar, binolar va inshootlar qurilish uchun berishga alohida hollarda Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yo'l qo'yiladi (Yer kodeksi 45-modda).

Yer qonunchiligi qishloq xo'jalik korxonalarining yerlarini asossiz ravishda tortib olishdan himoya qiladi. Chunonchi, Yer kodeksining 37-moddasida ko'rsatilishicha, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer egasining roziligi bilan yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan holda tegishli tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan olib qo'yiladi. Agar yer egasi yer uchastkasini olib qo'yish haqidagi tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga rozi bo'lmasa bu qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarining yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olinishdan himoya qilinishi Yer Kodeksida alohida belgilangan. Ushbu kodeksning 91-moddasiga binoan o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga

g'ayriqonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan sarf-xarajatlar qoplanmagan tarzda tegishliligiga ko'ra qaytariladi. Yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar hisobidan amalga oshiriladi.

Egalikdagi yoki foydalanishdagi yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish (realizatsiya qilish) faqat shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilgandan keyin amalga oshiriladi. Ushbu qoida yer egalari va foydalanuvchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda kafolat hisoblanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari bekor qilinishining alohida tartibi belgilangan. Yer uchastkasiga egalik huquqini bekor qilish yer tuzish xizmati organlarining yoki davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning taqdimnomasiga muvofiq tegishincha tumanlar, shaharlar, viloyatlar hokimlarining qarorlari yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi. Ushbu qarordan norozi bo'lgan yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Umumiy qoidaga binoan, yerdan foydalanish huquqini himoya qilish kafolatlari deganda, qonunda belgilangan tartibda yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning o'z subyektiv huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi, yer bilan ta'minlash, yer uchastkalarini g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish, o'zboshimchalik bilan egallab olish, yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning subyektiv huquqlarini himoya qilish kafolatlari o'z ichiga: birinchidan, yerdan foydalanish huquqi buzishni ogohlantirish; ikkinchidan, yerdan foydalanish huquqini buzishni tugatish; uchinchidan, yerdan foydalanuvchi subyektlarning buzilgan huquqlarini tiklash; to'rtinchidan, yerdan foydalanish huquqini buzishda aybdor bo'lganlarni yuridik javobgarlikka tortish kabilarni qamrab oladi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, Yer qonunchiligi qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati davrida ularga yetkazilgan

zarar, nobudgarchilikning o‘rnini qoplash masalasini ham hal qilgan. Yer kodeksining 86-moddasida ko‘rsatilishicha, yer uchastkasidan foydalanuvchiga yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foyda)ning o‘rni quyidagi hollarda to‘la hajmda qoplanadi: yerlar olib qo‘yilgan, qayta sotib olingan yoki vaqtincha egallab turilganida; suv havzalari, kanallar, kollektorlar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chiqaradigan boshqa obyektlar qurish va ulardan foydalanishning ta‘siri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hosili kamayishiga va qishloq xo‘jaligi mahsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti-harakatlari oqibatida yerlarning sifati yomonlashgan taqdirda qoplanishi kerak. Yetkazilgan zarar aybdor korxonona, tashkilot tomonidan qoplanadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining yerdan foydalanish huquqining qonuniy kafolatlaridan yana biri, bu Yer kodeksining 41-moddasi talablariga muvofiq, yer egalari faoliyatiga davlat, xo‘jalik organlari hamda mansabdor shaxslarning aralashuvi ta‘qiqlanadi. Shuningdek, yer egalari buzilgan huquqlari tiklanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yerdan foydalanish huquqining kafolatlanganligi, qonun bilan muhofaza qilinishi fermer xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyati barqarorligini ta‘minlashga, ular faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

II

Fermer xo‘jaligining kreditlar olish uchun yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo‘yish munosabatlari Markaziy bank Boshqaruvining 2004-yil 1-martdagi 564-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom»¹ asosida tartibga solinadi.

¹ Mazkur Nizomga O‘zR AV 31.12.2004-yil 1345-1-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MBB Qaroriga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

Bunga ko'ra, tijorat banklari qarz oluvchilar¹ ga kredit berishni shartnoma asosida, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga taqdim etgan holda, amalga oshiradi. Yer uchastkasini ijaraga berish muddati kredit shartnomasida belgilangan, ta'minlanishi uchun u garovga qo'yilayotgan kreditni qaytarish muddatidan kamida besh yilga ko'p bo'lishi kerak.

Kredit berish muddatlari kreditlanayotgan tadbirning qoplanish muddatlariga bog'liq bo'ladi, xususan:

a) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga doir aylanma mablag'larni to'ldirishga kredit odatda 2 yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi;

b) fermer xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun kreditlar muddatni kechiktirish huquqsiz 5 yilgacha bo'lgan muddatga berilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'lanmagan fermer xo'jaliklarining aylanma mablag'larini to'ldirishga doir boshqa kreditlar bo'yicha, ularning kreditlardan foydalanishi eng ko'p muddati, uzaytirishni hisobga olganda, 12 oydan ortiq qilmasdan belgilanadi.

Kreditdan foydalanish uchun foiz stavkasining miqdori qarz oluvchi bilan bankning o'zaro kelishuvi bo'yicha kredit shartnomasi asosida belgilanadi. Kredit berish qarz oluvchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisob varag'i joylashgan joy bo'yicha amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi qoidalariga ko'ra, zarar ko'rib ishlayotgan, nolikvid balansga ega bo'lgan qarz oluvchilarga kredit berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirishga taqdim etiladi. Ushbu qoida kredit shartnomasida, albatta, ta'kidlanishi kerak.

Kredit olish uchun qarz oluvchilar bankka quyidagi hujjatlarni (kredit paketini) taqdim etadilar:

¹ Bu yerda fermer xo'jaliklari nazarda tutilyapti.

- kredit buyurtmanomasi;
- qarz oluvchining bank hisob varag‘iga pul tushumlarining (pul oqimining) prognozi albatta ko‘rsatilgan biznes-reja;
- Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan, oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansining nusxasi hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risida ma‘lumotnoma, shuningdek, 90 kundan ortiq bo‘lgan qarzga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot;
- fermer xo‘jaligi tomonidan yer uchastkasi uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasining notarial tasdiqlangan nusxasi;
- yer uchastkasining chizmasi.

Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida», «Garov to‘g‘risida»gi qonunlariga muvofiq, shuningdek, mazkur Nizomga muvofiq tuziladigan, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo‘yish kredit qaytarilishining ta‘minoti bo‘lib hisoblanadi. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymatini baholash Markaziy bank Boshqaruvining 2004-yil 13-martdagi 6/17-son qarori (ro‘yxat raqami 1336, 2004-yil 8-aprel, O‘zR QT, 14-son, 176-modda) bilan tasdiqlangan «Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi hamda garov beruvchi va garov oluvchining kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi.

Yer uchastkasining ijara huquqi qiymatini baholash fermer xo‘jaligining so‘nggi uch yil mobaynidagi yer maydonining bir birligiga to‘g‘ri keladigan sof foydasining o‘rtacha hajmini aniqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Yer uchastkasining bir birligi deb bir gektarga (1 ga) teng maydon olinadi. Agar fermer xo‘jaligi o‘z faoliyatini boshlaganiga uch yil bo‘lmagan bo‘lsa, asos sifatida xuddi shu joyda (tuman hududi va boshqalar) joylashgan shu kabi yer uchastkasiga oid ijara huquqi o‘rtacha qiymatining hisob-kitobi olinadi.

Taqvimiy yil davomidagi yer maydonining bir birligi yuzasidan hisob-kitob qilgandagi sof foyda quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$P = C - F, \text{ bunda:}$$

R – bir yilga bo‘lgan yer uchastkasi bir birligiga to‘g‘ri keladigan sof foyda;

S – bir yilga bo‘lgan yer uchastkasi bir birligiga to‘g‘ri keladigan daromadlar umumiy summasi;

F – bir yilga bo‘lgan yer uchastkasi bir birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar umumiy summasi.

Bir yilga bo‘lgan yer uchastkasi bir birligiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar summasi qishloq xo‘jaligi mahsulotining sotilishidan olingan umumiy daromadlar summasini ijaraga olish huquqi garovga tegishli bo‘lgan umumiy yer uchastkasi maydoniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Yer uchastkasi bir birligiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar summasi hisob-kitobi quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$C = [(s_1+s_2+s_3) : 3] : S, \text{ bunda:}$$

S – bu bir yilga bo‘lgan yer uchastkasining bir birligiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning umumiy summasi;

s₁, s₂, s₃ – tegishli yillarda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining sotilishidan olingan umumiy daromadlar summasi;

3 – hisob davridagi yillar soni;

S – ijaraga olish huquqi garovga qo‘yilgan umumiy yer uchastkasi maydoni.

Yer uchastkasi bir birligiga bo‘lgan daromadlarning umumiy summasi aniqlab bo‘linganidan so‘ng 1 ga ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarishning to‘liq xarajatlari aniqlanadi. Ishlab chiqarishning to‘liq xarajatlari nafaqat hosilni yetishtirish va uni yig‘ishtirib olishga bo‘lgan xarajatlarni, shuningdek yagona yer solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar bilan birgalikda barcha boshqa qo‘shimcha xarajatlarni ham o‘z ichiga oladi.

To‘liq ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash uchun ushbu xarajatlarni har bir yil bo‘yicha (f_1, f_2, f_3) aniqlash lozim. Ishlab chiqarishning to‘liq xarajatlari ushbu xarajatlarni yillar bo‘yicha arifmetik qo‘shib chiqish va olingan natijani yer uchastkasining umumiy maydoniga bo‘lish orqali quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$F = [(f_1 + f_2 + f_3) : 3] : S, \text{ bunda:}$$

F – 1 ga ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarishning to‘liq xarajatlari summasi;

f₁, f₂, f₃ – yagona yer solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar bilan birgalikda tegishli yillarga oid umumiy xarajatlar summasi;

3 – hisob davridagi yillar soni;

S – ijaraga olish huquqi garovga qo‘yilgan yer uchastkasining umumiy maydoni.

Yer maydoni bir birligi ijara huquqining qiymati sof foyda hajmini yer uchastkasining umumiy maydoniga va tuman hokimi bilan fermer xo‘jaligi rahbari o‘rtasida tuziladigan yer uchastkasining uzoq muddatli ijarasi to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq hisoblab yoziladigan, quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadigan qolgan ijara yillari soniga ko‘paytirish orqali aniqlanadi:

$$Q = P \times S \times t, \text{ bunda:}$$

Q – yer uchastkasining ijarasiga bo‘lgan huquq qiymati;

P – bir yilda yer uchastkasi bir birligiga to‘g‘ri keladigan sof foyda;

S – ijaraga olish huquqi garovga qo‘yilgan yer uchastkasining umumiy maydoni;

t – qolgan ijara yillari soni.

Bunda, yer uchastkasining ijara huquqi qiymati u ta‘minlab berishi uchun qabul qilinayotgan so‘ralayotgan kredit summasidan 1,25 barobar ortiq bo‘lishi kerak.

Yer uchastkasining ijaraga olish huquqi qiymatini baholash hisob-kitobi fermer xo‘jaligi buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari, shu jumladan, so‘nggi uch yil uchun bo‘lgan buxgalterlik balanslari asosida bank tomonidan amalga oshiriladi. Fermer xo‘jaligi tijorat bankining iltimosiga ko‘ra yer uchastkasining ijara huquqi qiymatini baholash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi shart.

Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining hududiy bo‘linmalari, yer resurslari bo‘yicha xizmatlar, boshqa boshqaruv organlari tijorat banklariga ularning so‘rovi bo‘yicha yer uchastkasi ijara huquqi qiymatining hisob-kitob qilinishi uchun barcha zarur ma‘lumotlarni taqdim etadilar.

Bankka so'ralayotgan kreditni ta'minlash uchun garov sifatida berilayotgan yer uchastkasi ijara huquqi qiymati hajmining aniqlanishiga oid uzil-kesil qaror fermer xo'jaligi bilan tijorat bankining o'zaro kelishuvi bo'yicha qabul qilinadi.

Ushbu tartibda fermer xo'jaliklarini kreditlashda, beriladigan kreditning summasi yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatining 80 foizidan oshishi mumkin emas.

So'ralayotgan kredit summasining qaytarilishini ta'minlash sifatida yer uchastkasini ijaraga olish huquqining qiymati yetarli bo'lmagan taqdirda qarz oluvchi yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yishga qo'shimcha tarzda ta'minotning boshqa shakllarini taqdim etishga haqlidir. Kredit qaytarilishining qo'shimcha ta'minoti sifatida mol-mulk va qimmatli qog'ozlarning garovi, olingan kreditning qaytarilmaslik xatarini sug'urtalash, uchinchi shaxslarning kafilligi, shuningdek ta'minotning boshqa turlari taqdim etilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi buyurtmanomasining bank tomonidan ko'rib chiqilish muddati, barcha zarur hujjatlar ilova qilingan holda kredit olish uchun ariza topshirilganidan keyin 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Bankning kredit qo'mitasi kredit berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda bank fermer xo'jaligiga asoslangan yozma javob berishi shart.

Bankning kredit qo'mitasi tomonidan kredit berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganidan keyin, bank kredit qo'mitasi qaror qabul qilganidan keyingi kundan kechiktirmay qarz oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Kredit shartnomasi tuzilganidan keyin bank bo'limining rahbari yoki kredit bo'limining boshlig'i (xodimi), o'z vakolatlari doirasida, buxgalteriyaga muddat va foiz stavkasini ko'rsatgan holda ssuda hisobvarag'ini ochish to'g'risida farmoyish beradi. Kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish bilan bir vaqtda qarz oluvchiga kredit kartochkasi ochilib, kredit ustidan nazorat unga asosan amalga oshiriladi.

Agar garovga yer uchastkasining bir qismini ijaraga olish huquqi berilsa, bu holda fermer xo'jaligining rahbari tuman yer resurslari

va davlat kadastrı bo'limiga garovga taklif qilinayotgan yer uchastkasining rejasini tuzish uchun murojaat qiladi. Tuman yer resurslari va davlat kadastrı bo'limi o'n kun ichida butun yer uchastkasini suratga olib, garovga beriladigan qismini ajratadi. Ishlar buyurtmachining mablag'lari hisobiga bajariladi. Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomada «Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq belgilangan, yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqining qiymati ko'rsatilishi kerak.

Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini garovga qo'yish shartnomasiga, uning ajralmas qismi sifatida, tuman yer resurslari va davlat kadastrı bo'limining boshlig'i tasdiqlagan, uning garovga qo'yilayotgan qismi kiritilgan yer uchastkasining chizmasi ilova qilinadi. Yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini garovga qo'yish shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Kredit shartnomasi notarial tasdiqlangan taqdirda yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish shartnomasi ham, albatta, notarial tasdiqlanishi kerak.

Garov beruvchining arizasiga asosan tuman yer resurslari va davlat kadastrı bo'limi yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yishni davlat ro'yxatidan o'tkazishni ariza berilgan kundan boshlab uch kundan oshmaydigan muddatda amalga oshiradi va ro'yxatdan o'tkazish yozuvini qayd etish sanasi va uning raqamini ko'rsatgan holda guvohnoma beradi.

Garov yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab yuzaga keladi. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi boshqa shaxsga meros qolish tartibida o'tganda garov o'z kuchini saqlab qoladi. Bunda yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish shartnomasi qo'shimcha ravishda ro'yxatdan o'tkaziladi. Ijaraga olish huquqi garovga qo'yilgan yer uchastkasi faqat garov tutuvchining barcha talablari qanoatlantirilganidan keyingina davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqaga berilishi mumkin.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan Yer kodeksiga muvofiq yer uchastkasini ijaraga olish huquqini bekor qilish masalasi ko'tarilganda, bank, qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, shu jumladan qarz oluvchi tomonidan garovga qo'yilgan yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ommaviy savdolarda mazkur Nizomda belgilangan tartibda sotish yo'li bilan berilgan kreditlar va ular bo'yicha hisoblab yozilgan foizlar va jarimalarni muddatidan oldin so'ndirish choralari ko'rishga haqlidir. Ijaraga olish huquqi garovga qo'yilgan yer uchastkasini olib qo'yishda bank o'z talabini qarz oluvchiga yetkazilgan zararlarni qoplash hisobiga kelib tushgan summadan qanoatlantirish uchun ustuvor huquqqa egadir. Kreditlar alohida ssuda hisobvarag'ini ochish va tovar-moddiy boyliklar uchun qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalarini ana shu hisobvaraqdan naqd pulsiz tarzda to'lash yo'li bilan beriladi.

Kreditni so'ndirish muddatlari jadval ko'rinishida taqdim etilishi kerak, bu jadval uni pul oqimlarining kelib tushish istiqboliga bog'liq holda bir necha bosqich bilan so'ndirishni nazarda tutadi. So'ndirish muddati boshlangan va qarz oluvchida pul mablag'lari bo'lmagan taqdirda kredit kechiktirilgan ssudalar hisobvarag'i orqali undirishga taqdim qilinadi, unga doir muddatli majburiyatlar esa 2-son kartotekaga joylashtiriladi va taqvimiy navbat tartibida so'ndirilishi kerak. Bunda foizlar kredit qarzidan avval so'ndiriladi.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning butun muddati mobaynida doimiy monitoringni amalga oshiradi. Monitoring qarz oluvchining buyurtmanomasini va kredit shartnomasi shartlarini amalga oshirishga har tomonlama yordam ko'rsatishga yo'naltirilishi kerak.

Monitoring jarayonida qarz oluvchining moliya-xo'jalik faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga (buyurtmalarga) muvofiq mahsulot yetkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari va talafotlari, muomala chiqimlari, foyda, o'z aylanma mablag'lari mavjudligining dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralarining holati, aylanma mablag'larning aylanuvchanligi tahlili amalga oshiriladi. Bank kreditga qobillikning

doimiy monitoringini amalga oshirib, qarz oluvchining kredit ishidagi ko'rsatkichlarni tizimlashtiradi.

Garovga qo'yilgan yer uchastkasidan foydalanish, kredit shartnomasida ta'kidlangan shartlarda samarali va maqsadli foydalanishning holati joyning o'zida o'rganiladi.

Yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini garovga qo'ygan qarz oluvchilar kredit shartnomasida belgilangan muddatda garov tutuvchining talabini qanoatlantirishi kerak.

Qarz oluvchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'ida mablag'lar mavjud bo'lmaganida bank muddatli majburiyat asosida boshqa banklarga qarz oluvchining ikkilamchi depozit hisobvaraqlarida bo'lgan mablag'larni talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risida talabnoma yuboradi. Qarz oluvchining talab qilib olingungacha ikkilamchi depozit hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatuvchi banklar, Fuqarolik kodeksining 784-moddasida belgilangan hisobdan chiqarishlar navbatidan kelib chiqib, bu talablarni bajarishi va ko'rsatilgan mablag'larni qarz oluvchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga memorial orderlar bilan o'tkazishi shart.

Ikkilamchi depozit hisobvaraqlarida bo'lgan mablag'larni qarz oluvchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag'iga kirim qilgandan keyin, ushbu mablag'larni hisobdan chiqarish Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada (ro'yxat raqami 615, 1999-yil 30-yanvar) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'ygan fermer xo'jaligi tugatilganda garov tutuvchi yer uchastkasini ijaraga olishning garovga qo'yilgan huquqini undirishga muddatidan oldin qaratish huquqini oladi.

Bank sud qaroriga ko'ra o'z talablarini yer uchastkasini ijaraga olishning garovga qo'yilgan huquqi hisobiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 280-moddasi bilan belgilangan tartibda qanoatlantira oladi.

Undirish qaratilgan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning qarz oluvchi tomonidan garovga qo'yilgan huquqlarining amalga oshirilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy savdolarni tashkil etish yo'li bilan bajariladi. Ommaviy savdolarida o'z zimmasiga yer uchastkasiga doir bevosita belgilangan huquqlar olinganidan keyin undan foydalanish majburiyatini qabul qiladigan har qanday yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. Yer uchastkasini ijaraga olish huquqini ommaviy savdolarida oladigan yuridik va jismoniy shaxslar huquqlarining ijara muddati tugashiga qadar to'xtatilishiga favqulodda hollarda, faqat unga yetkazilgan zararlar (shu jumladan boy berilgan foyda) to'la qoplanganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Yer uchastkasini ijaraga olishning garovga qo'yilgan huquqini sotishdan olingan mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda kreditni so'ndirish uchun bank O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrda 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi»ga muvofiq bank undirishni qarz oluvchining likvidli mol-mulkiga qaratishga haqlidir.

III

O'zbekiston Respublikasi agrar respublika bo'lgani uchun ham davlat va jamiyatning asosiy e'tibori qishloq xo'jaligini isloh etishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligi sohasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizidan ortig'ini, valyuta tushumining 55 foizini va tovar almashinuvining 70 foizini ta'minlaydi.¹ Shunisi alohida e'tiborga loyiqliki, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 93-95 foizi sug'oriladigan yerlardan olinmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan agrar islohotlarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

¹ Suv huquqi.

Fermer xo'jaliklari yerda o'simlikni o'stirishda zarur bo'lgan suv rejimini ta'minlash uchun suv resurslaridan foydalanish huquqlariga egadirlar. Bugungi kunda ularning suvdan foydalanish huquqini ta'minlash va kafolatlash masalasi ham davlat e'tiborida.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»¹ gi qonunining 18-moddasiga asosan, fermer xo'jaliklari suvdan foydalanuvchilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgust 692-II-son qonuni bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligi to'g'risida»² gi qonunning 15 moddasida Fermer xo'jaliklari uchun suvdan foydalanish limitlari vakolatli organlar tomonidan belgilanishi mustahkamlangan.

Fermer xo'jaliklarining suvdan foydalanish limitlari Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagi 385-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnoma»ga binoan o'rnatiladi. Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga ko'ra oqova suvlardan qishloq xo'jaligida foydalanish faqatgina suv olish inshootlari o'rnatilgan va suvdan maxsus foydalanishga ruxsatnomalari bo'lgan xo'jaliklargagina beriladi. Suv olishning cheklangan miqdorlari suv xo'jaligi organlari tomonidan suv manbalarining taxmin etilgan va sersuvlik darajasini hisobga olgan tarzda qishloq xo'jaligida suvdan foydalanuvchilar uchun yiliga 2 marta belgilaniladi. Ushbu suv olish tartibi shartnomaga binoan va qarorning 4-bandiga muvofiq belgilangan shartlarda amalga oshiriladi.³

Fermer xo'jaliklarini bu tartibda suvdan foydalanish munosabatlari Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan «Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi

¹ Norma.

² «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2004-yil, 40-41-son, 433-modda.

³ Norma.

korxonalari hududida o'zaro suv xo'jaligi munosabatlarini tartibga solish Tartibi»¹ bilan tartibga solinadi. Ushbu tartibga muvofiq, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi² qayta tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari hududida o'zaro suv xo'jaligi munosabatlarini tartibga solib borishni ta'minlash uchun tashkil qilinadi.

Uyushma tuman suv xo'jaligi organlari bilan kelishgan holda, odatda, ichki xo'jalik sug'orish tizimi bo'yicha, suvdan foydalanuvchilar ta'sis yig'ilishi qaroriga ko'ra tashkil etiladi. Uyushma har yili ikki marta vegetatsiya va novegetatsiya davrlarida o'z faoliyati hududidagi barcha suvdan foydalanuvchilarni suv bilan ta'minlash uchun suvdan belgilangan limit bo'yicha foydalanish rejasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish to'g'risida» 1993-yil 3-avgustdagi 385-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish bo'yicha vaqtinchalik yo'riqnoma»ga asosida tuman suv xo'jaligi organlari bilan suv olish yuzasidan shartnoma tuzadi.

Suv xo'jaligi organlari bilan tuzilgan shartnomada har o'n kunda suv berish miqdori, suv olish manbalari ko'rsatiladi. Suvdan belgilangan limit bo'yicha foydalanish rejasi har yili Uyushma tomonidan, qabul qilingan gidromodul, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish rejasi, suvdan foydalanishning ajratilgan limiti asosida va infratuzilmaning o'zgarishini hisobga olgan holda tuziladi hamda suv xo'jaligi organlari bilan kelishgan holda Uyushma a'zolarining umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.

Suvdan belgilangan limit bo'yicha foydalanish rejasi tarkibida suvdan belgilangan maqsadda foydalanilishi, hech istisnosiz barcha suvdan foydalanuvchilarga har o'n kunda beriladigan suv miqdori, suv ayirgichlar va sug'orish manbalari ko'rsatiladi. Suv berilishini ta'minlash uchun Uyushma har yili ikki marta vegetatsiya va

¹ «O'zbekiston Respublikasi qonunlar to'plami». 2002-yil, 1-son.

² Keyingi o'rinlarda Uyushma.

novegetatsiya davrlari uchun, har o'n kunda beriladigan suv miqdorini, suv ayirgichlar va manbalarini ko'rsatgan holda, barcha suvdan foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzadi.

Uyushma tomonidan umumiy ravishda foydalaniladigan suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish va Uyushma ta'minoti uchun meliorativ fondni tashkil etishda ulush qo'shgan holda qatnashish barcha suvdan foydalanuvchilar uchun suv berishning majburiy sharti hisoblanadi. Uyushma birlamchi suvdan foydalanuvchi hisoblanadi. Uyushma a'zosi hisoblangan Fermer xo'jaliklari ham suvdan birlamchi foydalanuvchidir.

Fermer xo'jaliklarining suvdan foydalanish limitlari ularning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Lekin iqlim sharoitlari noqulay kelgan pallada yoki ko'zda tutilmagan falokatli holatlarda umumiy va maxsus vakolatlangan organlar, xususan Vazirlar Mahkamasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirhigining maxsus qarorlari bilan belgilangan cheklanishlar bundan istisnodir.

Nazorat savollari:

1) Fermer xo'jaligining yerdan foydalanish huquqi kafolatlari qaysi qonunlarda ko'rsatilgan?

2) Kreditlar olish uchun yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yishda nimalar e'tiborga olinadi?

3) Sizningcha joriy kredit olish tartibi yer qonunchiligi talabiga mos-mi?

4) Fermer xo'jaligi suvdan foydalanuvchi sifatida qanday huquqlarga ega?

VII BOB. FERMER XO'JALIGI FAOLIYATIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

REJA:

- 1. Fermer xo'jaligi faoliyatida shartnomaviy munosabatlar tushunchasi.*
- 2. Qishloq xo'jalik shartnomalarini tuzish va shartnoma majburiyatlarini bajarish tartibi.*
- 3. Fermer xo'jaligi faoliyatiga oid shartnoma turlari.*

I

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodining asosiy bo'g'inlaridan biridir. Qishloq xo'jaligini bozor talablariga muvofiq rivojlantirish ko'p hollarda qishloq hujaligi subyektlarining o'zaro aloqasiga bog'liq. Chunki hech bir subyekt faqat o'zi hech kim bilan aloqa qilmay «yashay» olmaydi. Qishloq xo'jaligi subyektlarining bu aloqasi avvalo ular o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi bilan bog'liq. Shartnoma tushunchasi FKning 353-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra shartnoma bu ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan kelishuv hisoblanadi. FKning 8-moddasiga ko'ra, shartnomalar taraflar o'rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asoslaridan biridir. Agar mazkur norma talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi shartnomasi bu qishloq xo'jaligi subyektlarining huquq va majburiyatlarni vujudga kelish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq kelishuvidir degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi. Shartnoma tushunchasi, mohiyati, tuzish va bekor bo'lish asoslari fuqarolik huquqida batafsil o'rganiladi, shu sabab u xususda alohida to'xtalmasdan, asosiy e'tiborni qishloq xo'jalik shartnomalariga qaratish maqsadga muvofiq. Zero qishloq xo'jalik shartnomalarining asosiy umumiy qoidalari aynan shu fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Shartnomalar tuzishning erkinligi, undan taraflarning o'zaro manfaatdorligi ayni kunda qishloq xo'jalik shartnomalariga xos

xususiyat hisoblanadi. Zero bu erkinlik fermer xo'jaliklari, dexqon xo'jaliklari umuman qishloq xo'jalik subyektlarining erkin mehnat qilishini, o'z mehnatining natijasini mustaqil realizatsiya qilishini, manfaatdorlik hissini o'yg'onishini ta'minlab bermoqda.

Ayni kunda qishloq xo'jaligi shartnomalarini tuzish va bajarishni ta'minlash maqsadida hamda sohani tezkor va ta'sirchan huquqiy mexanizmini yaratish uchun mamlakatimizda «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» 2003-yil 24-martdagi PF-3226-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida»gi Nizom qabul qilindi. Mazkur va bunga o'xshash qonun hujjatlari qishloq xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarish monitoringi yuritishni tartibga soladi. Bular o'z navbatida tuzilgan shartnomalarni tezroq va realroq ishlashiga xizmat qilmoqda.

Bular ichida maxsus «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida»gi Nizom bevosita qishloq xo'jalik shartnomalariga tegishli bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish va ularni bajarishda paydo bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, ularni tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), fermer va dehqon xo'jaliklari, boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi, mexanizatsiyalashgan ishlarni bajaruvchi, xo'jaliklarga servis, agrokimyoy, agrotexnika xizmatlari va xo'jaliklarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish ishlarni bajarish bo'yicha shartnomalarga tatbiq etiladi. Umumiy asoslar esa amaldagi fuqarolik kodeksi, maxsus qonunlar (Ijara to'g'risidagi, Lizing to'g'risidagi, Garov to'g'risidagi) orqali tartibga solinadi.

II

Shartnomalarni tuzishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27-bobiga, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunga, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida»gi Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish amaldagi qonun hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. Kontraktatsiya, lizing, ijara shartnomalari, shuningdek, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish yuzasidan tuzilgan shartnomalar xo'jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan hajmlardan kelib chiqqan holda,

agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan bir oy oldin, lekin kalendar yil boshlanishidan kechikmay tuziladi.

Shartnomalarni tuzishda tomonlar tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan alohida namunaviy shakllarga amal qilishi mumkin. Bunday namunaviy shakllar vakolatli davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladi. Lekin bu shakllar qonuniy tusga ega bo'lmay, asosan tomonlar Fuqarolik kodeksi va Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib tuzishlari lozim bo'ladi.

Shartnomalarda shartnomaning mavzusi, shartnoma tuzilgan sana va joyi, shartnoma predmeti – mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (hajmi), sifati, narxi (turlari bo'yicha), shartnomaning umumiy summasi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) punktlari va davrlari (muddatlari), idishga, markirovka qilishga, o'rash-joylashga qo'yiladigan talablar, hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jo'natish rekvizitlari, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi, fors-major holatlari, nizolarni hal etish tartibi, shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi, boshqa tomonlarning kelishuviga kiritiladigan shartlar hamda tomonlarning rekvizitlari ko'rsatiladi. Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta, bug'doy, sholi, pilla) xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning sorti va miqdori ham ko'rsatiladi.

Shartnomalarga, shuningdek, aniq turdagi shartnomalar uchun yoki ularga nisbatan tomonlardan birining arizasiga ko'ra yoxud qonunchilikka muvofiq kelishuvga erishilishi kerak bo'lgan shartnomalar uchun nazarda tutilgan boshqa muhim shartlar ham kiritilishi mumkin.

Shartnomaga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish)

muddatlari, miqdori va assortimentini belgilovchi, ikkala tomonning imzosi bilan tasdiqlangan hamda shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadigan jadval ilova qilinadi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining bevosita joylashgan joyidagi tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari agrotexnika chora-tadbirlarini amalga oshirishdan bir oy oldin shartnoma tuzish uchun xo'jalikka o'zining vakolatli vakilini yuborishi kerak. Xo'jalik shartnoma loyihasi tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkiloti vakilidan olingan vaqtdan boshlab 7 kun mobaynida uni ko'rib chiqishi va e'tirozlar bo'lmagan taqdirda loyihani imzolashi va tayyorlovchiga qaytarishi shart. Xo'jalikda shartnoma loyihasi shartlari bo'yicha e'tirozlar paydo bo'lgan taqdirda xo'jalik yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda kelishmovchiliklar to'g'risida protokol tuzadi va uni tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotiga jo'natadi, bu to'g'rida tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limini xabardor qiladi. Xo'jalikning shartnoma xulosasiga ilgari shartnoma loyihasida nazarda tutilganlardan boshqacha shartlarda roziligi mavjud bo'lgan javobi aktsept (aktseptlash) hisoblanmaydi. Bunday javobga aktseptlashni rad etish va ayni bir vaqtda yangi taklif (oferta) sifatida qaraladi. Oferta va aktsept tushunchalari fuqarolik kodeksi va fuqarolik huquqi darsliklarida batafsil bayon etilgan.

Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkiloti kelishmovchiliklar to'g'risidagi bayonnoma olingan vaqtdan boshlab 7 kun mobaynida uni (zarurat bo'lganda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi vakili bilan birgalikda) ko'rib chiqishi va ko'rib chiqish natijalari bo'yicha takliflarni shartnoma loyihasiga kiritishi yoxud hal etilmagan kelishmovchiliklarni xuddi shu muddatlarda ko'rib chiqish uchun tegishli xo'jalik sudiga berishi shart. Kelishmovchiliklar to'g'risidagi bayonnoma qabul qilinmaganda yoki uni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmaganda xo'jalik nizoni sudda ko'rib chiqishga berishga haqlidir. Shartnoma tomonlardan har biri va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan tuziladi va barcha nusxalari bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Tayyorlov va

xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklar bilan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishi uchun javob beradi.

Qishloq xo'jalik shartnomasi imzolangan vaqtdan boshlab 3 kun mobaynida tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etiladi. Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shartnomalarni ko'rib chiqish tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda qo'shimcha hujjatlar yoki to'lov talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Ortiqcha hujjatlar talab qilish qonuniy javobgarlik uchun asos bo'ladi. Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shartnomaning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi, belgilangan muhim shartlar mavjudligi, xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan narx bo'yicha tartibga solinishi kerak bo'lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining oshirib yuborilishi tekshiriladi.

Shartnoma qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi. Shartnomaning barcha nusxalariga ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risida belgi qo'yiladi, tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi xodimi tomonidan imzolanadi, imzo muhr bilan tasdiqlanadi hamda bo'lim xodimlari ro'yxatdan o'tkazishning to'g'riligi uchun javob beradi. Shartnoma belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror chiqariladi. Bu qarorda ro'yxatdan o'tkazmaslik sabablari yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim. Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma puxtalashtirilgandan keyin 3 kun muddatda uni takroran taqdim etishlari shart.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish daftarlari yuritiladi, bu daftarda shartnomaning ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami, shartnoma tuzilgan sana, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan sana, shartnomaning tomonlari, yetkazib beriladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar (bajarilgan ishlar) turlari va miqdori (hajmlari), shartnoma summasi,

ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomani olgan shaxsning imzosi va sana mavjud bo'lishi kerak. Shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab ikki kun muddatda xo'jaliklarga ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning bir nusxasini jo'natishlari shart. Agar shartnomani ro'yxatdan o'tkazish rad etilsa, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bu haqda xo'jalikni rad etish sabablarini ko'rsatgan holda rad etish hujjati olingan kundan boshlab 2 kun muddatda xabardor qilishi shart.

Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar shartnoma bilan bo'lgan tartibda rasmiylashtiriladi va ular tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

Shartnomaning tomonlarda hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida qoladigan nusxalari tomonlar shartnoma majburiyatlarining hammasini bajargan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida saqlanadi.

Qishloq xo'jalik shartnomalarining taraflari shartnomaviy munosabatga kirishar ekan, o'zlari xohish-irodalarini namoyon etgan holda ma'lum bir huquq va majburiyatni zimmalariga oladilar. Mazkur shartnomalarning muhim shartlaridan biri ham taraflarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat ekanligi xususidagi banddir. Qishloq xo'jalik shartnomalarini tuzuvchi taraflar qonunda va shartnomada nazarda tutilgan huquqlarni o'z zimmalariga olishlari mumkin. Qishloq xo'jalik subyektlari turlicha bo'lib, ular shartnomada taraf sifatida ishtirok etganda turlicha nom bilan ataladi. Masalan, oldi-sotdi shartnomalarida sotuvchi yoki sotib oluvchi, mahsulot yetkazib berish shartnomasida mahsulot yetkazib beruvchi va sotib oluvchi, ijara shartnomasida ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi, lizing shartnomasida lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va boshqalar. Ularning huquq va majburiyatlari qonun va shartnomada belgilanadi. Lekin umum ma'noda qishloq xo'jalik subyektlari shartnomaviy munosabatdagi huquq va majburiyatlarini yoritishda shartli ravishda xo'jalik, tayyorlovchi tashkilot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot nuqtai

nazardan ularning alohida huquq va majburiyatlarini yoritishni maqsadga muvofiq deb topdik. Zero ular asosan shartnomaviy munosabatga kirishuvchi subyektlardir hamda shartnomalar ham mazkur shaxslar doirasida tuziladi.

Qishloq xo'jalik shartnomasi bo'yicha xo'jaliklar shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug' va ekish materiallari bilan ta'minlashni talab qilish, mahsulotni topshirishda, uning sifatini aniqlashda qatnashish va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to'lovni talab qilish, tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda avans to'lanishini talab qilish (qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish bundan mustasno), tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan mahsulot xo'jalik hisobidan tashilganda transport xarajatlarini qoplanishini talab qilish, xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga binoan tegishli sifatdagi, assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berishni va xizmatlar ko'rsatishni (ishlarni bajarishni) talab qilish, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish hamda qonun hujjatlari va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

Taraflar zimmalariga olgan majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo'ladilar. Aynan bu javobgarliklarni talab qilish ham xo'jalikning huquqlaridan biri hisoblanadi. Tovar (ishlar, xizmatlar) unga yomon sifat bilan sotilgan xo'jalik o'z xohishiga ko'ra:

– zarur sifatdagi ana shunday tovar (ishlar, xizmatlar)ga almashtirishni;

– tovar (ishlar, xizmatlar)ning nuqsonlarini bepul bartaraf etishni yoki nuqsonlarni tuzatish uchun sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan qilingan xarajatlari to'lanishini;

– narxlarning mutanosib ravishda kamaytirilishini talab qilishga haqlidir. Aynan bu kabi huquqlar ikkinchi tarafga majburiyat bo‘lib o‘tadi.

Xo‘jalik mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish, shartnomaga ilova qilinayotgan hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda qo‘yiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, qadoqlash, qoramollarni tamg‘alash va boshqalarga) rioya etish, mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o‘z vaqtida tayyorlash, yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun to‘lovni (hisob-kitoblarni) xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘z vaqtida amalga oshirish majburiyatiga ega. Xo‘jalik qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi.

Tayyorlov tashkilotining huquqlariga shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulotlarning muayyan turlarini belgilangan miqdorlarda va assortimentda, tegishli sifat bilan o‘z vaqtida topshirishni talab qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari avans summasida nazarda tutilgan hajmlarda topshirilmagan taqdirda tuzilgan shartnomaga muvofiq ilgari berilgan avans mablag‘lari qoplanishini xo‘jaliklardan talab qilish (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish bundan mustasno) hamda qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlari ham kiradi.

Tayyorlov tashkilotining majburiyatlariga esa qonun hujjatlariga muvofiq xo‘jaliklar bilan tomonlar kelishgan hajmlarda o‘z vaqtida shartnomalar tuzish, xo‘jaliklarga shartnomada belgilangan davrlarda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish muddatlariga muvofiq mahsulotlar qiymatining kamida 50 foizi miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo‘yicha – shartnomalarda ko‘rsatilgan hajmlar qiymatining 25 foizi miqdorida) avans mablag‘lari to‘lash (qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari

uchun xarid qilish bundan mustasno), xarid qilinadigan mahsulotning vazni va sifatini to'g'ri aniqlash, xo'jaliklar tomonidan yetkazib beriladigan mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdorlarda va muddatlarda xarid qilish, ularning uzluksiz qabul qilib olinishini ta'minlash, xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarni shartnomada nazarda tutilgan hollarda davlat standartlari va texnik shartlar talablariga muvofiq saqlash hamda ularning holati to'g'risida xo'jaliklarga muntazam ravishda xabar qilib turish, xo'jaliklar ixtiyorida qoldiriladigan mahsulotlar sifatining yomonlashishi oqibatida xo'jaliklarga yetkazilgan zararni qoplash, agar shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z vaqtida qabul qilishni va tashishni ta'minlash, xarid qilinayotgan mahsulot sifatini amaldagi standartlar talablariga muvofiq aniqlash, shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq va muddatlarda mahsulot uchun hisob-kitob qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash, tashish va qayta ishlashda ular nobud bo'lishining oldini olish, mahsulotlarni amaldagi standartlarga muvofiq qayta ishlash, sotishga tayyorlash va ularni sotishga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirish, xo'jaliklarni idishlar, o'rash materiallari va normativ-texnik hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, mahsulotlarning ayrim turlarini xarid qilish, qabul qilib olish, sifatini baholash tartibini tartibga soluvchi qoidalar) bilan shartnomalarga muvofiq ta'minlash, shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda xo'jaliklarni urug'lik va ekish materiallari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlov tashkiloti joylashgan joyda yoki ular ko'rsatgan boshqa joyda qabul qilib olingan taqdirda xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini belgilangan muddatlarda qabul qilib olish va boshqalar kiradi.

Tayyorlov tashkiloti qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga olishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining huquqlariga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari va

ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan haq to'lashni va yakuniy hisob-kitob qilishni talab qilish, taqdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini va ko'rsatiladigan xizmatlarni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni xo'jaliklardan talab qilish hamda qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlar kiradi. Uning majburiyatlariga xo'jaliklar bilan qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida shartnomalar tuzish va shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, xo'jaliklarning buyurtmanomalariga binoan shartnomaga muvofiq muddatlarda, miqdorda va sifatda moddiy-texnika resurslari yetkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish), yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining shartnomada belgilangan talablarga, shuningdek amaldagi standartlar va normativlarga muvofiqligini ta'minlash, shartnomani bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida xo'jalikka yetkazilgan zararni qoplash hamda qonun hujjatlari va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlari ham kiradi.

Shartnoma majburiyatlarni bajarish deb, majburiyat olgan taraf tomonidan huquqni talab qiluvchi kreditor talabiga muvofiq muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Fuqarolik huquqida majburiyat subyektlari muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga majburiyat olgan shaxslar bo'lib, har bir majburiyatda albatta, ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan bir harakatning qilinishini yoki muayyan harakatni qilishdan saqlanishni talab etishga haqli bo'lgan taraf – **kreditor**, muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo'lgan taraf esa **qarzdor** deb ataladi. Demak, qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyoni topshirish, ma'lum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish kabilardan iborat. Qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan olingan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish, mulkiy munosabatlarni mustahkamlash,

jamiyatning tobora o'sib borayotgan moddiy va madaniy talablarini qondirishda katta rol o'ynaydi.

Majburiyatlar FKning 236-moddasida aytilganidek, majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmagan taqdirda esa – ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Bu norma qishloq xo'jalik shartnomalariga ham daxldor bo'lib, taraflar o'z olgan majburiyatlarini yuqoridagi normaga asoslanib amalga oshiradilar. Bunda taraflarning har biri o'z majburiyatlarini ancha tejamli bajarish, ikkinchi tomonga uning o'z majburiyatlarini bajarishda har tomonlama yordam ko'rsatishi lozim. Aynan tejamlilik va o'zaro yordam bilan tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

Shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga, agar qonun hujjatlari yoki shartnomada belgilanmagan bo'lsa yo'l qo'yilmaydi.

Shartnoma majburiyatlarini bajarishda xarid qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsuloti (bajarilayotgan ish va ko'rsatilayotgan xizmat)ning sifati va miqdorini baholash, uning uchun haq o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi bo'yicha tomonlar o'rtasida nizoli masalalar va kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda, bunday masalalar va kelishmovchiliklar tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan sudgacha bo'lgan tartibda yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

Har qanday shartnomalarda o'ziga xos majburiyatlarni bajarish usullari va shartlari mavjud. Bu avvalo shartnoma va qonun talablaridan kelib chiqadi.

Agar huquq va majburiyatlarni belgilash va uni amalga oshirish yuzasidan taraflar o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa, u holda birinchi o'rinda nizo har ikki tarafning kelishuvi asosida bartaraf etishga harakat qilinadi. Agar nizo hal qilinmasa, u holda xo'jalik sudiga murojaat qilinadi.

Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish yuzasidan mustaqil

yoxud tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari ishtirokida chora-tadbirlar ko'radilar. Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari nizoni ko'rib chiqishda ishtirok etish paytida vakolatli davlat organlarining ma'lumotlari va axboroti asosida mahsulotning sifati pasaytirilishi yoki buzilishi hollari bo'yicha xulosa, shuningdek, tabiiy ofatlar va boshqa noqulay shart-sharoitlar oqibatida yoxud tayyorlovchining aybi bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun xo'jaliklarni javobgarlikdan ozod qilish uchun xulosa berishlari mumkin. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

Mahsulotni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari zimmasida bo'ladi. Mahsulot xo'jalik transportida yetkazib berilsa, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jalikka mahsulotni tashish xarajatlarini haqiqiy vazni (idishni ham qo'shib) bo'yicha qoplaydi. Mahsulotni tashish xarajatlari butun masofa uchun qoplanadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha xarajatlar mahsulot xo'jalikdan jo'natilgan joydan boshlab (saralash punkti, brigada, bo'lim, chorvachilik fermasi, yaylov, markaziy ombor, xo'jalikning markaziy qo'rg'oni va hokazolar) shartnomada nazarda tutilgan qabul qilish punktigacha qoplanadi. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish shartnomalari bo'yicha xarajatlar mahsulotni qabul qilish punktidan shartnomada nazarda tutilgan yetkazib berish joyigacha qoplanadi.

Xo'jaliklarning transportda tashish va tushirish xarajatlari qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan normalar va tariflar bo'yicha yoxud tomonlarning kelishuviga ko'ra belgilanadi. Tayyorlov tashkilotining qo'shimcha talablariga rioya qilgan holda mahsulot jo'natish bilan bog'liq shartnomada belgilanmagan xarajatlar tegishli ravishda tayyorlovchi hisobiga to'lanadi. Tayyorlov tashkiloti tomonidan standart talablariga muvofiq bo'lmagan, shuningdek, konditsiyaga muvofiq bo'lmagan mahsulot qabul qilingan taqdirda qo'shimcha ravishda sortlarga ajratish tayyorlovchi tomonidan bajariladi, ishlarni bajarish bo'yicha xarajatlar esa qo'shimcha bitim bo'yicha qoplanadi. Xo'jaliklar bilan tayyorlov va xizmat ko'rsatish

tashkilotlari o'rtasidagi oldindan haq to'lash va yakuniy hisob-kitoblar shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, shaklda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Shartnoma yuzasidan qarzdor bo'lgan shaxs uni butunlay bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, majburiyatni bajarish yuzasidan belgilangan huquq normalariga rioya qilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizligi hisoblanib, bu hol shartnoma majburiyatini buzish deb ko'riladi. Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik qo'llaniladi. Bu javobgarlik mulkiy xarakterda bo'ladi. Shartnoma bo'yicha tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga muvofiq belgilanadi. Bundan tashqari javobgarlik holatlari taraflar imzolagan shartnoma shartlaridan ham kelib chiqadi. Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik javobgar shaxsdan zararni to'lash yoki neustoyka to'lash majburiyatini keltirib chiqaradi.

FKning 14-moddasiga ko'ra agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi mumkin. Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi. Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.

Neustoyka esa majburiyat bajarilmaganda javobgar har bir kechikkan kun uchun to'lashi lozim bo'lgan foizli (penya) yoki qat'iy belgilangan (jarima) pul summasidir.

Taraflar shartnoma shartlarini bajarmaganda, agar bu shartni yetarlicha o'z shartnomalarida ko'rsatmagan bo'lsalar, Xo'jalik

yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazalari to'g'risidagi qonundan kelib chiqib javobgarlik belgilanadi.

Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Neustoyka (jarima, penya) to'laganligidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi. Ko'rilgan zararga shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi munosabati bilan taraf qilgan xarajatlar, mol-mulk yo'qolish yoki shikastlanishi, shuningdek agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajarganida taraf olishi mumkin bo'lgan lekin ololmay qolgan daromadlar kiradi.

Muddatini o'tkazib yuborish yoki shartnoma majburiyatlarini o'zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan neustoykani (jarimani, penyani) to'lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, taraflarni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

Shartnoma majburiyatlari xo'jalik yurituvchi subyekt mansabdor shaxsning aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi aniqlangan, to'lov intizomi buzilgan, xo'jalik yurituvchi subyekt bankrotlikka duchor qilingan yoki shartnoma munosabatlari sohasida boshqa

qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik - huquqiy javobgarlikka, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176, 177, 212 va 214-moddalariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 181, 186, 205, 207 va 209-moddalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Xo'jalikni standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, mahsulotning tegishli turlarini xarid qilishni tartibga soluvchi yo'riqnomalar va qoidalarda yoki kontraktatsiya shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatlarda idish va o'rash materiallari bilan ta'minlanmaganligi uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka yetkazib berilmagan idish, o'rash materiallarining yetkazib berish vaqtida amalda bo'lgan qiymatining 2 baravari miqdorida jarima to'laydi. Tayyorlovchining xo'jalikni idish bilan ta'minlamaganligi mahsulot sifatining pasayishiga yoki tez buziluvchi mahsulotning buzilishiga olib kelgan bo'lsa, tayyorlov tashkiloti xo'jalikka ko'rilgan zararining jarima bilan qoplanmagan qismini ham to'laydi. Bunda xo'jalik sifatsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Agar yuklab jo'natilgan mahsulot (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar)ning sifati, assortimenti, sorti standart talablariga, texnik shartlarga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon sifati zarur darajada bo'lmagan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomada shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikning amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa choralari ham nazarda tutilishi mumkin.

Zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar natijasida oldindan ko'rish va bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (fors-major holatlar) munosabati bilan ularning irodasi va

xohishiga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha o'z zimmalariga olgan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bir tomon boshqa tomon oldida javob bermaydi.

Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishi monitoringini o'tkazadi. Ushbu maqsadlarda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida har bir xo'jalik bo'yicha Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning bajarilishini monitoring qilish daftari yuritiladi.

Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarini belgilangan shakl bo'yicha paxta, boshoqli ekinlar doni va sholi bo'yicha xo'jaliklar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishining borishi to'g'risida xabardor qiladi. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay har oyda xo'jaliklar joylashgan joydagi tegishli tuman qishloq va suv xo'jaligi belgilangan shakl bo'yicha paxta, boshoqli ekinlar doni va sholi yetishtirish uchun xo'jaliklar bilan moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilishining borishi to'g'risida xabardor qiladi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari xo'jaliklar tomonidan taqdim etilgan axborotni 5 kun muddatda (15-kunda) viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalariga yuboradi. Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari viloyat bo'yicha shartnomalar bajarilishining borishini 5 kun muddatda (20-kunda) umumlashtiradilar hamda tumanlar, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bo'yicha yig'ma axborot tayyorlaydilar. Yig'ma axborot O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga hamda hududiy adliya organlariga yuboriladi.

Adliya organlari hamda qishloq va suv xo'jaligi organlari tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladilar va monitoring olib boradilar.

III

Fermer xo'jaligi faoliyatida turlicha shartnomalar tuziladi. Bu shartnomalarning aksariyati fuqarolik huquqida o'rganiladigan oldi-sotdi, kontraktatsiya, tovarlarni yetkazib berish to'g'risidagi davlat kontrakti, ko'chmas mulklarni sotish, hadya, qurilish pudrati, ijara, lizing, haq evaziga xizmat ko'rsatish, kredit, mol-mulknii ishonchli boshqarish, oddiy shirkat va boshqa shartnomalardan iborat. Bu fuqarolik-huquqiy shartnomalarni qishloq xo'jalik korxonalarini o'z manfaatlarini ko'zlab tuzadilar. Masalan, o'z mahsulotlarini sotish jarayonida oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, tovarlarni yetkazib berish to'g'risidagi davlat kontrakti tuzsalar, o'z bino va inshootlari oldi-sotdisini ko'chmas mulklarni sotish qoidalariga tayanib rasmiylashtiradilar. Fermerlar binolarni, inshootlarni qurilish pudrati shartnomasi talablariga ko'ra tuzsa, o'zini moddiy-texnika bilan ta'minlashda, yangi texnika vositalari olganda qulay bo'lgan lizing shartnomasini tuzishni ma'qul ko'radilar. Bu yuqorida ko'rsatilgan shartnomalar fuqarolik huquqida o'tilganligi bois asosiy e'tiborni quyidagi ayrim shartnomalarga qaratishni lozim deb topdik.

Kontraktatsiya shartnomalari FKning 465-467-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-son qaroriga asosan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida Nizom» asosida tartibga solinadi. FKning 465-moddasiga ko'ra kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga – tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish (qabul qilib turish), uning haqini shartlashilgan muddatda belgilangan bahoda to'lash (to'lab turish) majburiyatini oladi.

Mazkur shartnomani tartibga solishda yuqoridagi Nizom asosiy o‘rinlardan birini egallaydi va u qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar, tayyorlov va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida shartnomalar tuzish va ularni bajarishda paydo bo‘ladigan munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek, ularni tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlarida ro‘yxatdan o‘tkazish hamda ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibini belgilaydi.

Kontraktatsiya shartnomalari, shuningdek, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnomalar xo‘jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan hajmlardan kelib chiqqan holda, agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan bir oy oldin, lekin kalendar yil boshlanishidan kechikmay tuziladi. Shartnomalarni tuzishda tomonlar tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan alohida namunaviy shakllarga amal qilishi mumkin.

Shartnomalarda shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (hajmi), sifati, narxi (turlari bo‘yicha), shartnomaning umumiy summasi, tomonlarning huquqlari va o‘zaro majburiyatlari, mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) punktlari va davrlari (muddatlari), idishga, markirovka qilishga, o‘rash-joylashga qo‘yiladigan talablar, hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to‘lov, pochta va yuklab jo‘natish rekvizitlari, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi, nizolarni, fors-major holatlarni hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy ko‘rsatiladi.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo‘jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning sorti va miqdori ham ko‘rsatiladi. Shartnomalarga, shuningdek, aniq turdagi shartnomalar uchun yoki ularga nisbatan tomonlardan birining arizasiga ko‘ra yoxud qonunchilikka muvofiq kelishuvga erishilishi kerak bo‘lgan

shartnomalar uchun nazarda tutilgan boshqa muhim shartlar ham kiritilishi mumkin.

Shartnoma tomonlardan har biri va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklar bilan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishi uchun javob beradi.

Tuzilgan shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab 3 kun mobaynida tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etiladi. Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shartnomalarni ko'rib chiqish tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda qo'shimcha hujjatlar yoki to'lov talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma bo'yicha xo'jalik shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug' va ekish materiallari bilan ta'minlashni talab qilish, mahsulotni topshirishda, uning sifatini aniqlashda qatnashish va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to'lovni talab qilish, tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda avans to'lanishini talab qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish bundan mustasno, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan mahsulot xo'jalik hisobidan tashilganda transport xarajatlarini qoplanishini talab qilish, xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga binoan tegishli sifatdagi, assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berishni va xizmatlar ko'rsatishni (ishlarni bajarishni) talab qilish, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi

tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish, ilova qilinayotgan hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda qo'yiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, qadoqlash, qoramollarni tamg'alash va boshqalarga) rioya etish, mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o'z vaqtida tayyorlash, yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun to'lovni (hisob-kitoblarni) xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'z vaqtida amalga oshirish xo'jalikning majburiyatlari hisoblanadi.

Tayyorlov tashkilotining huquqlari:

– tasdiqlangan jadvalga muvofiq shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulotlarning muayyan turlarini belgilangan miqdorlarda va assortimentda, tegishli sifat bilan o'z vaqtida topshirishni talab qilish;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari avans summasida nazarda tutilgan hajmlarda topshirilmagan taqdirda tuzilgan shartnomaga muvofiq ilgari berilgan avans mablag'lari qoplanishini xo'jaliklardan talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Tayyorlov tashkilotining majburiyatlari:

– qonun hujjatlariga muvofiq xo'jaliklar bilan tomonlar kelishgan hajmlarda o'z vaqtida shartnomalar tuzish;

– xo'jaliklarga shartnomada belgilangan davrlarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish muddatlariga muvofiq mahsulotlar qiymatining kamida 50 foizi miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo'yicha – shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlar qiymatining 25 foizi miqdorida) avans mablag'lari to'lash;

– xarid qilinadigan mahsulotning vazni va sifatini to'g'ri aniqlash;

– xo'jaliklar tomonidan yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdorlarda va muddatlarda xarid qilish, ularning uzluksiz qabul qilib olinishini ta'minlash;

– xo‘jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarni shartnomada nazarda tutilgan hollarda davlat standartlari va texnik shartlar talablariga muvofiq saqlash hamda ularning holati to‘g‘risida xo‘jaliklarga muntazam ravishda xabar qilib turish;

– xo‘jaliklar ixtiyorida qoldiriladigan mahsulotlar sifatining yomonlashishi oqibatida xo‘jaliklarga yetkazilgan zararni qoplash;

– agar shartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kelishilgan jadvalga muvofiq qabul qilib olishni va tashishni ta‘minlash;

– xarid qilinayotgan mahsulot sifatini amaldagi standartlar talablariga muvofiq aniqlash, shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq va muddatlarda mahsulot uchun hisob-kitob qilish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash, tashish va qayta ishlashda ular nobud bo‘lishining oldini olish;

– mahsulotlarni amaldagi standartlarga muvofiq qayta ishlash, sotishga tayyorlash va ularni sotishga taalluqli hujjatlarni rasmiylashtirish;

– xo‘jaliklarni idishlar, o‘rash materiallari va normativ-texnik hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, mahsulotlarning ayrim turlarini xarid qilish, qabul qilib olish, sifatini baholash tartibini tartibga soluvchi qoidalar) bilan shartnomalarga muvofiq ta‘minlash;

– shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda xo‘jaliklarni urug‘lik va ekish materiallari bilan ta‘minlash;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlov tashkiloti joylashgan joyda yoki ular ko‘rsatgan boshqa joyda qabul qilib olingan taqdirda xo‘jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini belgilangan muddatlarda qabul qilib olish.

Xizmat ko‘rsatish tashkilotlarining huquqlari:

– amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan haq to‘lashni va yakuniy hisob-kitob qilishni talab qilish;

– taqdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini va ko‘rsatiladigan xizmatlarni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni xo‘jaliklardan talab qilish.

Mahsulotni tashish va tushirish bo‘yicha barcha xarajatlar tayyorlov va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari zimmasida bo‘ladi.

Shartnomalar shartnoma shartlari va talablariga hamda qonun hujjatlariga rioya qilingan holda zarur darajada bajarilishi kerak. Agar tomonlar o‘z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta‘minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

Shartnomada mahsulotni yetkazib berishning davrlari belgilanishi bilan birgalikda tovarlarni yetkazib berish jadvallari ham (o‘n kunlik, sutkalik va boshqalar) nazarda tutilishi mumkin. Agar shartnomada bunday jadval nazarda tutilmagan taqdirda, xo‘jalik tayyorlov tashkilotini mahsulotni shartnomada nazarda tutilgan assortimentda realizatsiya qilish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda mo‘ljallanayotgan hajmlar va topshirish muddatlari to‘g‘risida xabardor qilishi kerak. Agar shartnomada bunday muddat ko‘rsatilmasa, mahsulot topshirilgunga qadar 30 kunlik muddatda (mavsumiy mahsulotlar bo‘yicha – 15 kundan kechikmay) topshirishi va mahsulotni kalendar (sutka bo‘yicha) topshirish jadvalini tayyorlov tashkiloti bilan kelishishi kerak.

Tayyorlov tashkiloti bilan kelishgan holda xo‘jalik mahsulotni keyingi topshirish davri hisobiga o‘tkazgan holda muddatidan oldin topshirishi mumkin. Agar tomonlardan biri yuklash yoki tushirish bo‘yicha boshqa tomonning majburiyatlarini bajarsa, o‘z majburiyatlarini bajarmagan tomon belgilangan tariflar asosida, bunday tariflar mavjud bo‘lmagan taqdirda esa – o‘zaro kelishuvga ko‘ra bajarilgan ishlar qiymatini unga to‘laydi.

Shartnoma majburiyatlarini bajarishda xarid qilinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining sifati va miqdorini baholash, uning uchun haq o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanishi bo‘yicha tomonlar o‘rtasida nizoli masalalar va kelishmovchiliklar paydo bo‘lgan taqdirda, bunday masalalar va kelishmovchiliklar tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi

tomonidan sudgacha bo'lgan tartibda yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

Birja va birja faoliyati to'g'risidagi qonunning 23-moddasida birjalar tomonidan tuziladigan shartnomalar ko'rsatilgan. Birjada birja tovarlari oldi-sotdi bitimlari, shu jumladan:

1) real tovarni o'zgaga topshirish yoki yetkazib berish yoxud tovarga mulk huquqini beruvchi hujjatlarni o'zgaga topshirish bilan bog'liq bitimlar;

2) forward bitimlar real tovarni yetkazib berish muddati kechiktirilgan holdagi oldi-sotdi bitimlari;

3) fyuchers bitimlari tovarlarga doir standart kontraktlarning oldi-sotdi bitimlari (ularni kelgusida ijro etish majburiyatini olgan holda);

4) opsiyon bitimlar tovarlarni yoki tovarlar yetkazib berish kontraktlarini belgilangan narx bo'yicha kelgusida sotib olish yoki sotish huquqlariga doir oldi-sotdi bitimlari tuzilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida fyuchers shartnomalar tuzish huquqi barcha qishloq xo'jaligi subyektlariga berilgan. Bunday bitimlar birjalarda tuzilishi mumkin. Sotuvchi fyuchers bitimi tuzish uchun mavjud tovarni sotishga taklif qilayotganda birjaga quyidagilarni taqdim etadi:

– tovar egasining birinchi shaxs (yoki uning vazifalarini bajarayotgan shaxs) va bosh buxgalter imzo chekkan, muhr bilan tasdiqlangan, ushbu tovar haqiqatan ham sotuvchining mulki ekanligini, shuningdek, uning mavjudligini tasdiqlaydigan hujjati (omborxonaga ma'lumotnomasi);

– sifat sertifikat;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tegishli vakolatli vazirliklar va idoralarning xulosasi;

– sotuvchi tomonidan mazkur tovar ishlab chiqarilishi xususida kafolat xati taqdim etiladi, u vakolatli shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

Birjada kontraktlarni tuzish paytida xaridor – O'zbekiston Respublikasi norezidenti O'zbekiston Respublikasi valyutasining kelib chiqishi qonuniyligini tasdiqlaydigan (mablag'lar manbaiga bog'liq holda) quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) vakolatli bankning xorijiy valyutaning ichki bozorda sotilishi to'g'risidagi ma'lumotnomasini;

b) tovarni ichki bozorda sotish uchun olib kelinishi to'g'risidagi kontrakt va olib kelingan tovarga bojxona yuk deklaratsiyasini;

d) soliq organining tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromadlar bo'yicha byudjetdan qarzi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomasini;

e) O'zbekiston Respublikasi valyutasi kelib chiqishining qonuniyligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarni.

Fyuchers bitimi tuzilganda xaridor sotuvchiga kontrakt rasmiylashtirilganidan keyin 10 kun davomida bo'nakni o'tkazadi. Fyuchers bitimi bo'yicha bo'nak miqdori taraflar tomonidan shartnoma bo'yicha belgilanadi va kontrakt qiymatining kamida 15 foizini tashkil etishi kerak. Fyuchers kontraktlari bo'yicha hisob-kitoblar tovar-xom ashyo birjalarining hisob-kitob-kliring palatalari orqali amalga oshiriladi.

Bitimlar tuzilganidan keyin birja yoki uning filiali kontraktlarni birja yoki uning filiali muhri bilan tasdiqlaydi va ularni brokerlarga yoki yarmarka savdolari ishtirokchilariga topshiradi. Norezidentlar tuzadigan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda to'lanadigan eksport kontraktlari summasi so'mlar kelib chiqishining qonuniyligini tasdiqlaydigan hujjatlarda ko'rsatiladigan summadan oshmasligi kerak.

Birjada tuzilgan barcha eksport kontraktlari kontrakt tuzilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo'yicha AQSh dollaridagi ekvivalentini ko'rsatgan holda birjada tegishli ro'yxatdan o'tkazilishi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasiga yoki uning hududiy boshqarmalariga yuborilishi kerak. Bojxona organlari mas'ul xodimlarni belgilaydi, mazkur xodimlar kelishilgan grafik bo'yicha chopardan tasdiqlangan kontraktlarni reyestrga qarab qabul qiladilar, imzolaydilar, ularni muhr bilan tasdiqlaydilar va choparga qaytaradilar. Bojxona organi reyestr bo'yicha kontraktni kelib tushgan paytidan boshlab ikki ish kuni davomida rasmiylashtiradi.

Birja O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan tasdiqlangan kontraktlarni olgan paytidan boshlab ikki ish kuni mobaynida ularni brokerlarga yoki yarmarka savdolari ishtirokchilariga topshiradi. Mazkur kontraktlar bojxona yuk deklaratsiyalarini to'ldirish uchun asos hisoblanadi.

Tovarni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan rasmiylashtirilgan eksport kontraktlari bo'yicha olib chiqish paytida yuklab jo'natish joyi bo'yicha bojxona bo'linmalariga, yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar nusxalaridan tashqari, quyidagi hujjatlar ham taqdim etiladi.

- kontrakt;
- tovarga haq to'langanini tasdiqlaydigan to'lov hujjati nusxasi;
- muvofiqlik sertifikat;
- tovarning kelib chiqish sertifikat;
- bojxona yuk deklaratsiyasi.

Bojxona organlariga taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar to'g'riligi uchun yukni jo'natuvchi javobgar bo'ladi. Tovarlarni olib chiqishga kontraktlarni rasmiylashtiradigan organlar xaridor va sotuvchidan bitimni rasmiylashtirishga taalluqli bo'lmagan boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli emas.

Qishloq xo'jalik subyektlarini moddiy-texnika (texnika, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar, ehtiyot qismlar hamda tuzatish materiallari, zooveterinariya punktlari jihozlari) bilan ta'minlash faoliyatni tashkil etishning muhim elementi hisoblanadi. Chunki u siz xo'jalik o'z normal faoliyatini amalga oshira olmaydi. Aslini olganda qishloq xo'jalik tadbirkorlik subyektlarini moddiy-texnika bilan ta'minlash tovar-bozor mazmuniga ega bo'lgan mulkiy munosabat bo'lib, u fuqarolik huquqiy shartnoma asosida amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligini moddiy texnika bilan ta'minlash shartnomalarining taraflari sifatida har qanday tadbirkorlik subyekti ishtirok etishlari mumkin. Bu kabi shartnomalarning aksariyati oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, ijara, tekinga foydalanish kabi shartnomalar asosida rasmiylashtiriladi.

Bundan tashqari qishloq xo'jalik texnikalarini tuzatish va xizmat ko'rsatish, servis xizmati shartnomalari ham muhim o'rin tutadi. Bunday shartnomalar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga ko'maklashish maqsadida tuziladi. Chunki har qanday texnikaning buzilishlarda uni tuzatmay, yangisini sotib olish maqsadga muvofiq emas. Shu sabab iloji boricha uni tuzatib foydalanilsa xo'jalikning umumiy daromadiga ham foyda bo'ladi.

Ayrim hollarda muayyan hududdagi qishloq xo'jalik texnikasini saqlanishini markazlashtirish va ishga shay holatga keltirish ishlari ham amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari barcha fermer va dehqon xo'jaliklari ham birday texnika sotib olishga imkoniyati yo'q. Shu sabab bu kabi moddiyliklarni ijaraga olgan holda foydalanish ham o'z ijobiy samarasini berishi aniq.

Bundan tashqari qishloq xo'jalik subyektlarini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlashda lizing shartnomasini o'rni beqiyos. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligini yuqori samarali zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasi bilan jihozlashni rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi mashinasozligini, shu jumladan yetakchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, qishloqqa yetkazib berilayotgan traktorlar va o'rim-yig'im texnikasi uchun hisob-kitob qilish mexanizmini takomillashtirishda lizing shartnomasi boshqa shartnomalarga qaraganda yetakchi o'rin tutmoqda.

Bu kabi shartnomalarda lizing beruvchi sifatida bank, kredit tashkilotlari, maxsus lizing tashkilotlari lizing beruvchi sifatida faoliyat yuritmoqda va bu o'z ijobiy samarasini bermoqda. Ular tomonidan yetakchi milliy va xorijiy kompaniyalar ishlab chiqarilayotgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasi (traktorlar va o'rim-yig'im texnikasi) mashina-traktor parklariga, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar)ga va fermer xo'jaliklariga lizing bo'yicha yetkazib berilmoqda.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) to'g'risida shartnomalarni bajarish tartibi shartnomaga, amaldagi qonunchilikka, Vazirlar

Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga va ish-muomala odatlariga asoslanib amalga oshiriladi.

«Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko‘rsatish tashkilotlari o‘rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga asosan moddiy-texnika resurslari yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish) to‘g‘risida shartnomalarida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuzilgan sana shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilgan sana deb hisoblanadi, mahsulot oluvchining manziliga yuklab jo‘natilgan taqdirda esa – mahsulot transport tashkiloti vakiliga topshirilgan sana majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko‘rsatilgan sana xo‘jaliklarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga haq to‘lash bo‘yicha majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

Xo‘jaliklarning roziligi bilan moddiy-texnika resurslari muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. Yetkazib berilgan va xo‘jaliklar tomonidan qabul qilingan moddiy-texnika resurslariga haq to‘lanadi va keyingi davrlarda yetkazib berilishi kerak bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobiga o‘tkaziladi.

Xo‘jalik muddatlar buzilgan va zarur sifatga muvofiq bo‘lmagan holda yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini qabul qilishni rad etishga haqlidir.

Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomdagi tovarlar yetkazib berilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi yetkazib berilmagan tovarlar o‘rnini to‘ldirish sifatida qaralmaydi va yetkazib bermasliklar o‘rni to‘ldirilishi kerak, bunday yetkazib berishlar xo‘jalikning oldindan berilgan yozma roziligi bo‘yicha amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

Yerni mexanizatsiya vositasida shudgorlash bo'yicha bajarilgan ishlar va boshqa xizmatlar xo'jaliklarning bevosita mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada bajarilgan ishlar (xizmatlar) miqdori, ularning sifati, shudgorlar chuqurligi va boshqa agrotexnika ko'rsatkichlari ko'rsatiladi.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish, shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni (ishlarni) ko'rsatish xo'jaliklarning yozma buyurtmanomasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar Xo'jaliklarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadilar. Ushbu daftarlarda taqdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq mahsulot yetkazib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi (ishlar bajarilishi) to'g'risidagi axborot bo'lishi kerak.

Buyurtmanoma mahsulot yetkazib berishning, tegishli xizmatlar ko'rsatishning (ishlarni bajarishning) taxmin qilinayotgan sanasidan kamida besh kun oldin chopar, pochta orqali yoki boshqa tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimi xo'jalikda qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

Xo'jalik ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud mahsulot yetkazib berish, tegishli xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) sanasini o'zgartirishga haqlidir, tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bu haqda buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida bir kun oldin xabardor qilinadi.

Qishloq xo'jaligida qurilish pudrati shartnomasi bino (jumladan uy-joy binosini) inshootni yoki boshqa obyektни qurish yoki qayta qurish haqida, shuningdek, montaj, sozlash, ishga tushirish va qurilayotgan obyekt bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa ishlarni bajarish haqida tuziladi. Qurilish pudrati shartnomasi buyurtmachi bilan pudratchining o'zaro munosabatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida qurilish pudrat shartnomasining predmeti sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

– yangi qurilish obyekti, shu bilan birga «kalitni topshirish» shaklida qurilgan obyekt;

- rekonstruksiya qilish va amaldagi korxonani texnik jihatdan qayta ta'mirlash;
- bino yoki inshootni kapital ta'mirlash;
- texnologik, energetik va boshqa maxsus jihozlarni montaj qilish;
- qurilayotgan obyekt bilan bog'liq sozlash va boshqa ajralmas ishlarni bajarish.

Nazorat savollari:

- 1) *Fermer xo'jaligi faoliyatida shartnomalar qanday ahamiyat kasb etadi?*
- 2) *Sizningcha, shartnomalarni tuzish shartlarida fermer xo'jaliklari uchun qulay jihatlari nimalarda ko'rinadi?*
- 3) *Shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik holatlarida fermer xo'jaliklari uchun qanday huquqiy oqibat kelib chiqadi?*
- 4) *Kontraktatsiya shartnomasiga ta'rif bering!*
- 5) *Lizing nima? Fyuchers-chi?*

VIII BOB. FERMER XO'JALIGINI BOSHQARISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

REJA:

- 1. Fermer xo'jaligini boshqarishning huquqiy asoslari va fermer xo'jaliklarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash.*
- 2. Xo'jalikni boshqarishda fermer xo'jaligi Ustavining ahamiyati.*
- 3. Fermer xo'jaligining Biznes rejasi.*

I

Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir. Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ana shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi. Fermer xo'jaligining boshlig'i shu xo'jalikning muassisi – fermerdir. Qonunga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo'lgan shaxs fermer bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligining huquq subyektligi unga berilgan huquq va majburiyatlar doirasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni talab etadi. Qonunga asosan fermer xo'jaligi yuridik shaxsning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Fermer xo'jaligi tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lib, u tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun shu maqsadlarga monand tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir.

«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga muvofiq, Fermer xo'jaligi o'z ustavida va yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga muvofiq faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi bilan, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanishga haqli.

Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulot sifatiga oid normativlar va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga taalluqli hamda qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa talablar va qoidalarga rioya etishi shart.

Fermer xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek, ularning mansabdor shaxslari aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlarning g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining va fuqarolarning g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Shuningdek, fermer xo'jaligi tashqi iqtisodiy faoliyatni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Fermer xo'jaligi boshqa shakllarda xo'jalik faoliyati yurituvchi tijoratchi korxonalar bilan teng huquqlarga ega. Fermer xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida bir qator huquqlarga egadir, ya'ni:

- berilgan yer uchastkasida o'z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga va ijaraga olish shartnomasiga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;

- ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish;

- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;

- yetishtirgan mahsulotini, shu jumladan, bu mahsulotni iste'molchilarga realizatsiya qilish huquqini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish;

- yetishtirayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga narx belgilash;

- elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari yetkazib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi yuzasidan shartnomalar tuzish;

– tadbirkorlik faoliyatidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

– olgan daromadlarini (foydasini), bank muassasasidagi o‘zining hisobvaraqlarida bo‘lgan pul mablag‘larini tasarruf etish;

– aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar olish;

– kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini hamda boshqa mol-mulkini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirish;

– kreditlar olish uchun o‘z mol-mulkini, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo‘yish;

– kichik hamda xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlar va preferentsiyalarning barcha turlaridan foydalanish;

– zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijaraga olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta‘mirlash;

– o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish.

Fermer xo‘jaligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin (Qonunning 16-moddasi).

Fermer xo‘jaligi muayyan huquqlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda qonun bilan belgilangan tegishli majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi. Xususan, fermer xo‘jaligi:

– yer uchastkasidan qonun hujjatlarida va ijaraga olish shartnomasida ko‘rsatilgan shartlar asosida, belgilangan maqsadda, samarali va oqilona foydalanilishini ta‘minlashi;

– ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etishi;

– yer uchastkasining meliorativ holatini yaxshilash, uning unumdorligini saqlab qolish va oshirish tadbir-choralarini ko‘rishi, biznes-rejada shu maqsad uchun mablag‘lar ajratilishini nazarda tutishi;

– agar ijaraga olish shartnomasida boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, yer uchastkasi berilgan vaqtdan e‘tiboran bir yil ichida undan foydalanishga kirishishi;

– tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsuloti nazarda tutilgan hajmlarda yetkazib berilishini ta‘minlashi;

– g‘o‘za va don ekinlarini navlar bo‘yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya etishi;

– suv resurslaridan suvdan limit bo‘yicha foydalanish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq foydalanishi;

– xo‘jalik ichidagi meliorativ tarmoqni tozalab va ta‘mirlab turishi;

– yer uchastkasini saqlash shartlariga va servitutlarga rioya etishi;

– o‘z xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlashi;

– soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z vaqtida to‘lashi;

– qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishda agrotexnika talablariga rioya etishi;

– qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan muhofaza qilinishini ta‘minlashi shart.

Fermer xo‘jaligi zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin (Qonunning 17-moddasi).

Fermer xo‘jaligi huquqiy holatida ularning mulkiy mustaqilligiga ega ekanligi yuridik shaxs sifatida eng muhim belgilardan biri bo‘lib, ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Fermer xo‘jaligining mulk huquqi davlat himoyasidadir.

Qonunga ko‘ra (19-modda), binolar, inshootlar, qishloq xo‘jaligi ekinzorlari va ko‘chatzorlari, dov-daraxtlar, chorva mollar, parrandalar, yetishtirgan mahsulotiga, qishloq xo‘jalik texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag‘lari, intellektual mulk obyektlariga, shuningdek fermer xo‘jaligining balansidagi boshqa mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi fermer xo‘jaligiga qarashlidir.

Fermer xo‘jaligi boshlig‘ining pul va moddiy mablag‘lari, tovarlarni realizatsiya qilishdan (ishlar bajarishdan, xizmatlar

ko'rsatishdan) olingan daromadlar (foyda), qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlar, qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar fermer xo'jaligining mol-mulkini shakllantirish manbalari bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, olish, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun realizatsiya qilish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar bilan xo'jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda taraflar qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Fermer xo'jaligi yetishtirayotgan mahsulotning eksportga yetkazib berilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat fermer xo'jaliklarining huquqlariga rioya etilishini va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Qonun talabiga muvofiq, davlat organlari fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashishlari shart.

Unga ko'ra, Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

– ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik obyektlari bo'lmagan hududda fermer xo'jaliklari tashkil etilganida mazkur hududni birlamchi obodonlashtirishni (yo'llar, elektr uzatish va aloqa liniyalari qurishni, suv bilan ta'minlashni, gazlashtirishni, telefonlashtirishni, radiolashtirishni, yer tuzishni, yerlarni melioratsiyalashni) amalga oshiradilar;

– ishlab chiqarish obyektlari va turar joylarni barpo etishda fermer xo'jaliklariga yordam ko'rsatadilar;

– qishloq xo'jalik ekinlarining navli urug'lik hamda ko'chatlari, organik va mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalardan, kasalliklar hamda begona o'tlardan himoya qilish vositalari yetkazib berish yuzasidan davlat agrotexnika xizmati

ko'rsatish tizimi orqali xizmatlar, shuningdek, texnikaviy xizmat ko'rsatadilar;

– qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskunalar va inventarlarni lizing asosida sotib olishga ko'maklashadilar;

– zotdor chorva mollar va parrandalar, shuningdek, omixta yem sotib olishda ko'maklashadilar;

– fermer xo'jaliklarining chorva mollariga zooveterinariya xizmati ko'rsatilishi uchun zarur sharoitlar yaratib beradilar;

– fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotini tayyorlash va realizatsiya qilishda ko'maklashadilar;

– noqishloq xo'jalik yo'nalishidagi ishlab chiqarishlarni tashkil etayotgan fermerlarni rag'batlantiradilar;

– konsalting, axborot yo'sinidagi va boshqa xil xizmatlar ko'rsatadilar.

Xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllari ham fermer xo'jaliklari faoliyatiga tatbiq etiladi.

Qonunning 30-moddasi talabiga muvofiq, fermer xo'jaligi faoliyatini tekshirish cheklangan. Fermer xo'jaligi faoliyatini tekshirish, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot realizatsiya qilish shartnoma majburiyatlari bajarilmagan yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligiga dalillar bo'lgan, shuningdek, yagona yer solig'i o'z vaqtida to'lanmagan hollarda, ijaraga olish shartnomasiga muvofiq ijaraga berilgan yer uchastkasidan faqat belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish masalalari bo'yicha, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat organlari va boshqa organlar hamda tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining va fuqarolarning g'ayri qonuniy xatti-harakatlari (qarorlari natijasida), shuningdek bunday organlar, tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining fermer xo'jaligiga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmasliklari oqibatida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Fermer xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha qonunlarga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi. Umumiy qoidaga asosan, davlat fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha, fermer xo'jaligi esa davlat majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

II

Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunning 8-moddasiga muvofiq, fermer xo'jaligi ustav asosida faoliyat ko'rsatadi. Fermer xo'jaligining namunaviy ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qaroriga 6-ilova bilan Fermer xo'jaligining Namunaviy Ustavi¹ qabul qilingan bo'lib, faoliyat yuritayotgan va tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari o'z ustavlarini ana shu Namunaviy ustav asosida ishlab chiqadilar. Namunaviy Ustavda quyidagi masalalar ko'zda tutilgan:

Umumiy qoidalar, Fermer xo'jaligining maqsadi, vazifalari va faoliyati, Fermer xo'jaligining huquq va majburiyatlari, Fermer xo'jaligining ustav fondi, mol-mulki va uni shakllantirish manbalari, Fermer xo'jaligini boshqarish, Fermer xo'jaligida yerdan va suvdan foydalanish, Fermer xo'jaligida mehnat, Fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari, Daromad (foйда)ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi, Fermer xo'jaliklarining birgalikdagi faoliyati, Fermer xo'jaligi faoliyati natijalarini hisobga olish va nazorat qilish, Fermer xo'jaligini qayta tashkil etish va tugatish.

Ustavda, Fermer xo'jaligi rahbari fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha fermer xo'jaligining mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq o'ziga tegishli mol-mulki bilan subsidiar javobgar bo'lishi mustahkamlangan.

Ustavda:

¹ Mazkur Namunaviy Ustavga O'zR VM 24.12.2004-yil 607-sonli Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

- fermer xo‘jaligining nomi;
- fermer xo‘jaligi rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- fermer xo‘jaligi joylashgan joy va uning pochta manzili;
- fermer xo‘jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari;
- ustav fondining miqdori ko‘rsatilishi kerak.

Fermer xo‘jaligining ustavida qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa qoidalar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Fermer xo‘jaligining ustavi qonunda belgilangan tartibda o‘zgartirilishi mumkin hamda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan tuman (shahar) hokimligida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish yo‘li bilan daromad (foyda) olish, o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish Ustavga ko‘ra fermer xo‘jaligining maqsadi hisoblanadi.

Ustavda fermer xo‘jaligining pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, binolar, inshootlar, boshqa mol-mulk yoki pul bahosidagi mulkiy huquqlardan hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan ustav fondi miqdori ko‘rsatiladi. Agar fermer xo‘jaligi rahbari fermer xo‘jaligining ustav fondini shakllantirishda uning oilasining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mol-mulkini fermer xo‘jaligiga bergan taqdirda, ushbu mulk barcha egalarining notarial tasdiqlangan roziligini olish talab qilinadi.

Fermer xo‘jaligining ustav fondini ko‘paytirish yoki kamaytirish fermer xo‘jaligi rahbarining qaroriga ko‘ra fermer xo‘jaligi ustaviga o‘zgartirish kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Fermer xo‘jaligining rahbari:

- fermer xo‘jaligi ustavini qabul qiladi va unga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritadi;
- fermer xo‘jaligi faoliyatining biznes rejasini tasdiqlaydi;
- fermer xo‘jaligi faoliyatini tashkil qiladi;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda fermer xo‘jaligi nomidan ish ko‘radi;
- ishonchnomalar beradi, shartnomalar tuzadi va ularning bajarilishini ta‘minlaydi, shuningdek fermer xo‘jaligi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini imzolaydi;

- fermer xo‘jaligi xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- ichki mehnat tartibi qoidalarini belgilaydi;
- daromadni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etadi;
- xodimlarning xavfsiz hamda unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratib beradi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat daftarchalari yuritilishini tashkil etadi, ish haqi to‘lanishini ta‘minlaydi, mehnatga haq to‘lash miqdorini va moddiy rag‘batlantirish usullari va intizomiy jazo choralarini belgilaydi;
- fermer xo‘jaligi nomidan hujjatlarni imzolaydi;
- fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish va tugatish masalalarini hal etadi.

Fermer xo‘jaligi o‘z faoliyatining natijalarini hisobga olib boradi hamda mahalliy statistika va soliq organlariga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi. Fermer xo‘jaligi tekshirish huquqini beruvchi tegishli hujjat ko‘rsatilishini talab qilish, tekshiruvchilarning o‘z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha talablarini bajarmaslik va ularni tekshirish mavzusiga tegishli bo‘lmagan materiallar bilan tanishtirmaslikka haqlidir.

III

Fermer xo‘jaligini tashkil etish va yuritish tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatida eng muhim narsa reja, hisob-kitob asosida ish olib borishdir. Bozor sharoitida fermer xo‘jaliklari faoliyatini rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirish asosini esa biznes-reja tashkil etadi. Shuning uchun rejalashtirish va biznes-reja fermer xo‘jaligini yuritishda muhim ahamiyatga ega. Fermerning **biznes-rejasi** – bu korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini ma‘lum bir muddat davomida amalga oshirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlar, korxonaning maqsadi va bozor talabini muvofiqlashtiruvchi, korxonaning yuqori darajada foyda olishini ta‘minlash borasidagi yozma dasturidir.

Biznes-reja odatda qat'iy hisob-kitoblarga asoslangan hujjat bo'lib, mavjud bozorlar holatini yaxshi tahlil qilib va o'z maqsadlarini aniq ravshan ko'z oldiga keltira biladigan, fermer xo'jaliklari rahbarlari tomonidan mustaqil ravishda yoki mutaxassislar va maslahatchilarni jalb etgan holda ishlab chiqiladi.

Fermer xo'jaliklarida biznes-rejalar tuzish qisqa ko'rinishda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Fermer xo'jaligining manzili, aloqa uchun boshqa rekvizitlari ko'rsatiladi.

2. Ishlab chiqarish faoliyatining maqsadi va vazifalari aniq va ravshan, o'qiganda hamma tushunadigan, sodda tilda yoritilishi talab etiladi.

Shuningdek, biznes rejada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi, turlari, ularni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar va olinishi kutilayotgan daromadlar miqdori ko'rsatib o'tiladi. Ishlab chiqarishga jalb qilingan o'z mablag'lari va sarmoyadorlar mablag'lari miqdorining o'rni, qaytarish muddatlari haqida umumiy axborot beriladi.

Biznes-reja tuzish va uni amalga oshirishning muhimligi – u ishlab chiqaruvchining o'z imkoniyatlariga har tomonlama baho berishi, qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini aniq hisob-kitoblar asosida ko'z oldiga keltirishi, aynan oldindan tuzilgan biznes-rejalar orqali yuzaga kelib, rejaning muvofaqqiyatli amalga oshirilishi korxonaning rivojlanishi yoki aksincha inqirozga yuz tutishini belgilab beradi.

Biznes reja:

– fermer uchun o'z oldiga quygan maqsadlari va bajarayotgan ishlarini har tomonlama mayda iker-chikirlarigacha tahlil qilishga undaydi, chunki biznes-reja tuzish mavjud imkoniyatlarga baho berish va kelajakka nazar tashlashga majbur qiladi;

– yaxshi tuzilgan biznes-reja fermer uchun kelgusi faoliyati davomida qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Biznes-rejadan to'g'ri va malakali foydalanish korxonani samarali boshqarish va ko'zlangan maqsadga erishishiga real imkoniyatlar tug'diradi;

– fermer tomonidan yaxshi tuzilgan biznes-reja birinchi navbatda xo'jalikning xodimlari uchun, so'ngra korxonada faoliyati bilan

qiziquvchi mijozlar va jamoatchilik uchun, korxonaga moliyaviy mablag'lar sarflab foyda qilishni ko'zlayotganlar (masalan, banklar) uchun rejalashtirilgan ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va daromadlilikini asoslovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Ayni shu jihatdan qishloq, xo'jaligi korxonalarida biznes-rejalarni to'g'ri va asosli tarzda ishlab chiqish ahamiyatlidir. Ishlab chiqarilgan reja natijalari fermer uchun amalga oshirilishi kutilayotgan faoliyat muvaffaqiyatlar keltirishi yoki xo'jalikning inqirozga olib kelishini iqtisodiy, hisob-kitoblar asosida ko'rsatib beradi va kelajagi noaniq bo'lgan faoliyatdan voz kechish lozimligini ko'rsatadi.

Fermer qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritadi. Bu sohaning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni ishlab chiqarish natijalarining bir yilda bir marotaba faqat yil oxirida paydo bo'lishi, tabiatning xavf-xatar va injiqliklariga bog'liqligi, yil davomida ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar sotib olish uchun qisqa muddatli kreditlarga zaruratni keltirib chiqaradi. Ushbu holatda moliyaviy idoralar va banklar uchun kreditlar ajratishda zarur bo'ladigan, korxonaning kreditlarni qaytara olish qobiliyatining kafolati ayni biznes-rejalardagi hisob-kitoblariga asoslanadi. Biznes rejaga asosan korxonaning imkoniyatlari to'g'risida barcha axborotlar bo'yicha baho beriladi. Biznes-reja ishlab chiqish bo'yicha respublikamiz fermer xo'jaliklari uchun bugungi kunda aniq tartibga tushirilgan tizim mavjud emas. Amaliyotda biznes-reja fermer xo'jaliklari tomonidan bank muassasalaridan kredit olish maqsadida tuzilmoqda. Afsuski, mahsulot ishlab chiqarish yoki fermer xo'jaligining uzoq yillik faoliyati uchun biznes rejalar ishlab chiqilayotgani yo'q. Shu sababli biznes-rejalar tuzish borasida fermerlar malakasini oshirib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Nazorat savollari:

- 1) Fermer xo'jaligini kim boshqaradi?*
- 2) Fermer xo'jaliklari davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlanadimi?*
- 3) Fermer xo'jaligi faoliyatida uning Ustavini ahamiyati bormi?*
- 4) Biznes-reja nima va u kim tomonidan tuziladi?*

IX BOB. FERMER XO'JALIGI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY TARTIBI

REJA:

1. *O'zbekiston Respublikasi agrar islohotlarida fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish va kredit bilan ta'minlashni takomillashtirish masalasi.*
2. *Fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish.*

I

Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirib kelinayotgan iqtisodiy islohotlar, u yerdagi xususiylashtirish jarayonlari, fermerlik harakatini keng avj oldirilayotganligi, dehqonda xo'jayinlik tuyg'usi va tafakkurini shakllantirishiga oid chora-tadbir bu sohani yuksaltirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarinigina ko'paytirishga erishish bilan cheklanilmasdan, uning sifatini yaxshilash tannarxini pasaytirishi, zamonaviy agrotexnikalarni hamda texnika vositalarini joriy qilish orqali jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakatimizda yetishtirilayotgan xilma-xil qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqilishiga erishish va shu asosda dehqon farovonligini, mamlakat iqtisodiy qudrati hamda xalqaro obro'-e'tiborini oshirish maqsadiga qaratilgandir.¹

Qishloq xo'jaligi korxonalarini oldiga qo'yilgan yuksak maqsad va vazifalarni amalga oshirilishida ularning moliyaviy faoliyatini huquqiy tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega. Chunki oqilona moliyaviy faoliyat yuritilishi, mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanilishi, ularning hisob-kitoblarini o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq amalga oshirilishi, davlat soliq idoralari, bank muassasalari, mahalliy

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-martdagi PK - 26 - sonli «Eksport - import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2005-yil. 10 - 11 - son. 72-modda.

davlat hokimiyat organlari bilan moliyaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yilishi shartnomaviy sheriklar bilan hisob-kitoblarni shartnoma talablari to'la ado etilgani holda amalga oshirilishi, korxonada ehtiyojlari uchun moliyaviy mablag'lardan unumli va to'g'ri foydalanilishi, moliyaviy va buxgalteriya hisob-kitoblarini to'g'ri amalga oshirilishi ular muvafaqiyatlarining asosiy shartlaridan bo'lib sanaladi.

Fermer xo'jaliklari ham tadbirkorlik subyektlarini bir turi sifatida¹ o'z moliyaviy faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi,² «Buxgalteriya hisobi va hisobatlari to'g'risida»gi,³ «Statistika to'g'risi»gi⁴ qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari,⁵ Vazirlar Mahkamasining qarorlari,⁶ idoraviy me'yoriy hujjatlar asosida yo'lga qo'yadilar. Ularning moliyaviy faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi,⁷ Soliq kodeksi⁸ kabilar ham muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida tadbirkorlarning boshqa subyektlari singari zamonaviy, bozor tamoyillariga mos keluvchi bank xizmatlarisiz muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari mumkin emas.

¹ O'zbekistonning yangi qonunlari. №23, -T.: «Adolat», 2001-yil.

² O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2004-yil, 40 - 41 - son, 433 - modda.

³ O'zbekistonning yangi qonunlari. № 14, -T.: «Adolat», 1996-y.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2002-y, №24, 260 - modda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot taxmini takomillashtirish va uni ma'qullab taqdim etganligi uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi qarori. O'zbekiston Qonun hujjatlari to'plami. №23 - 24, 168 - modda.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 20-yanvardagi 211 - sonli «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotish bo'yicha ulgurji bozor tizimini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risida»gi qarori. O'zbekiston Qonun hujjatlari to'plami. 2005-yil. №37 - 38. 287 - modda.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -T.: «Adolat», 2003-yil.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004-yil.

Mamlakatda pul muomalasini tartibga solinishi va muomaladagi naqd pul massasini talablar darajasiga to'la mos kelishini ta'minlash, pul qadrsizlanishi jarayonlarini to'xtatib turish, yuridik va jismoniy shaxslar vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini bankka jalb etish va ularni iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari uchun investitsiya qilinishini ta'minlash, yuridik va jismoniy shaxslarning naqd pul summalariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish – tijorat banklari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosati ishlab chiqilishi hamda ro'yobga chiqarilishi chog'ida tijorat banklari imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish va ularning malakatimizdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, aholi moddiy-turmush sharoitlarini yuksaltirishga samarali ta'sirini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar ko'rilmogda.

Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni zarur mablag'lar bilan ta'minlash, milliy valyutamiz – so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan qadr-qimmatini bir maromda saqlab turish aholining talab ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizmlardan bo'lib – yuridik va jismoniy shaxslar bo'sh pul mablag'larini bank omonatiga jalb qilish hamda mazkur jalb qilingan mablag'lardan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida omilkorlik bilan foydalanish – ularni kreditlar shaklida berish yo'li bilan xalq xo'jaligini sarmoyalash hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kredit munosabatlari vositasida turli manbalar hisobiga jamg'arilgan mablag'lar iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni hal etishga jalb etiladi, muayyan xalq xo'jaligi vazifalari hal etiladi.

Kredit operatsiyalari tijorat banklari faoliyatida asosiy o'rinlardan birini egallaydi va bank uning vositasida yuridik hamda jismoniy shaxslarning omonatga jalb etilgan mablag'lari, o'z mablag'lari hamda tashkil etilgan maqsadli davlat mablag'lari hisobiga tadbirkorlik subyektlariga, fuqarolarga turli ko'rinishlardagi

kreditlar berish, evaziga foizlar olish orqali tijorat faoliyatini amalga oshiradi.

Davlat o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosati ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish uchun muayyan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish bilan shug'ullanadi. Ana shunday qo'llab-quvvatlash shakllaridan biri – tegishli sohani imtiyozli shartlarda tijorat banklari orqali kredit bilan ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-avgustdagi «Iqtisodiyotni kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 349-sonli, 2003-yil 4-fevraldagi «Pul-kredit ko'rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 63-sonli, 2003-yil 23-dekabrda «Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi 563-sonli qarorida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2004-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan jami 354 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilgan bo'lib, uning 249 mlrd. so'mi yoki 70,3 foizi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etdi. Shu hisobdan mamlakatda 81 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bugungi kunda (2005-yil 1-yanvar holatiga ko'ra) respublikamizda 32 ta tijorat banki ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, ularning 2 tasi davlat banki, 14 tasi aktsiyadorlik-tijorat banki, 5 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi banklar, 10 tasi esa xususiy banklardan iborat. 2004-yilda O'zbekistonda 6 ta yangi kredit uyushmalari ro'yxatga olinib, ularning umumiy soni 20 taga yetdi.

Kredit munosabatlarini amalga oshirishning asosiy huquqiy shakli kredit shartnomasi tuzishdir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 744-moddasiga muvofiq:

«Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi taraf — qarz oluvchiga shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi. Kredit shartnomasi bank amaliyotida bank ssudasi (qarzi) shartnomasi deb ham yuritiladi.

Bank krediti shartnomasi oddiy qarz shartnomasidan o'z subyektlari va obyektlari doirasi bilan farq qiladi. Eng avvalo, kredit shartnomasida qarz beruvchi bo'lib tegishli vakolatga (litsenziyaga) ega bo'lgan banklar va boshqa kredit tashkilotlari (masalan, jamg'armalar, sug'urta tashkilotlari)gina qatnasha olishi mumkinligi, ikkinchidan, bu shartnomaning krediti faqat pul (o'zbek so'mlaridagi yoki chet el valyutasidagi) mablag'larigina bo'lishi mumkinligi qayd etilmog'i lozim.

Kredit shartnomasi haq barobariga, qaytarilishi sharti bilan, oldindan kafolatlanish yo'li bilan, maqsadli shaklda tuziladi. U bir tomonlama, real tuziladi. Tomonlar kelishuviga ko'ra yoki qonunda bevosita ko'rsatilgan hollarda bu shartnoma tekin (foiz olinmasdan) tuzilishi ham mumkinligi qonunda ko'zda tutilgan.

Fuqarolik kodeksining 745-moddasiga ko'ra kredit shartnomasi yozma tuzilishi shart. Yozma shartnomaga rioya qilmaslik uning haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi. Ko'pchilik hollarda har ikkala tomon imzolaydigan yagona hujjat shaklidagi shartnoma tuziladi. Ammo ayrim hollarda qarz oluvchi bu haqda yozma ariza va o'z iltimosini asoslovchi hujjatlar (texnik-iqtisodiy asoslar, biznes reja) bilan murojaat qilishi mumkin. Bank ariza va taqdim etgan hujjatlarni, kredit olish shartlarini, qarz oluvchining to'lov qobiliyati, kredit olinayotgan loyiha tavakkalchiligi olinadigan foyda hajmi, kredit kafolatlari va boshqa holatlarni hisobga olgan holda kredit berish yoki iltimosni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Ayrim tarmoqlar bo'yicha yoki ayrim obyektlar bo'yicha kredit bilan ta'minlashning o'ziga xos qoidalari alohida me'yoriy hujjatlar

bilan tartibga solinadi. Masalan, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1999-yil 9-oktabrda tasdiqlangan 330-sonli «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan uzoq va o'rta muddatli kredit bilan ta'minlashni tashkil etish» qoidalari, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermerlik xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa subyektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash tartibi» 2000-yil 7-martda 907 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan. «O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni moliyalash va kredit bilan ta'minlash tartibi», «Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan kredit liniyasi ochilganida tijorat banklari tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarini kredit bilan ta'minlash tartibi», O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa bir qator manfaatdor vazirliklar hamda idoralar tomonidan 1998-yil 20-iyulda tasdiqlangan «Byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo'li bilan kichik va o'rta biznes subyektlarini kredit bilan ta'minlash tartibi» va boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998-yil 22-avgustda «Banklarga lombard kredit berish tartibi to'g'risida nizom» tasdiqlangan.

Kredit berilish usullari, ular uchun olinadigan foiz haq miqdori va uning to'lanishi, kreditdan foydalanish tartibi, muddati kelgan kreditni qaytarish tartiblari o'z vaqtida qaytarilgan kredit uchun javobgarlik choralarini qo'llanilishi masalalari fuqarolik kodeksida, bank qonunchiligida va boshqa me'yoriy hujjatlarda hamda kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan.

Bank krediti berilishi paytida uning qaytarilishini ta'minlash choralari (garov, ipoteka), uni qo'llash tartib va shakllari hamda oqibatlar ham amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan.

Ashyolarni kreditga berish va tijorat krediti (muayyan mahsulot yoki ish uchun pul to'lashni kechiktirib berishga oid masalalar) tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan.

nonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik tlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning dan kreditlash tartibi shu haqdagi Nizom bilan

uvofiq yakka tartibdagi tadbirkor mikrofirma ra mikrokreditlar, dastlabki (start) kapitalini lari uchun kreditlar beriladi. Nizomda kredit atlari, eng ko'p miqdorlari va berilish tartiblari

ga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda, yer lgan holda kredit berish tartiblari joriy etilgan. redit berish tartiblari va olingan kreditni tegishli normativ huquqiy hujjatlarda nazarda

z mijozlariga kredit berish yuzasidan tegishli p chiqishlari hamda uni og'ishmay ro'yobga

plikasi Markaziy banki tomonidan 2000-yil 22- klari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan izom» tasdiqlangan. (O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 2-martda 905-son bilan ro'yxatga

ning qonun hujjatlariga to'la mos tarzda to'g'ri g qaytarilishini, bank manfaatlari buzilmasligi baza yaratilishiga, bank mijozlari huquqlari lishiga sabab bo'ladi.

II

o'tkazilayotgan agrar islohotlarda qishloq shida fermer xo'jaliklari salmog'ini oshirish in faoliyat yuritishlari uchun barcha shart- siy vazifa sifatida belgilangan. O'zbekiston tining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli

«2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»¹gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli «2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»²gi qarori mamlakatimizda fermerlik harakatini takomillashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu huquqiy hujjatlarda fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirish masalalariga katta e‘tibor qaratilib, tirojat banklari kredit resurslaridan shu maqsadda foydalanilishiga keng yo‘l ochib berildi.

Respublikamizda fermer xo‘jaliklarini kreditlashga qaratilgan qator huquqiy hujjatlarni mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni amalda qo‘llash muammo edi. Chunki, ko‘plab fermer xo‘jaliklari kreditni qaytarilishini ta‘minoti sifatida garovga qo‘yiladigan mol-mulkga ega emas edi. Aytishimiz mumkinki, bugungi kunga kelib, bu muammo ijobiy hal etildi.

Markaziy banki Boshqaruvining 2004-yil 1-martdagi 563-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklariga bo‘lg‘usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to‘g‘risida Nizom»³ fermer xo‘jaliklarini bo‘lg‘usi hosilni garovga olgan holda kreditlashni ko‘zda tutadi. Ta‘kidlash kerakki, ushbu Nizom kreditlar faqatgina davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida berilishini ko‘zda tutadi.

Bundan davlat ehtiyoji uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirib bermaydigan fermer xo‘jaliklarga tijorat banklari tomonidan kreditlar berilmaydi degan tushuncha kelib chiqmasligi lozim. Ularni kreditlash Markaziy bankning 2000-yil 7-martda 907-

¹ Norma.

² O‘sha manba.

³ Shu manba.

son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklari, shuningdek, kichik biznes subyektlarini milliy valyutada kreditlash Tartibi» asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida Nizom fermer xo'jaliklari uchun qanday qulayliklarni yaratadi? Ma'lumki, 2004-yildan boshlab tajriba tariqasida 8 ta viloyatda Moliya vazirligi huzuridagi davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan g'alla va paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Ushbu kreditlar miqdori fermer xo'jaliklari va tayyorlov idoralari o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi summasining 50 foizi miqdorida belgilangandir (O'zR Moliya vazirligi va O'zR markaziy banki boshqaruvining 2003-yil 8-noyabrdagi 124, 242-V-son qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom»ga asosan).

Bozor qonunlari hukm surayotgan hozirgi sharoitda fermer xo'jaliklari xarajatlarini to'laligicha moliyalashtirish uchun qo'shimcha mablag'ga ehtiyoj vujudga kelishi tabiiydir. Ushbu Nizomni amalga kiritilishi munosabati bilan fermer xo'jaliklari g'alla va paxta yetishtirish uchun talab etiladigan qo'shimcha xarajatlarni qoplash maqsadida bankdan bo'lg'usi hosilni garovga qo'ygan holda qo'shimcha ravishda kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunda, Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan fermer xo'jaliklariga g'alla yetishtirish uchun «O'zdonmahsulot» tayyorlov korxonalarini bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi summasining 30 foizigacha miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan fermer xo'jaliklariga kontraktatsiya shartnomasi summasining 80 foizigacha miqdorida kredit berilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Shuningdek,

jamg'arma kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olgan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari qo'shimcha ravishda kontraktatsiya shartnomasi summasining 20 foizi miqdorida, ushbu kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olmagan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari esa kontraktatsiya shartnomasi summasining 70 foizigacha miqdorda kredit olishlariga imkoniyat berildi.

Ushbu kreditlar Nizomda belgilangan shartlar asosida kreditni qaytarishga qodir bo'lgan qarz oluvchilarga shartnoma asosida 1,5-yilgacha (18 oy) bo'lgan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i joylashgan manzil bo'yicha beriladi. Ta'kidlash joizki, bo'lg'usi hosilni garovga olib beriladigan kreditlar tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan ajratiladi. O'z navbatida kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari miqdori qarz oluvchi (fermer xo'jaligi) va bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra kredit shartnomasi asosida belgilanadi.

Tijorat banklarining bo'lg'usi hosilni garovga olib beriladigan kreditlari qarz oluvchilarga (fermer xo'jaliklariga) quyidagi maqsadlar uchun beriladi: qishloq xo'jaligi texnikasi, ehtiyot qismlar va uskunalarni xarid qilish; yonilg'i-moylash materiallarini xarid qilish; mineral o'g'it, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari, veterinariya dori-darmonlari sotib olishga, MTP, muqobil MTP, shirkat xo'jaliklari, SFU (Suvdan foydanuvchilar uyushmasi), boshqa xo'jalik subyektlari xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lovlar; bevosita g'alla va paxta xom ashyosi ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar uchun.

Qarz oluvchilar olingan qarzdin faqatgina yuqoridagi maqsadlarda foydalanishlari shart.

Kredit olish uchun fermer xo'jaligi uning asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- kredit olish uchun ariza;
- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari nusxalari;

– pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko‘rsatilgan biznes-reja;
– oxirgi hisobot sanasiga Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi (1-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma’lumotnoma (2a-shakl), shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl).

– kreditni qaytarish ta’minoti.

Olinadigan kreditning qaytarish ta’minoti sifatida qarz oluvchi bankka o‘ziga uzoq muddatga ijaraga berilgan yerdan joriy yilda olinadigan bo‘lg‘usi hosilni ta’minot sifatida taqdim etadi.

Bunda bank va fermer xo‘jaligi o‘rtasida bo‘lajak hosilni garovi shartnomasi imzolanadi. Shartnomada garovga qo‘yilgan hosilni «O‘zdonmahsulot» va «Paxtasanoat» tayyorlov korxonalariga va boshqa xo‘jalik subyektlariga sotishdan tushgan barcha pul mablag‘lari birinchi navbatda ushbu kreditlar va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lashga yo‘naltirilishi to‘g‘risidagi shartlar belgilab qo‘yiladi.

Bo‘lg‘usi hosilni kredit olish uchun bankka garov sifatida taqdim etishning yana bir muhim sharti – bu fermer xo‘jaligi tomonidan bo‘lg‘usi hosilni kredit bergan bank – benefitsiar foydasiga ixtiyoriy sug‘urta qilinishi borasidagi talabdir.

Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklarining kredit so‘rab bergan arizalarining ko‘rib chiqilishini paysalga solinishini oldini olish maqsadida, talab qilingan hujjatlar bankka kelib tushgan kundan boshlab, ushbu arizani ko‘rib chiqish, ya’ni kredit berish yoki rad qilish haqida xulosa berish muddati 10 ish kunidan oshmasligi lozimligi haqidagi talab Markaziy bank tomonidan Nizomga kiritilgan.

Tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoring amalga oshiriladi va u qarz oluvchi tomonidan uning loyihasi va kredit shartnomasi shartlarining amalga oshirilishiga har tomonlama ko‘maklashishga qaratiladi. Banklar tomonidan monitoring amalga oshirilish tartibi, berilgan

kreditlar boshqa maqsadlarda ishlatilgan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari kredit shartnomasida belgilab qo'yiladi.

Monitoring jarayonida fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirilayotgan ekinlar holati va ularni parvarishlash bo'yicha zarur agrotexnika ishlarining o'tkazilishi va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanish bo'yicha joylarga borib o'rganishlar o'tkazib turiladi. Ekinlar (to'liq yoki qisman) mavjud bo'lmagan yoki ular ahvolining qoniqarsizligi, jumladan, agrotexnika tadbirlarining muddatida amalga oshirilmaslgi, ekin maydonini begona o'tlar bosib ketgani, sug'orilmaganlik natijasida ekinlarni nobud bo'lish xavfi vujudga kelgani va shunga o'xshash holatlar sababli yetarli hosil to'planmasligi xavfi vujudga kelsa, bank kreditlashni to'xtatadi hamda berilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirib oladi. Ushbu holatlar kredit shartnomasida kelishib olingan bo'lishi lozim.

Shuningdek, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ularni undirish oyda bir marta, kredit shartnomasida kelishilgan sanada amalga oshiriladi. Olingan kredit bo'yicha hisoblangan foizlarning qoldig'i va asosiy qarz to'lovi qarz oluvchining maxsus 23210, 23220-sonli hisobvaraqlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda hisoblangan foizlar kredit bo'yicha qarzdin oldin undirib olinadi.

Nizomga ko'ra, fermer xo'jaliklari kredit bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatdan oldin qaytarish huquqiga egalard.

Agar qarzdor tomonidan yetishtirilgan hosilni sotishdan tushgan mablag'lar va uning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'laridagi mablag'lari bank kreditini va hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga yetarli bo'lmagan taqdirda, bank bo'lg'usi hosilni sug'urtasi to'lovidan olingan mablag'larni kreditni va hisoblangan foizlar to'lovini amalga oshirishga yo'naltiradi.

Hosilni sotishdan hamda sug'urta to'lovlaridan tushgan mablag'lar hisoblangan foizlar va kreditni qaytarishga yetmagan taqdirda bank tomonidan kredit va hisoblangan foiz qoldig'i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabridagi 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi»da belgilangan tartibda undirib olinadi.

Ushbu nizomda ham fermer xo'jaliklari manfaatlari, ham tijorat banklari manfaatlari ko'zda tutilgan. Uning amalda qo'llanilishi fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish borasida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Nazorat savollari:

- 1) *Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari va dolzarb muammolari nimalardan iborat?*
- 2) *O'zbekiston Respublikasi agrar islohotlarida fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish va kredit bilan ta'minlashni takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar?*
- 3) *Fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berishni huquqiy tartibi deganda nimani tushunasiz?*

X BOB. FERMER XO'JALIGIDA MEHNAT MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

REJA:

- 1. Fermer xo'jaligida mehnat va uni huquqiy tartibga solish.*
- 2. Fermer xo'jaligida mehnat muhofazasi.*

I

«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 23-moddasiga va Namunaviy Ustavning VII bandi talablariga asosan, Fermer xo'jaligi va uning xodimlari o'rtasidagi mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi. Fermer xo'jaligida mehnat shartnomasini tuzish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mehnat kodeksining 1-moddasida ko'rsatilishicha, «mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi».

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga Mehnat Kodeksi, Mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Jo'qorg'i Kenges qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Hukumatining qarorlari, davlat hokimiyatining boshqa vakillik va ijroiya organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-son qarori¹ ga 9-ilova Fermer xo'jaligi xodimlarini

¹ Norma.

yollash to'g'risida Namunaviy shartnoma tasdiqlandi. Bugungi kunda fermer xo'jaligidagi mehnat munosabatlari ushbu shartnoma asosida tartibga solinmoqda.

Shartnomada, fermer xo'jaligi joylashgan tuman, shartnoma soni, muddati va fermer xo'jaligi nomi ko'rsatiladi. Mehnat shartnomasi «ish beruvchi» va «xodim» tomonidan tuziladi.

Shartnomada xodim qaysi mutaxassislik (razryad ko'rsatiladi) bo'yicha qanday lozimiga (asosiy ish bo'yicha, o'rindoshlik bo'yicha) qabul qilinishi, shartnoma muddati (muayyan muddatga, belgilanmagan muddatga), shartnoma bo'yicha ishning boshlanishi (yil, kun, oy) ko'rsatiladi.

Qonunga muvofiq, mehnat shartnomasida tomonlar («ish beruvchi» va «xodim»)ning huquq va majburiyatlari ko'rsatilishi shart.

Mehnat kodeksining 16-moddasida xodimning asosiy mehnat huquqlari mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxs mehnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat shartlari asosida ishlash va qonunda belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir.

Har bir xodim:

– o'z mehnati uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda haq olish;

– muddatlari chegarasi belgilangan ish vaqtini o'rnatish, bir qator kasblar va ishlar uchun ish kunini qisqartirish, har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek, haq to'lanadigan yillik ta'tillar berish orqali ta'minlanadigan dam olish;

– xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish;

– kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– ish bilan bog'liq holda sog'lig'iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash;

– kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga birlashish;

– qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish;

– o‘zining mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish;

– jamoalarga doir mehnat nizolarida o‘z manfaatlarini quvvatlash huquqiga egadir.

Tegishli uchbu huquqlar fermer xo‘jaligida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan xodimlarga ham taalluqlidir.

Fermer bilan xodim o‘rtasida tuziladigan shartnomada xodimning majburiyatlari:

– O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va xo‘jalik Ustavi talablariga, mehnat intizomiga rioya qilish, mehnat majburiyatlarini bajarish;

– mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilish, deb belgilanishi mumkin.

Ish beruvchining majburiyatlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

– mehnatni tashkil etish va xodimning mehnatini muhofaza qilish, uni texnika xavfsizligi qoidalari, mehnat majburiyatlari, jamoa shartnomasi (u qabul qilingan bo‘lsa) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish;

– ish haqini belgilangan muddatlarda to‘lash;

– xodimni mehnatning muhofaza qilish qoidalari muvofiq zarur inventarlar va boshqa muhofaza vositalari bilan ta‘minlash;

– xodimning mehnat daftarchasini belgilangan tartibda yuritish;

– qonun hujjatlari talablariga rioya etish.

Shartnomada fermer xo‘jaligidagi ish tartibini fermer xo‘jaligi boshlig‘i qonun hujjatlariga muvofiq belgilashi ko‘rsatiladi. Bunda bir yildagi ish vaqti jami hisoblangan ish vaqtidan, har kungi ishning davom etishi esa 12 soatdan oshishi mumkin emas.

Mehnatga haq to‘lash masalasida tomonlar belgilagan ish hajmi bajarilgan taqdirda xodimga har oy uchun ma‘lum miqdorda mehnat haqi belgilaydilar. Ishlab chiqarish zaruriyati va bekor turib qolishlar sababli xodim uning roziligisiz boshqa ishga o‘tkazilishi mumkin.

Bunda mehnatga haq to'lash bajarilgan ishlar bo'yicha, lekin xodimning ilgari ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Ish beruvchi moliyaviy imkoniyatlar doirasida qo'shimcha to'lovlarni (ustamalar, mukofotlar, rag'batlantiruvchi va boshqa to'lovlarni) belgilashi mumkin. Xodim bilan kelishuvga ko'ra mehnatga haq to'lash ham pul, ham natura tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Xodimga har yilgi asosiy mehnat ta'tili kamida 15 ish kuni miqdorida belgilanadi. Xodimga nisbatan davlat ijtimoiy sug'urtasi qo'llanadi. Shuningdek, ish beruvchi mehnat intizomi va mehnat shartnomasi shartlari buzilganligi uchun xodimga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasida ko'rsatilgan intizomiy jazo choralarini O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 182-moddasi talablarini bajargan holda qo'llash huquqiga egadir.

Fermer xo'jaligining boshlig'i va xodimlari davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

II

Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi»gi qonunining 2-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra mehnatni muhofaza qilish deganda insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimi tushuniladi. Mehnatni muhofaza qilishning asosiy maqsadi va vazifasi ishlab chiqarish jarayonida insonning sog'lig'ini saqlash, uning hayotini xavf ostida qoldirmaslik, unga qulay mehnat sharoiti yaratib berishdan iboratdir.

Mehnatni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, davlat tomonidan boshqariladi,

ya'ni ushbu funksiyani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligiga erishish, mulk shaklidan qat'i nazar yagona tartib-qoidalarni belgilab qo'yishlik, mehnatni muhofaza qilish talablarini nazorat qilish, mablag' bilan ta'minlash, mehnat muhofazasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, xodimni maxsus kiyim, parhez ovqatlar bilan ta'minlash, jabr ko'rgan xodimlarni ijtimoiy himoyalash kabilarga qaratilgan bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarida mehnatni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni, «Mehnat kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun, Fermer xo'jaligining Na'munaviy ustavi va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilishicha, har bir shaxs adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga egadir (37-modda). Ushbu huquqiy qoida talabiga ko'ra fermer xo'jaligi xodimlari o'zlarining sog'lig'iga, hayotiga xavf solmaydigan, zarar yetkazmaydigan mehnat sharoitlarida ishlash huquqlariga ega. Fermer xo'jaliklari o'z xodimlariga shunday sharoitni yaratib berishga majbur hisoblanadilar.

Mehnatni muhofaza qilishni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muhim rol uynaydi. Ushbu qonunlar majmuining 211-moddasida ko'rsatilishicha, barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Kodeks talablariga ko'ra, xodim mehnatni muhofaza qilish normalariga, qoida va yo'riqnomalariga, shuningdek, ma'muriyatning ishni bexatar olib borish haqidagi farmoyishlariga rioya qilish, olingan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, insonlar hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf soladigan har qanday holat haqida o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilish shart (212-modda).

Fermer xo'jaliklarida xavfsiz mehnat sharoitini tashkil etish uchun xo'jaliklar rahbarlari – fermerlar javobgar bo'ladilar. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 211-moddasida belgilanishicha, ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi. Ish beruvchi mehnat sharoitlari to'g'risida, shu jumladan kasb kasalliklari va boshqa kasalliklarga chalinish ehtimoli, shu bilan bog'liq holda unga beriladigan intiyoz va kompensatsiyalar, shuningdek shaxsiy himoya vositalari haqida xabardor qilinishi kerak (213-modda).

Fermer xo'jaliklarida ayollar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayollarning ular uchun mumkin bo'lgan normadan ortiq yukni ko'tarishlari va tashishlari man etiladi. Ayollar mehnatini qo'llanishi ta'qiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay ishlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining maslahatini olgan holda tasdiqlaydi.

Homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari kamaytirilib, ularning o'rtacha oylik ish haqi saqlanadi. Homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Homilador ayolning, 14 yoshga to'lmagan bolasi bor ayolning iltimosiga ko'ra unga to'liqsiz ish kuni belgilanishi mumkin.

Shu bilan birga voyaga yetmagan xodimlarni veterinariya-sanitariya, nasldor otlarni boqish, qishloq xo'jalik mashinalarini pritsepchisi, quduqlarda ishlashi va boshqa zararli ishlarda ishlashi mumkin emas. Voyaga yetmagan o'smirlarni zaharli ximiyaviy moddalar bilan bog'liq ishlarda, kechasi bajariladigan ishlarda ishlatish ham mumkin emas. Voyaga yetmaganlar uchun qisqartirilgan ish kuni belgilanadi va ularni normadan tashqari ishlarga jalb etish ta'qiqlanadi.

Mehnatni muhofaza qilish qonunlarini buzgan mansabdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy, jinoiy

javobgarlikka tortiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 28-moddasida ko'rsatilishicha, ma'muriyatning aybi bilan ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotgan xodimga korxonada bir marta beriladigan nafaqa to'laydi hamda sog'liqqa yetkazilgan shikast uchun tovon to'laydi. Bir marta beriladigan nafaqa miqdori jabrlanuvchining bir yillik maoshidan kam bo'lmasligi lozim. Agar xodim davolanish, protez qo'ydirish va tibbiy yordamning boshqa turlariga muhtoj bo'lsa, korxonada jabrlangan xodimga bu tadbirlar bilan bog'liq xarajatlarni to'laydi hamda jabrlanuvchining kasbini o'zgartirib qayta tayyorlanishni va tibbiy xulosaga muvofiq ishga joylashishni ta'minlaydi yoki ana shu maqsadlar uchun ketadigan xarajatlarni qoplaydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodim vafot etgan taqdirda korxonada xodimning qarindoshlariga moddiy ziyonni hamda bir marta beriladigan nafaqani to'laydi.

Nazorat savollari:

1) *Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini tartibga solishda tarmoq qonunchiligi ahamiyat kasb etadi-mi? Fikringizni asoslang!*

2) *Fermer xo'jaligining ichki ish tartibini kim belgilaydi?*

3) *Ichki ish tartibini belgilashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xosligi (mavsumiylik, tabiiy sharoitga bog'liqlik) hisobga olinadi-mi?*

4) *Fermer xo'jaligida mehnat muhofazasini tashkil etish uchun kim javobgar?*

**XI BOB. FERMER XO‘JALIGI FAOLIYATIGA OID QONUN
HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK
JAVOBGARLIK**

REJA:

- 1. Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi.*
- 2. Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun mulkiy javobgarlik.*
- 3. Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun intizomiy javobgarlik.*
- 4. Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik.*
- 5. Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.*

I

Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzish haqida gapirganda, avvalombor, shu sohadagi qonunchilik tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarni ko‘rib o‘tishimiz lozim. Ushbu ijtimoiy munosabatlar doirasi juda keng bo‘lib, turli yo‘nalishlardagi munosabatlarni qamrab oladi. Bu munosabatlar quyidagilardan iboratdir:

- birinchidan, fermer xo‘jalik faoliyati (ishlab chiqarish) bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar;
- ikkinchidan, fermer xo‘jaliklarining tabiiy resurslardan foydalanishlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar;
- uchinchidan, fermer xo‘jaligida mehnatni tashkil qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar;
- to‘rtinchidan, fermer xo‘jaligida tashkiliy-boshqaruv bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar;
- beshinchidan, fermer xo‘jaligining mulkchilik munosabatlari bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlari va boshqalar.

Qishloq xo‘jalik qonunchiligi agrar munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasidagi yuridik institutlarning tashkil topishiga va rivojlanishiga ta’sir etuvchi davlat agrar siyosatini aks ettiruvchi va

mustahkamlovchi shakl sifatida xizmat qiladi. Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jalik korxonasi hisoblanadi. U o‘z faoliyatini qishloq xo‘jalik qonunchiligi asosida olib boradi. Shuning uchun ham fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunlarni buzishni qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzishning bir ko‘rinishi sifatida tavsiflash mumkin.

Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzish «qishloq xo‘jalik huquqi xususiyatidan, uning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqadi, ya‘ni qishloq xo‘jalik huquqi o‘zida turli huquq sohaslariga tegishli bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi, turli qonunchilik sohaslariga taalluqli bo‘lgan normalarni jamlaydi».¹

Yuridik javobgarlik keng ma‘noda huquqiy institutdir. U o‘zida qonun bilan yuklatilgan majburiyatlar yoki shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni ixtiyoriy bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoxud o‘rnatilgan huquqiy tartibotni buzayotgan shaxslarga davlat tomonidan ruxsat etilgan va qo‘llab-quvvatlangan majburiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatish uslub va chora-tadbirlari to‘g‘risidagi yuridik qoidalar (normalar) majmuini ifodalaydi.²

Qonunchilikda va huquq nazariyasida javobgarlikning jinoiy, ma‘muriy, intizomiy, mulkiy, moddiy turlari keng qo‘llaniladi.

Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib, qishloq xo‘jalik tizimida sodir etilgan huquqbuzarlik hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligiga oid huquqbuzarliklarni tasniflash bir necha belgilariga ko‘ra amalga oshiriladi. Bular:

- huquqbuzarlik predmetiga ko‘ra;
- muhofaza qilish obyektiga ko‘ra;
- sanksiyalariga ko‘ra;
- zarar yetkazish usuliga ko‘ra;
- ijtimoiy xavfligiga ko‘ra.

¹ Nurmatov M. Qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik. // Qishloq xo‘jalik huquqi. –T: «Ilm-ziyo», 2006, 183-b.

² Agrarnoye pravo. Uchebnik. Otv. redaktori: G.E. Bistrov, M.I. Kozir. M: izdatelstvo «Yuridicheskaya literatura» 1996 g. str – 493.

Predmetiga ko'ra qishloq xo'jaligiga oid huquqbuzarliklar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimini muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklardan iborat. Masalan, tabiiy resurslarga egalik qilish, ulardan foydalanish va mulkchilik huquqini buzuvchi huquqbuzarliklar.

Muhofaza qilish obyektiga ko'ra qishloq xo'jaligiga oid huquqbuzarliklar soha belgilariga muvofiq bo'linadi. Bular jumlasiga iqtisodiyot sohasidagi; xo'jalik faoliyati sohasidagi; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi; hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar kiradi.

Sanksiyalariga ko'ra qishloq xo'jaligiga oid huquqbuzarliklar intizomiy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklardan iborat.

Zarar yetkazish usuliga ko'ra qishloq xo'jaligiga oid huquqbuzarliklar shartnoma shartlarini tegishli ravishda bajarmaslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, tabiat obyektlariga zarar yetkazish va boshqalar bilan ifodalanadi.

Qishloq xo'jalik sohasidagi huquqbuzarlik – bu aybdorning qonunga xilof xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jalik tizimiga yetkazilgan zarar, uni rivojlantirishga tajovuz qilish hamda qishloq xo'jalik tizimida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga putur yetkazish, shuningdek, qishloq xo'jalik sohasidagi qonun va talablarni buzishda namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklarning o'ziga xos belgilari bo'lib – uni qishloq xo'jalik qonunlariga xilofligi, ya'ni huquqqa xilofligi, aybning mavjudligi, jamoat uchun hamda qishloq xo'jalik tizimini rivojlantirish uchun xavfliligi hisoblanadi hamda ular yetkazilgan zararining oqibati bilan belgilanadi.

Huquqbuzarlik uchun quyidagi belgilar taalluqlidir:

- qilmish (harakat yoki harakatsizlik);
- ayb (qonun bilan belgilangan tartibni buzish natijasiga javobgarlik va jazoga sabab bo'luvchi holat);

– huquqqa xiloflik (qonun va boshqa qonun aktlari talablarini buzish);

– javobgarlikning muqarrarligi (qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra jinoiy, ma‘muriy, fuqarolik, intizomiy);

– zarar yetkazuvchanlik (zarar yetkazish yoki uning real xavfini tug‘dirish).

Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik subyektlari bo‘lib, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, fuqarolar, fermer xo‘jaligi boshliqlari, shaxsiy tomorqa xo‘jaligi egalari, qishloq xo‘jaligining boshqa ishchilari, shu bilan birga asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘lgan korxonalar, qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari), xo‘jalik birlashmalari va jamiyatlari hisoblanadi.

II

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik deganda huquqbuzarga qo‘shimcha mulkiy xarajatlar qilinishi va uning munosib xulq-atvorda bo‘lishini belgilovchi sanksiya tushuniladi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosan zararni qoplash, burchni natura holda bajarishga majbur etish kabilardan iborat bo‘lib, bu javobgarlik shartnomalardan zarar yetkazish natijasida kelib chiqishi amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik FK va maxsus qonun hujjatlarida belgilangan harakatlarni g‘ayriqonuniy sodir etganlik va uning oqibatida zarar yetganlik uchun belgilanadi. Agrar qonunchilikda mulkiy javobgarlikning huquqiy munosabatning xarakteriga qarab turli xil shakllari mustahkamlangan. Agrar sohadagi fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartnomaviy majburiyatlardan va zarar yetkazganlik natijasida kelib chiqadi.

Agrar sohadagi huquqbuzarliklar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni shartli ravishda quyidagilarga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq:

Yerga oid majburiyatlarni bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar yer qonunchiligini buzish natijasida yetkazilgan ziyonni qoplashga majburdirlar. Bunday javobgarlik, avvalo, yerni o'zboshimchalik bilan egallashdan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 91-moddasiga ko'ra o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga g'ayriqonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan sarf-xarajatlar qoplanmagan tarzda tegishlilikiga ko'ra qaytariladi.

Yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish, shu jumladan, undagi imoratlarini buzish yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar hisobidan amalga oshiriladi. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasini yer egasiga, yerdan foydalanuvchiga, yer uchastkasi ijarachisiga yoki mulkdoriga qaytarish tegishli tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga binoan yoki sudning hal qiluv qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo'yish (Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan, kimoshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish bundan mustasno), yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan ayirboshlash haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Agrar qonunchilik normalari bo'yicha mulkiy javobgarlik nafaqat huquqbuzarlik bilan yetkazilgan ziyondan kelib chiqadi, shu bilan birga huquqqa mos harakatlardan kelib chiqadigan ziyonni to'lash turida ham namoyon bo'ladi. Yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda, shu bilan birga yerdan foydalanuvchilar huquqlarini cheklash yoki korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqaro faoliyati ta'siri natijasida yerlar sifatining yomonlashishi bilan yetkazilgan zarar shu zarar yetkazuvchi tomonidan yerdan foydalanuvchilarga to'liq hajmda to'lanishi lozim.

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishida daromadlarni qisqarganligi uchun mulkiy javobgarlik. Masalan, yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganlik natijasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lganda olinadigan daromadning qisqarishi uchun mulkiy javobgarlik yuzaga keladi. Bu yerda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning real zarar va boy berilgan foydani qoplash shakllari qo'llaniladi.

Fermer xo'jalik ishlab chiqarishidagi boy berilgan foydani qoplash ko'rinishidagi mulkiy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 87-moddasiga ko'ra qishloq xo'jaligi yerlarini, shu jumladan jismoniy shaxslar egaligidagi va foydalanishidagi qishloq xo'jaligi yerlarini qishloq xo'jaligini yuritish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish uchun olib qo'yish, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning huquqlari cheklanishi yoki korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatining ta'siri oqibatida yerlarning sifati yomonlashuvi tufayli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rni yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash (Yer kodeksining 86-moddasida nazarda tutilgan zararlar o'rnini qoplash)dan tashqari qoplanadi.

Qishloq xo'jaligi tadbirkorlarini ishlab chiqarish va moddiy resurslarga ziyon yetkazganligi uchun mulkiy javobgarlik. Agarda qishloq xo'jaligi korxonaga egasi mulkiga huquqbuzarlik bilan zarar yetkazilib unga agrar qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa, aybdor shaxs zararni fuqarolik qonunchiligiga asosan to'laydi. Fuqarolik kodeksining 14-moddasi, 2-qismida zarar tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 86-moddasida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash tartibi belgilangan. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zararining o'rni (shu jumladan, boy berilgan foyda hamda ma'naviy zarar) quyidagi hollarda to'la hajmda qoplanishi kerak:

– yerlar olib qo'yilgan, qayta sotib olingan yoki vaqtincha egallab turilganda;

– davlat qo'riqxonalari, zakazniklar, milliy tabiat bog'lari, tabiat yodgorliklari, madaniy-tarixiy yodgorliklar, suv havzalari, suv ta'minoti manbalari, kurortlar tevaragida, daryolar, kanallar, suv tashlamalari, yo'llar, truboprovodlar, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari bo'ylab muhofaza, sanitariya va ihotada zonalarini belgilanishi munosabati bilan ularning huquqlari cheklanganda;

– suv havzalari, kanallar, kollektorlar, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chiqaradigan boshqa obyektlar qurish va ulardan foydalanishning ta'siri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hosil kamayishiga va qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti-harakatlari oqibatida yerlarning sifati yomonlashgan taqdirda.

Qishloq xo'jaligi subyektlarining mulkiy javobgarligi.

– Qishloq xo'jalik korxonalarining mulkiy javobgarligi;

– Qishloq xo'jalik korxonalarini ta'sisчилari, mulkdorlari, paychilari, xissadorlari, boshqaruvchilarining mulkiy javobgarligi;

– Qishloq xo'jalik korxonalarini xodimlarining mulkiy javobgarligi qishloq xo'jaligi subyektlarining mulkiy javobgarligi mohiyatini o'zida ifodalaydi.

Bu javobgarlik FK, maxsus subyektlarning huquqiy maqomini belgilovchi qonunlar masalan Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi, dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkatlari) to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Agrar ishlab chiqarish kompleksida mulkiy javobgarlikning shartnomaviy shakli. Qonun yoki shartnomada zarar yetkazuvchiga

zararni to'lash bilan birga jabrlanuvchiga kompensatsiya to'lash majburiyati o'rnatilishi mumkin. Shartnomaviy javobgarlik o'rnatishning ikki tartibi mavjud. Birinchisi qonunchilikda nazarda tutilgan konkret shartnoma majburiyatlari bo'yicha. Ikkinchisi taraflar kelishuvi bo'yicha shartnomaviy javobgarlik o'rnatilishi mumkin. Bundan tashqari javobgarlik agar qonunda va shartnomada konkret belgilanmagan bo'lsa, ish muomala odatlarida ham belgilanishi mumkin.

III

Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat intizomini mustahkamlash bu sohadagi qonunchilikni ta'minlashning samarali usullardan biri hisoblanadi.

O'z mehnat burchlarini qonunga nomuvofiq ravishda bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun aybdor bo'lgan xodimga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida mehnat qonunchiligida intizomiy javobgarlik belgilangan. Intizomiy javobgarlikka tortish uchun xodim tomonidan sodir qilingan intizomga xilof nojo'ya xatti-harakat asos bo'ladi.

Qonunchilikda intizomiy javobgarlikning ikki turi mavjud: umumiy intizomiy javobgarlik va maxsus intizomiy javobgarlik. Umumiy intizomiy javobgarlik ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilangan. Maxsus intizomiy javobgarlik intizom to'g'risidagi ustavlar va nizomlar, alohida qoidalar, qonunlar bilan belgilangan. Maxsus intizomiy javobgarlik o'zi tatbiq etiladigan shaxslarning doirasi hamda ixtiyoriga intizomga chaqiruvi vakolat berilgan shaxslar va organlarning umumiy doirasi, qo'shimcha jazo chorasining mavjudligi, shuningdek berilgan jazo ustidan shikoyat qilish tartibi jihatidan umumiy intizomiy javobgarlikdan farq qiladi. Intizomiy javobgarlikning hamma turlariga quyidagi belgilar xosdir: faqat qonunlarda va intizom ustavlarida, nizomlarda ko'rsatilgan jazolarni berish mumkin; mehnat intizomi buzilgan har bir hol uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasi qo'laniladi; jazo berishda sodir etilgan

nojo'ya harakatning og'ir-yengilligi, u sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi va xulq-atvori e'tiborga olinishi kerak; intizomiy jazo bevosita nojo'ya xatti-harakat sodir qilinganligi ma'lum bo'lgandan keyin qo'llaniladi¹.

Intizomiy javobgarlik ichki mehnat tartibi qoidalariga binoan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xodimlarning aksariyat ko'pchiligiga tadbiiq etiladi. Maxsus intizomiy javobgarlik belgilangan xodimlar toifalari bundan mustasnodir. Umumiy intizomiy javobgarlikda mehnat intizomini buzganlik uchun jazo choralari, ularning qo'llanish tartibi, ular ustidan shikoyat qilish va jazoni olib tashlash tartibi Mehnat kodeksida («Mehnati intizomi» bobi) hamda Namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilangan. Intizomiy jazo ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organ) tomonidan beriladi.

Mehnati kodeksining 181-moddasiga muvofiq ish beruvchi mehnat intizomini buzganligi uchun xodimga quyidagilar intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

1. Xayfsan.

2. O'rtacha oylik ish haqining 30 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida o'rtacha oylik ish haqining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarimani ushlab qolish Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilgan holda ish beruvchi tomonida amalga oshiriladi.

3. Mehnat shartnomasini bekor qilish. Mehnat kodeksining 100-moddasiga ko'ra nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini ham, muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini ham ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asosli bo'lishi shartligi belgilanib, quyidagi sabablar, ya'ni xodimning

¹ O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / A.A.Inoyatov. –Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2002-yil. 258-259- betlar.

o'z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi hamda xodimning o'z mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi holatlari mehnat shartnomasini bekor qilishning asosli ekanligini bildiradi.

Avval mehnat vazifalarini buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil mobaynida xodim tomonidan takroran intizomga xilof nojo'ya harakat sodir qilinishi mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzish hisoblanadi.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzishlarning ro'yxati:

– ichki mehnat tartibi qoidalari;

– korxonada mulkdori bilan korxonada rahbari o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi;

– ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan intizom haqidagi nizom va ustavlar bilan belgilanadi.

Xodimning o'z mehnat vazifalarini buzishi qo'pol tusga egaligi yoki ega emasligi har bir muayyan holda sodir qilingan nojo'ya harakatning og'ir-yengilligiga hamda bunday buzish tufayli kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarga qarab hal etiladi.

Mehnat kodeksining 182-moddasida belgilangan intizomiy jazolarni qo'llanish tartibiga ko'ra, intizomiy jazolar qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi.

Intizomiy jazo qo'llanishidan oldin xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llashga to'siq bo'la olmaydi.

Intizomiy jazo qo'llanilayotganda sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning qay darajada ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi. Har

bir nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin.

Intizomiy jazo bevosita xatti-harakat aniqlangandan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xodimning kasal yoki ta'tilda bo'lgan vaqtini hisobga olmasdan, uzog'i bilan bir oy ichida qo'llaniladi. Nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan kundan boshlab olti oy o'tganidan, moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijasida aniqlanganda esa, sodir etilgan kundan boshlab ikki yil o'tganidan keyin jazoni qo'llab bo'lmaydi. Jinoiy ish bo'yicha ish yuritigan davr bu muddatga kirmaydi. Intizomiy jazo berilgani to'g'risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

Intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas. Agar xodim shu muddat ichida yana intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi.

Intizomiy jazoni qo'llagan ish beruvchi tashabbusi bilan xodimning iltimosiga binoan, mehnat jamoasi yoki xodimning bevosita rahbari iltimosnomasiga ko'ra, jazoni bir yil o'tmasdan oldin ham olib tashlashga haqli (MKning 183-moddasi). Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Mehnat kodeksining 189-moddasiga muvofiq, intizomiy jazo ustidan yakka mehnat nizolari ko'rish uchun belgilangan tartibda qilinishi mumkin.

Mehnat nizosini ko'rib chiqayotgan organ sodir etilgan nojo'ya xatti-harakat qanday vaziyatda yuz berganligini, xodimning xulq-atvorini, mehnatga bo'lgan munosabatini, intizomiy jazoning sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning og'irlik darajasiga mos kelishini, ish beruvchining intizomiy jazo berish tartibiga rioya qilganligini olib, xodimga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazoni g'ayriqonuniy deb topish va uni bekor qilish to'g'risida qaror chiqarishga haqli. Maxsus qonunlarda va intizom to'g'risidagi ustavlarda, shuningdek, nizomlar ayrim toifa xodimlar uchun ayrim nojo'ya harakatlar uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan umumiy intizomiy jazolardan tashqari qo'shimcha,

qattiqroq jazolar nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Intizomiy jazolar mavjud qoidalarga muvofiq, o'sha shaxsni lavozimga tayinlash huquqiga ega bo'lgan shaxslar yoki organlar tomonidan yoxud mazkur shaxslar va organlarga nisbatan bo'ysinish tartibida yuqori turuvchi shaxslar va organlar tomonidan beriladi. Jazo berish masalalari bo'yicha mehnat nizolari bo'ysinish tartibida yuqori organlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Jazo qonunsiz berilgan deb topilgan taqdirda, yuqori turuvchi organ jazoni bekor qilish to'g'risida buyruq chiqaradi, bu buyruq xodimga va ish beruvchiga darhol yuboriladi.¹

IV

Ma'muriy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida turi hisoblanib, u huquqiy me'yorlar asosida o'rnatiladi, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo'llaniladi va vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan o'rnatilgan protsessual tartibda huquqiy me'yorlarda nazarda tutilgan sanksiyalarni qo'llashda ifodalanadi.²

Ma'muriy javobgarlik, odatda, ma'muriy-huquqiy me'yorlarning talablari buzilgan taqdirda yuzaga keladi. Shu bilan birga, amaldagi qishloq xo'jalik qonunchilik me'yorlari buzilganda ham qo'llanilishi mumkin. Bu esa ma'muriy javobgarlikning sohalararo bog'liqligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish uchun ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilishi asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasiga ko'ra ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy

¹ O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / A.A.Inoyatov. –Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2002-yil, 260-261- betlar.

² Erkin Hojiyev. Ma'muriy javobgarlik. Risola. –T. 2006. 41-42-betlar.

javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi»¹.

Ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-bobida qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

– ekinzorlarni payxon qilish, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish (104-modda);

– qishloq xo'jalik ekinlarining navini yangilash va nav joylashtirish tartibini buzish (104-modda.);

– tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan ekinlarni qo'riqlashni ta'minlash choralari ko'rmaganlik (105-modda);

– yovvoyi nashani yo'q qilib yuborish choralari ko'rmaganlik (106-modda);

– karantin e'lon qilingan zararkunandalarga, o'simliklar kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurash qoidalarini buzish (107-modda);

– karantin tekshiruvidan va tegishli tartibda ishlov berishdan o'tkazilmagan materiallarni tashib chiqib ketish (108-modda);

– hayvonlarni karantinga qo'yish qoidalarini va boshqa veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish (109-modda);

– mexanizatorlar tomonidan qishloq xo'jalik mashinalaridan texnik jihatdan foydalanish va texnika xavfsizligi qoidalarini qo'pol ravishda buzish (112-modda).

¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. –T.: «Adolat», 2005.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi munosabatlari tabiat obyektlari bilan o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 8-bobida belgilangan tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qo'yidagi huquqbuzarliklarni qishloq xo'jaligiga oid huquqbuzarliklar deb ko'rsatish mumkin:

– yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish (65-modda);

– yer berish tartibini buzish (66-modda);

– vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'rnida foydalanish uchun yaroqli holga keltirmaslik (67-modda);

– xo'jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastrini yuritish qoidalarini buzish (68-modda);

– chegara va cheklov belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish (69-modda);

– suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish (72-modda);

– suvdan foydalanish qoidalarini buzish (74-modda);

– suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzish (75-modda);

– suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish (76-modda);

– o'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo'llanish qoidalarini buzish (89-modda).

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 23-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

1) jarima;

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;

3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish;

4) ma'muriy qamoqqa olish.

Quyidagilar qishloq xo'jalik sohasida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar) hisoblanadi:

1. **Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari** – ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 66, 67-moddalarida, 76-moddasida (suv xo'jaligi inshootlariga zarar yetkazishga oid qismi), 104, 105, 106, 107, 108 va 112-moddalarida (transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etishga oid qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari, basharti huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi boshqa ishlarni ham bevosita ko'rib chiqadilar.

2. **Adliya organlari** – adliya organlarining mansabdor shaxslari paxta xaridi bo'yicha kontraktatsiya shartnomalari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektga mulkiy zarar yetkazilganligi fakti aniqlangan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzadilar. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ko'rib chiqish uchun boshqa hujjatlar va ish bo'yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay xo'jalik sudiga yuboriladi.

3. **Ma'muriy komissiyalar** – tuman markazidan olisda va borish qiyin bo'lgan yerdagi shaharcha, qishloq va ovullardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida tuzilgan ma'muriy komissiyalar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65, 69, 104, 105, 106, 107, 108-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

4. **Tabiatni muhofaza qiluvchi organlar** – O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlariga ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65-moddasining ikkinchi qismida (qishloq xo'jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz holga keltirganlik bundan mustasno), 68-moddasida (shaharlar va posyolkalarning yerlariga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish,

rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlarga, suv fondi yerlariga oid qismi), 72-moddasida (termal suvlarga doir qismi bundan mustasno), 74-moddasining birinchi va uchinchi qismlarida, 75-moddasida (irrigatsiya tarmoqlaridan olinadigan suvlarni hisobga olish bundan mustasno, shuningdek davlat suv kadastrini yuritishning belgilangan tartibini buzganlik uchun), 89-moddalarida (atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish bundan mustasno) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

– O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining bosh davlat inspektorlari, ularning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, viloyatlar, Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining bosh davlat inspektorlari, ularning o'rinbosarlari – fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o'n baravarigacha miqdorda;

– O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, viloyatlar, Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining katta davlat inspektorlari, tumanlararo, tumanlar, shaharlar inspeksiyasining boshliqlari – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravarigacha miqdorda;

– O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, viloyatlar, Toshkent shahar tabiatni muhofaza qilish qo'mitalarining davlat inspektorlari, davlat qo'riqxonalari va davlat milliy tabiat bog'larining muhofaza qilish xodimlari – fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravarigacha miqdorda jarima solishga.

5. Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlari – Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlariga ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 112-moddasida, 139-moddasida (qishloq xo'jalik texnikasiga taalluqli qismi) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasining boshlig'i va uning o'rinbosari, bosh va yetakchi mutaxassislari, viloyatlar inspeksiyalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, tuman inspeksiyalarining boshliqlari qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini (boshqarish huquqidan mahrum qilish bundan mustasno) qo'llanishga haqlidirlar.

6. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining organlari – O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining organlariga ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65-moddasida (yerlarni ishlab chiqarish va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqava suvlar bilan ifloslantirganlik bundan mustasno), 68-moddasida (shaharlar va posyolkalarning yerlari, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, suv fondi yerlari bundan mustasno), 69-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga quyidagilar haqlidirlar:

– O'zbekiston Respublikasi yerlardan foydalanish va ularning muhofaza etilishini nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspektori va

uning o‘rinbosarlari fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravarigacha miqdorda;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlari yerlardan foydalanish va ularning muhofaza etilishini nazorat qilish bo‘yicha davlat inspektorlari fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqlidirlar.

7. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining «O‘zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlari – «O‘zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlariga ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 74-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida, 75-moddasida (irrigatsiya tarmoqlaridan olinadigan suv miqdorini hisobga olish, shuningdek, davlat suv kadastri yuritishning belgilangan tartibini buzishga oid qismi), 76-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar taalluqidir.

Quyidagilar Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining «O‘zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasi organlari nomidan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va jarima solish tariqasida ma‘muriy jazo chorasini qo‘llashga haqlidirlar:

– «O‘zsuvnazorat» respublika suv inspeksiyasining boshlig‘i va uning o‘rinbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar suv inspeksiyalarining boshliqlari, suv inspeksiyalarining katta inspektorlari – fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravarigacha miqdorda;

– Suv inspeksiyalarning tuman inspektorlari – fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqlidir.

8. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlari – Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlariga

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1041-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Quyidagilar 1041-moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidirlar:

– Qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini sertifikatlash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori – eng kam ish haqining o'n baravarigacha miqdorda;

– Qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini sertifikatlash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat markazi inspektorlari, qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini sertifikatlash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha viloyatlar davlat inspektorlari – eng kam ish haqining yetti baravarigacha miqdorda;

– Qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini sertifikatlash va ularning sifatini nazorat qilish bo'yicha tumanlar inspektorlari – eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solishga haqli hisoblanadi.

V

Qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik – bu jazo tahdidi ostida jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik tizimiga, atrof tabiiy muhitga va uning alohida komponentlariga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish sifati samaradorligiga, qishloq xo'jalik korxonalari hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning qonuniy manfaatlariga tahdid ko'rsatuvchi har qanday harakat yoki harakatsizlikdir.

Qishloq xo'jalik sohasida sodir etiladigan jinoiy huquqbuzarliklar davlatning qishloq xo'jaligiga oid siyosatiga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan

talablarini qondirishga, qishloq xo'jaligida qonunchilikni ta'minlashga jiddiy putur yetkazadi.

Qishloq xo'jalik sohasidagi huquqbuzarlik — aybdorning qonunga xilof xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jalik tizimi yoki agrar sohasiga yetkazilgan zarar, uni rivojlantirishga tajovuz qilish, qishloq xo'jalik tizimida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga putur yetkazish hamda qishloq xo'jalik sohasidagi qonun va talablarni buzishda namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi tizimida sodir etiladigan huquqbuzarlik subyektining huquqiy me'yorlarga qarshi qilgan xatti-harakati qasddan yoki ehtiyotsizlikdan qishloq xo'jalik tizimiga, O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga hamda jamoatchilik uchun xavfli bo'lgan harakat oqibatidir.

Ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jalik munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarda jinoiy jazo choralari bevosita ko'rsatilgan bo'lmaydi. Demak, qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlikda jinoiy javobgarlikni qo'llash uchun qishloq xo'jalik qonunlari normalari bilan birgalikda jinoyat qonuni normalari buzilgan bo'lishi va shu huquqbuzarlik uchun Jinoyat kodeksida jazo chorasi belgilangan bo'lishi kerak. Aks holda jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi.

Qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni qo'llashdan asosiy maqsad ushbu huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish hamda sodir etilgan jinoyatlar uchun tegishli jazo tayinlashdan iboratdir.

Qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning mohiyati quyidagi funksiyalarda namoyon bo'ladi:

- taqiqlovchi;
- oldini oluvchi;
- rag'batlantiruvchi;
- ogohlantiruvchi.

Taqiqlovchi funksiya – jinoyat sodir qilgan shaxslar uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini belgilash orqali amalga

oshiriladi, ya'ni qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.

Oldini oluvchi funktsiya – jinoyat huquqiy taqiqlarni buzib, jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan jinoyat huquqiy ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Rag'batlantiruvchi funktsiya – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid manfaatlarni himoya qilishga majbur etuvchi iqtisodiy-huquqiy omillar mavjud bo'lganda namoyon bo'ladi. Jinoyat qonunida zararli oqibatlar keltirib chiqarsa-da, o'z harakatlari bilan o'zlarini, fuqarolar va jamiyat manfaatlarini himoya qilgan shaxslarga nisbatan rag'batlantiruvchi normalar ko'zda tutiladi.

Ogohlantiruvchi funktsiya – huquqbuzarlik subyektlarining harakatlariga jazolash va zararni qoplash choralarini qo'llash yo'li bilan ogohlantiruv. Jinoyat kodeksi 2-moddasi, ikkinchi qismiga ko'ra jinoyat qonuni qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilash yo'li bilan ogohlantiriladi.

Qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, jinoyat qonuni aniq ijtimoiy xavfli harakatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Masalan, sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish.

Ikkinchidan, qishloq xo'jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan Jinoyat kodeksining norma dispozitsiyasi blanket dispozitsiya hisoblanadi. Blanket dispozitsiyada muayyan jinoyat belgilari bo'lmay, boshqa normativ aktlar, ya'ni qonunlar, hukumat qarorlari va farmoyishlari, buyruqlar, instruktsiyalar va boshqalarga murojaat qilinadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 196-moddasida «Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, ya'ni yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa» javobgarlik nazarda

tutiladi. Bu munosabatlar «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi, «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunlar hamda Yer kodeksi bilan tartibga solinadi. Blanket dispozitsiyani qo'llash uchun boshqa normativ hujjatlarning buzilganligini aniqlash lozim. Blanket dispozitsiya qonunlarni ixchamlashtirish va amalda qo'llanishini osonlashtirish uchun zarurdir.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyat ko'pchiligi ma'lum bir oqibat keltirib chiqargan bo'lishi lozim. Masalan, «O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa» yoki «Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa» javobgarlik nazarda tutiladi. Agar ushbu og'ir oqibatlar yuz bermasa qilmish jinoyat deb baholanmaydi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jalik sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyat ko'pchiligi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jinoiy javobgarlikka tortish uchun qonunda ko'rsatilgan shart-sharoitlar vujudga kelgan bo'lishi kerak. Jinoiy javobgarlikka tortish uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi lozim:

- 1) ijtimoiy xavflilik;
- 2) huquqqa xiloflik;
- 3) aybning mavjudligi;
- 4) jazoga sazovorligi.

Ijtimoiy xavflilik – jinoyatning moddiy belgisi bo'lib, uning ijtimoiy mavjudligini aniqlashtirib beradi. Bu ijtimoiy xavfli qilmish shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish tahdidining vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

Huquqqa xiloflik – bu qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanganligini anglatadi.

Aybning mavjudligi – jinoyatning zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli qilmish shaxsning harakat (harakatsizlik) va jinoiy oqibatga (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan) bo‘lgan psixologik munosabatini inobatga olgan holda jinoyat deb tan olinishi mumkin.

Jazoga sazovorligi – bu ham huquqqa xiloflik singari jinoiy javobgarlikka tortishning asosiy shartlaridan biridir. Faqatgina jinoyat qonuni bilan taqiqlangan va jazoga sazovorlik bilan tahdid solinayotgan qilmishni sodir etish jinoyat deb topilishi lozim.

Qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik, jinoyatning to‘rt tomonini, ya‘ni subyekt, subyektiv tomon hamda obyekt, obyektiv tomonni qamrab oladi.

Qishloq xo‘jalik sohasida sodir etilgan jinoyatlarning subyeksi bo‘lib yuridik va jismoniy shaxslar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik sohasida sodir etilgan jinoyatlarning obyeksi bo‘lib esa O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi tizimi, yer, suv munosabatlari, qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarishning sifati va samaradorligi, qishloq xo‘jalik korxonalari hamda qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarning qonuniy manfaatlari hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida sodir etilgan jinoyatlarning subyektiv tomoni bo‘lib, subyektivning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, ya‘ni huquqbuzarlikdan kelib chiqqan oqibatga nisbatan bo‘lgan ruhiy munosabati tushuniladi.

Agrar sohada sodir etilgan jinoyatlar subyektiv tomonning xususiyati shundaki, ular bevosita sodir etilgan xatti-harakatlarning motiv va maqsadi bilan ham har doim bog‘liq bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi tizimidagi sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar oqibatida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tizimiga yetkazilgan moddiy, ma‘naviy hamda iqtisodiy zarar ushbu jinoyatlarning obyektiv tomoni bo‘lib hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi kompleks soha bo‘lganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida qishloq xo‘jaligi sohasidagi jinoyatlar

uchun alohida bob yoki bo‘lim kiritilmagan. Ammo qishloq xo‘jaligi sohasidagi jinoyatlar jinoyat kodeksining iqtisodiyot, xo‘jalik, ekologiya sohasidagi jinoyatlar tarkibida o‘zining ifodasini topgan bo‘lib, bular quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Bularga: O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish (167-modda); Mulkni qo‘riqlashga vijdotsiz munosabatda bo‘lish (172-modda); Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (173-modda); Soxta tadbirkorlik (179-modda); Bankrotlikni yashirish (181-modda); Soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash (184-modda); Sifatsiz mahsulot chiqarish va sotish (186-modda); Xaridor yoki buyurtmachilarni aldash (187-modda) va boshqalar.

2. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Bularga: Ekologiya xavsizligiga oid normalar va talablarni buzish (193-modda); Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish (194-modda); Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik (195-modda); Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda); Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (197-modda); Ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dovdaraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish (198-modda); O‘simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (199-modda); Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish (200-modda); Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish (201-modda); Hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (202-modda); Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (203-modda).

Qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzib jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin:

- jarima;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- axloq tuzatish ishlari;
- qamoq;

– ozodlikdan mahrum qilish.

Qishloq xo‘jaligi respublikamizning taraqqiyoti va o‘shish sur‘atlarini hal qiladigan muhim tarmoqdir. Shu sababli qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik normalarining belgilanishi agrar sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olishda va sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi.

Nazorat savollari:

- 1) *Fermer xo‘jaligi qonunchiligini buzganlik uchun qanday javobgarlik mavjud?*
- 2) *Qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzganlik uchun mulkiy javobgarlik nimani bildiradi?*
- 3) *Intizomiy javobgarlik qanday ahamiyat kasb etadi?*
- 4) *Qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzganlik uchun ma‘nuriy javobgarlik choralari talabga javob beradimi?*
- 5) *Qishloq xo‘jalik qonunchiligini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikda liberallashtirish masalalari qanday?*

XII BOB. FERMER XO‘JALIGI FAOLIYATINI TUGATISH ASOSLARI, SHARTLARI VA TARTIBI

REJA:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida fermer xo‘jaligi faoliyatini qayta tashkil etish, tugatish asoslari va tartibining belgilanishi.
2. Fermer xo‘jaligi faoliyatini tugatishda yer uchastkasidan foydalanish huquqining ahamiyati.

I

Fermer xo‘jaligi yuridik shaxs sifatida faoliyati qayta tashkil etilishi va tugatilishi mumkin. Qonunda fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish, tugatish asoslari va tartibi belgilangan. Fuqarolik kodeksining 49-moddasida hamda Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunning 31-moddasida fermer xo‘jaligini yuridik shaxs sifatida qayta tashkil etish tartibi belgilangan. Fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish, qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish shakllarida amalga oshiriladi. Fuqarolik kodeksining 49-moddasiga asosan, qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxsni bo‘lish yoki uning tarkibidan bir yoxud bir necha yuridik shaxsni ajratib chiqarish shaklida uni qayta tashkil etish vakil qilingan organlarining qarori bilan yoxud sud qarori bilan amalga oshiriladi. Agar yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari), ular vakil qilgan organ yoki yuridik shaxsning o‘z ta’sis hujjatlari bilan qayta tashkil etishga vakil qilgan davlat yuridik shaxsni vakolatli davlat organining qarorida belgilangan muddatda qayta tashkil etilayotgan bo‘lsa, sud mazkur davlat organining da’vosi bo‘yicha yuridik shaxsning boshqaruvchisini ta’minlaydi va unga ushbu yuridik shaxsni qayta tashkil etishni topshiradi. Boshqaruvchi tayinlangan paytdan boshlab unga yuridik shaxsning ishlarini boshqarish vakolatlari o‘tadi. Boshqaruvchi sudda yuridik shaxs nomidan harakat qiladi, taqsimlash balansini tuzadi va uni yuridik shaxslarni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan ta’sis hujjatlari bilan birga ko‘rib chiqish uchun

sudga topshiradi. Sudning ushbu hujjatlarni tasdiqlashi yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Fermer xo'jaligini qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qaytadan tashkil etish vakolati tuman hokimining roziligi bilan amalga oshiriladi. Fermer xo'jaligini qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, yangidan vujudga kelgan fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab fermer xo'jaligi qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi unga boshqa fermer xo'jaligini qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilganda qo'shib olingan fermer xo'jaligining faoliyati to'xtatilgani haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilgan paytdan boshlab bunday fermer xo'jaligi qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Qonunchilikda Fermer xo'jaligini tugatish asoslari belgilab qo'yilgan bo'lib, fermer xo'jaligi quyidagi hollarda tugatiladi:

– yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganida;

– fermer xo'jaligi bankrot deb topilganda, shu jumladan moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitob muntazam ravishda amalga oshirilmaganida;

– fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etib, xo'jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi merosxo'r bo'lmasa;

– davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan fermer xo'jaligi yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanmaganida, xususan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekanida yer uchastkasini olib qo'yish zarurati bo'lgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinsa (32-modda).

Qonunning 33-moddasida Fermer xo'jaligini tugatish tartibi mustahkamlangan. Unga ko'ra, agar fermer xo'jaligi ixtiyoriylik asosda tugatilganda fermer xo'jaligi boshlig'ining qarorini chiqarish

talab etiladi. Basharti fermer xo'jaligining xohishiga bog'liq bo'lmagan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda sudning hal qiluv qaroriga asosan tugatiladi.

Yuqoridagi shartga asosan fermer xo'jaligini tugatishning mohiyati shundan iboratki, faqat bir holatda, ya'ni obyektiv sababga ko'ra, agar xo'jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan bironta ham xo'jalik a'zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa uning faoliyatini tugatish uchun asos bo'ladi.

Fermer xo'jaligini tugatish asoslarining asosiy qismi yer uchastkasidan foydalanish, olib qo'yish va yerga oid qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liqdir. Bular jumlasiga: yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganida; davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, shu jumladan fermer xo'jaligi yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanmaganida, xususan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekanida yer uchastkasini olib qo'yish zarurati bo'lgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilish kabilar kiradi.

Bundan tashqari qonun talablari buzish sharti asosida fermer xo'jaligi bankrot deb topilganda, shu jumladan moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar, ish bajaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitob muntazam ravishda amalga oshirilmaganida ular faoliyatini tugatish uchun asos bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fermer xo'jaliklari huquqiy holatini samarali normalar asosida mustahkamlanib borilishi, ular tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun obyektiv sharoit yaratib qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishni huquqiy ta'minlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

II

Fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy masalalaridan biri yer uchastkasiga nisbatan huquqlarning bekor bo'lishidir. Yer

uchastkalariga nisbatan bo'lgan huquqlarning bekor bo'lishi quyidagi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: ijaradagi yer uchastkalarini tegishli tartibda qaytarib berish, yerdan foydalanganlik uchun haq to'lashning bekor bo'lishi, fermer xo'jaligi faoliyatining to'xtatilishi va boshqalar.

Qonunchilikda belgilangan «huquqlarning bekor bo'lish asoslari va tartibi» ikki holatda qo'llanilishi mumkin. Birinchi holat qonuniy asoslarda vujudga kelgan huquqlarga, ikkinchi holat esa noqonuniy asoslarda vujudga kelgan huquqlarga nisbatan qo'llaniladi.

Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqlari yer uchastkasi ijarasi shartnomasining bekor qilinishi munosabati bilan bekor bo'ladi. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini amalga oshirish muddatlari va chora-tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 300-sonli Qaroriga 3-ilovada belgilanishicha, yer uchastkasiga oid ijara shartnomasi quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

– taraflarning kelishuviga ko'ra yoki tomonlar kelishilmagan taqdirda sud tomonidan. Taraflarning kelishuvi qonunga zid bo'lmagan, huquqiy munosabat boshqa ishtirokchilarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lmagan hollarda ijara shartnomasi bekor bo'lishi mumkin. Taraflar o'zaro kelishuvga erisha olmasalar o'rtadagi nizo qonun asosida va ish holatlariga ko'ra sud tomonidan hal etiladi. Bu turdagi nizolar O'zR XPKning 24-moddasiga muvofiq xo'jalik sudlarining sudloviga taalluqlidir;

– xo'jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan birorta ham xo'jalik a'zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa. Ma'lumki, fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etsa (o'lgan deb e'lon qilingan bo'lsa) yoki mehnatga qobiliyatini yo'qotsa, xo'jalik faoliyatini davom ettirish masalasi qayta ko'rib chiqiladi. Agar fermer xo'jaligi faoliyatini davom ettirish masalasi ijobiy hal etilsa (fermer xo'jaligi a'zolarining kelishuvi asosida xo'jalik faoliyatini davom ettirish istagini bildirgan xo'jalik a'zosi bo'lsa), yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlari meros

tariqasida o'tadi. Agar xo'jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan birorta ham xo'jalik a'zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa, yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlari bekor bo'ladi. Bu o'rinda vorislik masalasida alohida qoida nazarda tutilmaganligi uchun muammo FKning «Vorislik to'g'risidagi umumiy qoidalar»i (5-bo'limi) bilan hal etiladi;

– yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda. Bu tartibda yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlarining bekor bo'lishi uchun bir qator talablarga rioya etish lozim bo'ladi. Birinchidan, bunday voz kechish davlat, jamoat va alohida shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazmasligi, ikkinchidan, voz kechish haqiqatda ixtiyoriy bo'lishi kerak. Agar yer uchastkasi ijarasi shartnomasidan voz kechish davlat, jamoat va alohida shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazadigan bo'lsa (masalan, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, kreditorlar oldidagi majburiyatlaridan qochish maqsadida va boshqalar) yoki ixtiyoriy voz kechilishiga chetdan g'ayriqonuniy ta'sir tufayli erishilgan bo'lsa, yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlari bekor bo'lgan deb hisoblanmaydi va huquqiy munosabatlar davom etaveradi;

– yer uchastkasining ijaraga berilgan muddati tugaganda va yerdan foydalanish huquqini tiklashning imkoniyati bo'lmaganda. Yer kodeksining 53-moddasi 4-bandida fuqarolarga fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari ijaraga ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'n yildan kam bo'lmagan muddatga berilishi belgilangan. Ijara shartnomasi amal qilib turgan muddat davomida taraflar o'zaro huquq va majburiyatlar bilan huquqiy aloqada bo'lishadi. Ijara muddatining tugashi bilan taraflar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar o'zining huquqiy xususiyatini yo'qotadi (nizolashilayotgan holatlar bundan mustasno). Ijara muddatining tugashi ijara shartnomasining hamda yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlarining bekor bo'lishiga olib keladi. Ma'lumki, ijara shartnomasining muddati taraflar tomonidan qonun nazarda tutgan doirada belgilanadi. Savol tug'iladi,

xo'sh ijara muddati uzaytirilishi yoki kamaytirilishi mumkinmi? Ijara muddati uzaytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Uzaytirilgan muddat ellik yildan ortiq bo'lishi, kamaytirilgan muddat esa o'n yildan kam bo'lishi kerak emas. Muddatni uzaytirish yoki kamaytirish taraflarning kelishuviga ko'ra, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda sud tomonidan hal etilishi mumkin;

– yerdan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanilmaganda, olingan hosildorlik normativ kadastr bahosidan muttasil (uch yil mobaynida) past bo'lganda. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga asosan fermer xo'jaligi yer uchastkasidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yo'lida foydalanadi. Faoliyat ikki ixtisoslikda amalga oshirilishi mumkin: chorvachilik mahsulotlarini yoki dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish. Yuqoridagi tartibdan chetga chiqish yer uchastkasidan foydalanishning belgilangan maqsadidan chetga chiqish hisoblanadi. Tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli yer uchastkasidan muttasil ravishda uch yil mobaynida hosildorlikning normativ kadastr bahosidan past bo'lishi yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqining bekor bo'lishiga olib kelmaydi;

– yerlarning ekologik holati yomonlashganda. Yer uchastkalaridan foydalanish bilan bog'liq harakatlar normal ekologik xususiyatga ega bo'lgan yer uchastkalarida olib boriladi. Normal ekologik xususiyatga ega bo'lgan yer uchastkalari sho'rlanmagan, eroziyaga uchramagan, botqoqlik jihati mavjud bo'lmagan, tuproqning zichligi mahsulot yetishtirishda salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan va shu kabi boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan yer uchastkalaridir. Yerlarning ekologik holati yomonlashuvi yuzaga kelganda taraflar ijara shartnomasini bekor qilish masalasini ko'rishi kerak. Fermer bu to'g'rida tegishli organni xabardor etishi va vakolatli organ esa yer uchastkasi holatini aniqlash uchun mutaxassis jalb etishi lozim. Chunki bunday hollarda yer uchastkasidan foydalanishda davom etish fermer xo'jaligiga zarar yetkazishi mumkin (ekologik holati yomonlashgan yer uchastkasi rejalashtirilgan hosilni olish imkoniyatlarini cheklaydi, bu esa o'z

navbatida debitorlik qarzlarning yuzaga kelishiga olib keladi). Asoslantirilgan mutaxassis xulosasi yer uchastkasidan foydalanish huquqining taqdirini hal etadi;

– yer uchastkasi belgilangan tartibda olib qo'yilganda. Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlari bekor bo'lishining bir asosi sifatida yer uchastkasini olib qo'yish Yer kodeksining Z8-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Binobarin, yer uchastkasini olib qo'yish uchun asos bo'lgan holatlar mavjud bo'lganda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organ yer egasini yoki yerdan foydalanuvchini oldindan ogohlantirgandan keyin yer uchastkasini bergan organga yer uchastkasini olib qo'yish haqida taqdimnoma kiritadi. Yer uchastkasini bergan organ taqdimnoma asosida bir oylik muddatda yer uchastkasini olib qo'yish haqida qaror chiqaradi. Yer uchastkasini olib qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi holatlar quyidagilardir: yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanish; yer uchastkasidan oqilona foydalanmaganlik, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalansa; yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radiaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanish; qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yer solig'i, shuningdek ijaraga olish shartnomasida belgilangan muddatlarda ijara haqi muntazam to'lanmay kelinganligi; qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan bir yil mobaynida va qishloq xo'jaligi sohasiga taalluqli bo'lmagan ehtiyojlar uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanmaslik; meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi order kim oshdi savdosi asosida sotib olinganidan keyin yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanmaslik, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi garovda bo'lgan taqdirda esa, garov shartnomasi muddati mobaynida foydalanmaslik (foydalanilmayotgan yer uchastkalari

avvalgi egalaridan ular to'lagan haq qiymati qoplangan holda olib qo'yiladi).

Olib qo'yish ikki holatga ko'ra qo'llaniladi. Birinchi, yer uchastkasi qonuniy olingan hollarda, ikkinchi, yer uchastkasi noqonuniy egallab olingan xollarda;

– fermer xo'jaligi bankrot deb e'lon qilinganda. Fermer xo'jaligini bankrot deb e'lon qilish 1998-yil 28-avgustda qabul qilingan va 1-noyabrdan boshlab kuchga kiritilgan «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 105, 106-moddalari va «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi 1997-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan amalga oshiriladi. «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunning 105-moddasiga asosan, qishloq xo'jaligi korxonasi sifatida fermer xo'jaligining bankrotligi to'g'risidagi ish yuritish qo'zg'atilgunga qadar unga nisbatan «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekistan Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda sudgacha sanatsiya qo'llanishi mumkin.

Fermer xo'jaligi bankrotlik oqibatida tugatilgan deb e'lon qilinishi fakti unga berilgan yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqlari bekor bo'lishi uchun asos bo'ladi. Fermer xo'jaligini bankrot deb topish to'g'risidagi xo'jalik sudining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab fermer xo'jaligi bankrot deb e'lon qilingan bo'ladi;

– ijara haqi belgilangan muddatlarda muttasil to'lanmaganda. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasiga ko'ra, fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq tuman byudjetiga kiritiladigan har yilgi ijara haqi tariqasida yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, uning kadastr bahosini inobatga olgan holda belgilanadigan yer solig'i stavkasi miqdorida undiriladi.

Davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida fermer xo'jaligi yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq to'lashdan ozod etiladi. Ijara haqini muttasil to'lamaslik deganda uzluksiz to'lamaslik tushuniladi;

– fermer xo'jaligi yer uchastkasi olingan paytdan e'tiboran bir yil mobaynida xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatiga kirishmagan bo'lsa.

Masalaga oydinlik kiritishdan oldin ba'zi holatlarni belgilab olish lozim. Bulardan biri yer uchastkasining olinganlik vaqtidir. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil iyul oyidagi 300-sonli Qaroriga asosan yer uchastkasi ijaraga yer berishni rasmiylashtirish bo'yicha ishlar tugatilganidan keyin yer tuzish ishlari tuzib bo'lingach, yer uchastkasi olingan hisoblanadi. Ushbu vaqtdan boshlab fermer xo'jaligi yer uchastkasida xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatiga kirishish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta, lekin qo'pol ravishda buzilganda. Ushbu asoslarni qo'llagan holda yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlarining bekor qilinishida qonun buzilishiga olib kelgan harakat yoki harakatsizlikni keltirib chiqargan oqibatga baho berish maqsadga muvofiq. Chunki kam ahamiyatli va ko'p zarar yetishiga olib kelmagan noqonuniy harakat uchun fermer xo'jaligining yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlarini bekor qilish nojoizdir. Masalan, fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulot sifatiga oid amaldagi normativ va standartlarga, ekologiyaga, sanitariyaga oid qoidalarga rioya etishi shart. Agar ushbu qoidalarga rioya etmaslik og'ir oqibatlarni (kishilarning kasallanishi, hayvonot va o'simlik turlarining yo'qolishi xavfini keltirib chiqarsa, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga olib kelsa va boshqa shu kabilarni) keltirib chiqarsa, yer uchastkasiga nisbatan bo'lgan ijara huquqlarini bekor qilish masalasi ko'rib chiqilishi shart;

– yer uchastkasi ijara shartnomasining shartlari buzilganda. Xususan, yer uchastkasi ijarasi shartnomasiga asosan taraflar «huquqlar va majburiyatlar borasida» shartnoma shartlarini belgilab oladilar. O'zaro kelishuvga erishilgandan so'ng taraflar bu shartlarga rioya etgan holda harakat qilishlari lozim bo'ladi. Agar taraflardan biri yoki ikki taraf tomonidan ushbu shartlar buzilsa, bunday hollarda yer uchastkasi ijara shartnomasi bekor bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi ekinlarini va daraxtzorlarni limitga muvofiq sug'orish uchun suv bilan ta'minlash majburiyatini olgan yer uchastkasini ijaraga beruvchi o'z majburiyatini bajarmadi. Natijada shartnoma shartlari

buzildi. Bu holat yer uchastkasiga nisbatan ijara huquqlarining bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Yer uchastkasi ijara shartnomasi bekor qilingan taqdirda, fermer xo'jaligining foydalanishida bo'lgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi tuzilgan yerdagi qishloq xo'jaligi korxonasiga qaytarib beriladi.

Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda ham ijara shartnomasi bekor bo'lishi mumkin. Bunday hollarda yerning egasi (ijarachi) bilan kelishilgan holda dehqon va fermer xo'jaligi ro'yxatdan o'tgan tuman (shahar, viloyat) yoxud O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan yer olib qo'yiladi. Fermer xo'jaligi bu to'g'ridagi qarordan norozi bo'lsa, bu qaror ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin. Bu o'rinda yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaligi, shuningdek fermer xo'jaligi da'vo ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat etadi.

Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish, qayta sotib olish dehqon va fermer xo'jaliklari huquqlarining buzilishiga olib keladigan bo'lsa, u holda dehqon va fermer xo'jaligi Yer kodeksining 41-moddasida nazarda tutilgan kafolatlardan foydalanishga haqli. Ushbu moddada belgilanishicha, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari huquqlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar (shu jumladan, boy berilgan foyda) to'la xajmda qoplanishi kerak. O'rtada nizo kelib chiqqan taqdirda zararni (boy berilgan foydani) qoplash masalasi tegishli sudlar tomonidan hal etiladi.

Nazorat savollari:

1) *Qonunchilik fermer xo'jaliklarini tugatishni qanday asoslarini ko'zda tutadi?*

2) *Yerga bo'lgan ijara huquqini bekor qilinishini fermer xo'jaligini tugatishga nisbatan ta'sirini ayting.*

3) *Fermer xo'jaligi faoliyatini tugatishni huquqiy tartibi qanday?*

HURMATLI TALABA!

Fermer xo'jaligi faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunchilikni yaxshi o'zlashtirish talabaniq bilimini charxlanishiga va amaliyotda uchraydigan huquqiy muammolarni mustaqil hal eta olishga tayyorlanishida yordam beradi. Bunda qo'llanmada yoritilgan mavzular bo'yicha amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan masalalar yechimini amaldagi qonun hujjatlariga asoslanib topish va huquqiy muammo oldida turgan masaladagi shartli "shaxs"larga o'zining yuridik maslahatlarini berish orqali talaba bilim doirasi va kasb mahoratini oshirib boradi.

Quyida tavsiya etilayotgan masalalar to'plami shu maqsadga xizmat qiladi degan umiddamiz.

Fermer xo'jaligini tashkil etishni huquqiy tartibga solishga doir masalalar:

MASALA:

Fuqaro A. fermer xo'jaligi tashkil etmoqchi edi. Mahalliy ommaviy axborot vositalarida qishloq xo'jalik korxonasiqing qayta tashkil etilishi va tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lonni o'qib qoldi. Unga ko'ra tanlov o'tkazilishiga bir oy muhlat bor ekan. A. bir oylik muddat borligini bilgach vaqt bemalol degan xulosa bilan qo'shni viloyatga qarindoshlarinikiga mehmondorchilikka ketdi. U yerda kasal bo'lib, davolanib chiqqunicha 20 kundan ortiq vaqt ketdi. Qaytib kelib 7 kun muddat ichida hujjatlarini tayyorlab tanlovda ishtirok etish uchun komissiyaga olib bordi.

Biroq komissiya qonunga muvofiq tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish tanlov o'tkazilishidan o'n kun oldin to'xtatilishini va e'londa tanlovda ishtirok etish xohishini bildirgan fuqarolarning arizalarini qabul qilish muddatlari ko'rsatilganligini aytib, arizani qabul qilishni rad etdi.

Savol:

- Komissiyaniq harakati huquqiymi?
- Yuqoridagi holat bo'yicha fuqaro A. tanlovda ishtirok etishga haqlimi?
- Qonunga asoslanib masalani yeching!

MASALA:

Qishloq xo'jalik korxonasining qayta tashkil etilishi va tanlov o'tkazilishi munosabati bilan fuqaro B. fermer xo'jaligi tashkil etish maqsadida tanlovda ishtirok etishga qaror qildi. Tanlov tartibi bilan tanishgach uni ikkita loyiha qiziqtirib qoldi. O'z oila a'zolari bilan maslahatlashib, yetarlicha texnika va pul mablag'lari bo'lganligi uchun ham ikkala loyiha bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ariza berdi. Arizani qabul qilayotgan komissiya kotibi bitta talabgor ikkita loyiha bo'yicha ariza berishi mumkin emas deb, fuqaro B.ning bitta loyiha bo'yicha arizasini olishi mumkinligini bildirdi.

Fuqaro B. kotibning harakati noto'g'ri deb bilib, tuman hokimiyatiga ariza bilan murojaat etdi. Hokimiyat kotib qonun talabiga rioya etgan deb javob berdi.

Savol:

- Hokimiyatning javobi qonuniymi?
- Kotib fermer xo'jaligini tashkil etishga oid qonunchilik talabiga muvofiq harakat qilganmi?
- Fuqaro B.ga huquqiy maslahat bering!

Fermer xo'jaliklariga yer berish, yer ijarasi shartnomasi, yerga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatiga olishga oid masalalar:**MASALA:**

Fuqaro S. tuman hokimiga ariza bilan murojaat qilib ma'lumoti va mutaxassisligiga ko'ra qishloq xo'jalik xodimi ekanligini, 5 yildan beri tumandagi "Obod" fermer xo'jaligini boshlig'i sifatida faoliyat yuritib kelayotganligini, u rahbarlik qilayotgan fermer xo'jaligi har yili shartnoma majburiyatlarini ortig'i bilan bajarishini, shunga yarasha xo'jalikning iqtisodiy imkoniyati yaxshi ekanligini bildirib, xo'jalik yerlariga tutash qishloq xo'jalik institutining o'quv-tajriba yerlarini uning fermer xo'jaligi yerlariga qo'shib berishini so'radi.

Tuman hokimi fuqaroning arizasini rad qildi. Fuqaro S. tuman prokuraturasiga shikoyat bilan murojaat etdi.

Savol:

- Hokimning rad javobi qonuniymi?
- Fuqaroning shikoyati asoslimi?
- Masalani yer qonunchiligi doirasida hal qiling!

MASALA:

Tuman hokimining qaroriga binoan "Asil" fermer xo'jaligi bilan tuzilgan yer ijara shartnomasi bekor qilinib, yer uchastkasi olib qo'yildi. Hokimning qaroriga fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi yerning kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini olganligi va bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lishiga qaramay xo'jalik uch yil davomida shartnoma majburiyatlarini bajara olmaganligi asos qilib olingan.

"Asil" fermer xo'jaligi boshlig'i T. xo'jalik sudiga tuman hokimi qarorini haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo kiritdi.

Savol:

- "Asil" fermer xo'jaligi boshlig'i T.ning da'vosi qonuniymi?
- Tuman hokimining qarori to'g'ri asoslantirilganmi?
- Masalani qonun doirasida hal qiling!

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olishning huquqiy tartibiga doir masala:

MASALA:

Fuqaro O. o'zi tashkil etayotgan fermer xo'jaligini yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun tuman hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasiga shaxsan kelib ariza taqdim etdi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizasiga belgilangan tartibda tasdiqlangan fermer xo'jaligining ustavi, davlat bojining to'langanligi haqidagi bank to'lov hujjati, bir xil yoki adashtirish darajasida o'xshash bo'lgan firma nomi mavjud emasligi haqidagi ma'lumotnomaning asl nusxasi; uch nusxada muhr va shtamp eskizlarini ilova qildi. Inspeksiya tuman hokimining yer uchastkasi ajratib berish to'g'risidagi qarori nusxasi yetishmayotganligini bildirib, kamchilik bartaraf etilgach ro'yxatga olish harakatlarini boshlash mumkinligini bildirdi.

Savol:

- Inspeksiya tomonidan fermer xo'jaliklariga nisbatan tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish talabi to'g'ri qo'llanilganmi?

- Fikringizni asoslang!
- Masalani huquqiy hal qiling!

Fermer xo'jaligini yer va suvdan foydalanish huquqiga doir masalalar:

MASALA:

“Qozirovot” fermer xo'jaligi rahbari Sh. fermer xo'jaligiga ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan 85 gektar yerni 5 gektarini qo'shnisi D.ga 3 yil muddatga ijaraga berdi. Qo'shnisi D. bilan yer ijara shartnomasini tuzib, fermer xo'jaligi muhri bilan muhrladi. D. fermer xo'jaligi rahbari Sh.dan ijaraga olgan 5 gektar yerga sabzavot ekinlarini ekdi.

Tuman hokimligi tomonidan o'tkazilgan yer nazoratida bu holat aniqlangach, 5 gektar yer maydonini fermer xo'jaligiga qaytarish talabi qo'yildi. Fuqaro D. yer uchastkasini yerning egasi hisoblangan fermer xo'jaligi boshlig'i Sh.ning roziligi bilan, ijara shartnomasi asosida qonuniy foydalanayotganligini aytib, tuman hokimligi talabini noqonuniy deb hisoblashini bildirdi.

Savol:

- Fuqaro D.ning harakatlari yer qonunchiligiga muvofiqmi?
- Fermer xo'jaligi rahbari Sh. bilan qo'shnisi D. o'rtasida tuzilgan yer ijara shartnomasi huquqiyymi?
- Hokimlikning talabi qonuniymi?

MASALA:

“Tursun” fermer xo'jaligi rahbari Yu. og'ir kasallik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotgach fermer xo'jaligini boshqara olmay qoldi. Oilaning 28 yoshli katta farzandi E. otasining fermer xo'jaligida to'qqiz yildan buyon ishlayotganligi, yetarlicha ish tajribasiga ega ekanligini aytib, otasi Yu. rozi bo'lsa fermer xo'jaligiga rahbarlik qilish istagi borligini izhor qildi. Yu.ning roziligini olgach E. tuman hokimligiga holatni bildirib, otasi yer ijara huquqini ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga berganligini ma'lum qildi. Tuman hokimligi E.ning mutaxassisligi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelmaydi degan vaj bilan qarshi bo'ldi.

Savol:

- Qonunchilik bu holatda qanday tartibni belgilaydi?
- Fermer xo'jaligi rahbari Yu.ning qarori noqonuniymi?
- Masalani huquqiy hal qiling!

Fermer xo'jaligi faoliyatida shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga doir masalalar:

MASALA:

MTP rahbari va "Sobit-mustahkam" fermer xo'jaligi rahbari R. o'rtasida fermer xo'jaligining 102 gektar yer maydonini shudgorlash bo'yicha shartnoma tuzildi. Unga ko'ra MTPdan ikkita haydov traktori kelib 3 ish kunida shudgorlash ishlarini tugatdi. Yerni mexanizatsiya vositasida shudgorlash bo'yicha bajarilgan ishlar xo'jalik rahbari R. tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinish jarayonida bajarilgan ishlar miqdori shartnomada ko'rsatilganidek 102 gektar emas 101 gektar, shudgorlar chuqurligi 30 sm emas 25 sm ekanligi aniqlandi. R. dalolatnomada ushbu kamchiliklarni ko'rsatdi. MTP xodimlari dalolatnomada bu kamchiliklar ko'rsatilishi shart emasligini aytishib, ish bajarilganligini ko'rsatib tuzish taklifini bildirishdi.

Savol:

- MTP xodimlarining taklifi qonuniymi?
- Bu holatda fermer xo'jaligi rahbari xo'jalik manfaatlarini himoya qila oladimi?
- Fikringizni qonun talabidan kelib chiqib asoslang!

MASALA:

"Bobodehqon" fermer xo'jaligi tayyorlov tashkiloti kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq topshirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun haq to'lashdan asossiz bosh tortganligi sababli xo'jalik sudiga murojaat qildi. Xo'jalik sudi qaroriga muvofiq tayyorlov tashkilotini fermer xo'jaligiga to'lanmagan summani to'liq va to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdoridagi jarima to'lashi belgilandi. Shuningdek, tayyorlov tashkilotiga jarimadan tashqari xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda

to'lanmagan summaning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan summalarning 50 foizidan ortiq bo'lmagan penya to'lash majburiyati yuklatildi. Tayyorlov tashkiloti xo'jalik sudining ushbu qarorida norozi bo'lib appelyatsiya shikoyati yozdi.

Savol:

- Xo'jalik sudining qarori qonuniymi?
- Tayyorlov tashkilotining shikoyati asoslimi?
- Sizningcha masala qanday hal qilinishi kerak?

Fermer xo'jaligini boshqarishni huquqiy tartibga solishga doir masalalar:

MASALA:

Dehqonchilik yo'nalishiga ixtisoslashgan "Sarkor" fermer xo'jaligi rahbari L. fermer xo'jaligi ixtisosini o'zgartirib chorvachilik bilan shug'ullanishga qaror qildi. Shu maqsadda 150 ta qora mol sotib olib, fermer xo'jaligiga ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan 72 gektar yerga chorvachilik ekinlarini ekdi. Tuman hokimligiga o'zining qarorini ma'lum qilib, yer ijara shartnomasiga bu xususidagi o'zgartirishni kiritishni taklif qildi.

Tuman hokimligi L.ni fermer xo'jaligi boshqaruvidagi o'zgartirishni noqonuniy amalga oshirganlikda, amaldagi yer ijara shartnomasi shartlarini buzishda ayblab, yetkazilgan zararni undirish yuzasidan xo'jalik sudiga da'vo arizasini kiritdi. L. xo'jalik sudiga qarshi da'vo arizasi bilan murojaat etib, fermer xo'jaligi yo'nalishini o'zgartirish xo'jalik boshlig'ining mutlaq huquqi ekanligini bildirib yer ijara shartnomasiga tegishlicha o'zgartirish kiritishni suddan so'radi.

Savol:

- L.ning da'vosi qonunga muvofiqmi?
- Tuman hokimligi talabi asoslimi?
- Sizning fikringizcha masala qanday hal qilinadi?

MASALA:

"Dovur-sog'bon" fermer xo'jaligi rahbari P. tuman hokimligiga ariza bilan murojaat etib boshqa ishga o'tishi munosabati bilan fermer

xo'jaligini boshqara olmasligini bildirdi. Fermer xo'jaligini boshqarishni aynan shu mutaxassislikka ega bo'lgan o'g'li M.ga topshirganligi munosabati bilan yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritishni taklif qildi. Tuman hokimiyati P.ning bu qarori amaldagi qonun talablariga to'g'ri kelmasligini, agar fermer xo'jaligi rahbari P. boshqa ishga o'tmoqchi bo'lsa yer ijara shartnomasini bekor qilish shartligini bildirishdi.

Savol:

- Tuman hokimligidan P.ga to'g'ri tushuntirish berildimi?
- Fermer xo'jaligi boshlig'i o'z vakolatini boshqa shaxsga topshirishi mumkinmi?
- Masalani huquqiy hal qiling?

Fermer xo'jaligi faoliyatini moliyalashtirishni huquqiy tartibiga doir masalalar:

MASALA:

“Lochin” fermer xo'jaligi rahbari I. tijorat bankidan uncha ko'p bo'lmagan miqdorda kredit olmoqchi bo'ldi. Bankda kredit olish tartibiga ko'ra kreditlarning qaytarilishini ta'minlash uchun garovga biron bir mulk qo'yilishi lozimligini tushuntirishdi. I. tuman fermerlar uyushmasida bo'lib o'zining kreditga ehtiyoji borligini, biroq garov uchun qo'yadigan mulki mavjud emasligini aytdi. Uyushmada I.ga tijorat bankidan kredit olish uchun garovga yer uchastkasining uzoq muddatli ijara huquqini qo'yishi mumkinligini, buning uchun yer uchastkasining uzoq muddatli ijara huquqi qiymatini baholatishi lozimligini bildirishdi. I. tijorat bankiga borib garovga yer ijara huquqini qo'ymoqchiligini aytdi. Tijorat banki garov sifatida faqatgina mulk olinishi mumkinligini, yer uchastkasining uzoq muddatli ijara huquqi garov narsasi bo'la olmasligini aytib kreditlashni rad etdi.

Savol:

- Fermerlar uyushmasi fermerga to'g'ri maslahat berdimi?
- Tijorat bankining harakatlari qonuniymi?
- Sizning fikringizcha masala qanday hal qilinadi?

MASALA:

“Sarako‘l” fermer xo‘jaligi davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g‘alla va paxta xomashyosi yetishtirishga ixtisoslashgan bo‘lib, tijorat banki bilan tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g‘alla qiymatining 60 foizigacha miqdorida berilishi ko‘zda tutilgan edi. Bunda, g‘alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning 1 yanvariga qadar g‘alla qiymatining 35 foizgacha, 1 aprelga qadar 50 foizgacha va 1 iyunga qadar 60 foizgacha kredit ajratilishi lozim edi.

Mart oyida bank tomonidan g‘alla ekinlarining holatini va bo‘lajak hosilning berilgan kreditlarning qaytarilishini ta‘minlash uchun yetarililigini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan monitoringi natijasida ekinlar qisman mavjud emasligi, ekinlarning ahvoli qoniqarsizligi, ekin maydonlarini begona o‘tlar bosib ketishi natijasida kutiladigan hosil olishning imkoni yo‘qligi aniqlangan va bu haqda bank va «O‘zagrosug‘urta» DASKning hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining tuman bo‘linmalari, Fermer xo‘jaliklari uyushmasining vakilligi birgalikda uch tomonlama dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma asosida bank kreditlashni to‘xtatdi. Fermer xo‘jaligi rahbari bankning xatti-harakati noqonuniy ekanligi, g‘allaning yetilishi iyun oyining oxirlarida aniq bo‘lishini bildirib xo‘jalik sudiga da’vo kiritdi.

Savol:

- Bankning harakati qonuniymi?
- Bu holatda Fermer xo‘jaligi faoliyatini kreditlashni to‘xtatish asoslari qonunchilikda qanday belgilangan?
- Masala yuzasidan o‘z fikringizni bildiring!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2003.
2. **Karimov I.A.** O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. –T.: «O'zbekiston», 1993.
3. **Karimov I.A.** Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. –T.: «O'zbekiston», 1994.
4. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997.
5. **Karimov I.A.** Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. –T.: «O'zbekiston», 1998.
6. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi. –T.: «O'zbekiston», 1998.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. –T.: «Adolat», 2004.
8. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. –T.: «Adolat», 2005.
9. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. –T.: «Adolat». 2005.
10. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2005. 28 avgust.
11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. –T.: «Adolat», 2004.
12. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning Yangi qonunlari. 7-son. –T.: «Adolat», 1993.
13. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning Yangi qonunlari. 8-son. –T.: «Adolat», 1994.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Farmonlari va qarorlari. –T.: «O'zbekiston», 1995.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq ho'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi 1998-yil 10 oktabrdagi Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2004-yil 11 martdagi Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «1998-2000-yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida»gi 1998-yil 18-martdagi qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002-yil 5-yanvardagi qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonunlar, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami –T.: «O'qituvchi», 1998.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi 2003-yil 24-martdagi PF-3226-son farmoni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003. -№ 5-6.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi 2003-yil 27-oktabrdagi farmoni.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-dekabrda № 607 «2005–2007-yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2004. №53.

23. Fermer xo'jaligining Namunaviy Ustavi. O'zR VM tomonidan 1998-yil 15-iyulda tasdiqlangan.

24. **Mirziyoyev Sh.** Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish davr talabi. // Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.

25. **Raximov S.** Qishloq xo'jaligida erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.

26. **Sayfutdinov J.** Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari va muammolari hamda sohada soliq siyosatini amalga oshirish. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.

27. **Abdullayev S.** Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirish va kredit bilan ta'minlashni takomillashtirish. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.

28. **O'rinboyev I.** Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlashning yangi tartibi. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.

29. **Salimov A.** Fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirishning tashkiliy va huquqiy asoslari. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.

30. **S. Qobilov.** Fermer xo'jaliklarining ustuvor yo'nalishlari. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004.
31. **Toshmatov K.** Qishloq xo'jaligida kredit xizmatlarini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi nashri», 2004. 243.
32. **Usmonov M.B.** Fermer qonunchiligi muammolari. //Xo'jalik va huquq. 2001. □1.
33. **Usmanov M.B.** Yer va qonun. –T.: «Adolat», 1994.
34. Yer huquqi. /Usmanov M.B.ning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYuI. 2002.
35. Qishloq xo'jalik huquqi. /Usmanov M.B.ning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYuI, 2000.
36. **Usmonov M.B.** Qishloq xo'jaligida ijara. –T.: TDYuI nashriyoti, 2005.
37. **Usmonov M.B.** Qishloq xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish muammolari. //Qonun himoyasida, 2003. -№6.
38. **Nigmatov A.N.** Yer qonunchiligi va tuproq umumdorligi. Agrar qonunchilikni rivojlantirish muammolari. –T.: TDYuI nashriyoti, 2003.
39. **Nurmatov M., Kenjayev R.** Yerlarni muhofaza qilishda fuqaroviy-huquqiy javobgarlik//Fuqarolik qonunchiligi: Muammo va yechimlar. // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. –T.: TDYuI, 2004.
40. **Nurmatov M.M.** Yer uchun haq to'lashni huquqiy tartibga solish masalalari. // Yer qonunchiligi takomillashtirish muammolari. Konferensiya to'plami –T.: TDYuI. 2005.
41. **Ro'zinazarov Sh.N.** Bozor sharoitida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tizimlarining fuqarolik huquqi maqomi. –T.: «Adolat», 1997.
42. **Usmonov M.B.** Yer xususiyi yoki umumiy.// «Xalq so'zi». 1991.
43. **Usmonov M.B.** Yerga oid savdo munosabatlarini takomillashtirish muammolari. //Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo mulklarini huquqiy ta'minlash muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, –T.: TDYuI. 2004.
44. **Usmonov M.B.** Yer uchun haq to'lash. //Xo'jalik va huquq, 2002. -№ 10.
45. **Fayziyev Sh.X.** Yer islohotlarining huquqiy asoslari. O'zbekiston iqtisodiy Axborotnomasi. 2005. -№3.
46. **Fayzullayeva G.G.** Yer huquqbuzarligi uchun jinoiy javobgarlik, //Qonun himoyasida. 2003.
47. **Fayzullayeva G.G.** Ugolovnoye otvetstvennost za narusheniye zemelnogo zakonodatelstva.// Qonun himoyasida. 2003. -№10.
48. **Mirzaabdullayeva M.R.** Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishga oid qonunchilik xususida ba'zi mulohazalar.//Davlat va huquq. 2004. -№6.

49. **Mirzaabdullayeva M.R.** Yer ijarasi qonunchiligi islohotlari. //Fuqarolik qonunchiligi: Muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. –T.: TDYuI, 2004.

50. **Mirzaabdullayeva M.R.** Yerga bo‘lgan huquqni vujudga kelishida tanlovning ahamiyati. //Yer qonunchiligi takomillashtirish muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. –T.: 2005.

51. **Mirzayev I.** Xususiylashtirilgan fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatining huquqiy jihatlari. //Xo‘jalik va huquq. 1996. -№ 11.

52. **Shukrullayev.A.** Qishloq xo‘jalik korxonalarini qayta tashkil etishning huquqiy asoslari.//Xo‘jalik va huquq. 1999. -№6.

53. **Asranboyev M.** Qishloq xo‘jalik shartnomalari. //Xo‘jalik va huquq. 2000, №-9.

54. **Sultonov Sh.** Dehqon fermer va fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarining bekor bo‘lishi asoslari va tartibi. Xo‘jalik va huquq. 2002, -№ 11.

55. **Temirov X.** Fermer xo‘jaliklari qonuniy tashkil etilganmi.//Xo‘jalik va huquq. 2003. -№1

56. **Sindorov K.** Fermer xo‘jaliklarini keditlash tizimi takomillashmoqda. /Xo‘jalik va huquq. 2004, -№ 4.

57. **O.V. Nazimkina.** Vidi prav na zemlyu i osnovaniya ix voznikoveniya. //Gosudarstvo i pravo. 1999. -№ 8.

58. **Andreyev Yu.N.** Pravovoye regulirovaniye truda v proizvodstvennix kooperativax. //Gosudarstvo i pravo. 1998. -№10.

59. **Bakunina T.S., Zemlyakova G.L.** Dogovornie otnosheniya selskoxozyaystvennix tovaroproizvoditelnix v usloviyax perexoda k rinochnoy ekonomike. //Gosudarstvo i pravo. 2000. -№7.

60. **Abduraimov B.J.** Yeshe raz o zemelnom protsesse. //Gosudarstvo i pravo. 2001. -№7.

61. **Ikonitskaya I.A., Krasnov N.I.** i dr. Dogovori v sfere zemelnix otnosheniy v selskom xozyaystve. //Gosudarstvo i pravo. 2000.№7.

62. **Skachkova G.S.** Osobennosti regulirovaniya truda lits, rabotayushix po trudovomu dogovoru v krestyanskom (fermerskom) xozyaystve. //Gosudarstvo i pravo. 2003, -№2.

MUNDARIJA

I BOB. O'zbekiston Respublikasi agrar islohotlarida fermer xo'jaliklarining o'rni va rivojlanishi	3
II BOB. O'zbekiston Respublikasining fermer xo'jaligi faoliyatiga oid qonunchilik tizimi	16
III BOB. Fermer xo'jaligini tashkil etishni huquqiy tartibga solish	32
IV BOB. Fermer xo'jaliklariga yer berish, yer ijarasi shartnomasi, yerga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatiga olish	56
V BOB. Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olishning huquqiy tartibi ..	66
VI BOB. Fermer xo'jaligini yer va suvdan foydalanish huquqi	73
VII BOB. Fermer xo'jaligi faoliyatida shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish	89
VIII BOB. Fermer xo'jaligini boshqarishni huquqiy tartibga solish	119
IX BOB. Fermer xo'jaligi faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy tartibi ...	130
X BOB. Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish	143
XI BOB. Fermer xo'jaligi faoliyatiga oid qonun hujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik	150
XII BOB. Fermer xo'jaligi faoliyatini tugatish asoslari, shartlari va tartibi	175
Masalalar	185
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	193

Ilmiy-uslubiy nashr

MATLUBA MIRZAABDULLAYEVA

**FERMER XO‘JALIGI FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

Muharrir
Navro‘z BEKMURODOV

Badiiy muharrir
Uyg‘un SOLIHOV

Texnik muharrir
Vera DEMCHENKO

Musahhih
Ma‘mura QUTLIYEVA

Kompyuterda sahifalovchi
Feruza BOTIROVA

Bosishga 23.07.2010 y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16.
Bosma tobog‘i 12,25. Shartli bosma tobog‘i 11,39.
Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Ofset qog‘oz.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 156.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko‘chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo‘limi – 278-30-52; Marketing bo‘limi – 128-78-43
faks — 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

QAYDLAR UCHUN
